

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Xolmanova Z.T.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

Toshkent -2005

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Xolmanova Z.T.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

Toshkent -2005

Ushbu qo'llanma oliy oquv yurti., litsey, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, tilning mohiyati, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur munosabati, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, til fanining bo'limlari haqida umumiy ma'lumot berish, til haqidagi bilim ko'nikmalarini chuqurlashtirish maqsadini qo'yadi.

Mazkur qo'llanmadan til xususiyatlarini, fan asoslarini o'rganuvchi barcha qiziquvchilar, jumladan oliy o'quv yurtiga kirish maqsadidagi tinglovchilar foydalanishi mumkin.

Muharrir: **f.f.d. H.DADABOYEV**

Taqrizchilar: **f.f.n., dots M. QODIROV**
f.f.n., dots Z. HAMIDOV

Mazkur qo'llanma O'zMU O'zbek filologiyasi fakulteti oquv-metodik kengashi yig'inida hamda fakultet Ilmiy kengashining 2005 yil 10 iyuldagisi majlisida tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

“Tilshunoslikka kirish” kursi tilshunoslik fani haqida asosiy ma'lumot beradi. Mazkur kitob “Tilshunoslikka kirish” predmeti haqidagi darslik, o'quv qo'llanmalarini hamda ma'lum pedagogik tajribalar asosida tayyorlangan bo'lib, til ilmi haqidagi muhim jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Mavzular muayyan izchillikda talabalarning fikrlash qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda joylashtirilgan.

Mazkur qo'llanmaning qayd etilgan tarzda tuzilishi:

- talabalarning umumta'lim tahsili jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirishni va mustahkamlashni;
- tilning o'ziga xos tabiatini tahlil etishni;

- til va jamiyat; til va tafakkur; til va nutq munosabatlarini o'rganishni;
- til birliklarining o'zaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'l shini;
- til fanining har bir bo'limi mohiyatini yoritishni;
- til fani bo'limlarining o'rganish obyektini tushuntirishni;
- talabalarda "Tilshunoslikka kirish" kursi doirasida mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

«Tilshunoslikka kirish» til ilmining mohiyati haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlar asosidagi fan ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur fanni o'zlashtirayotgan talaba tilshunoslik sohalari, fan bo'limlari haqida atroflicha bilimni egallashlari lozim.

Uhbu qo'llanmada tilning o'ziga xos tabiat, tilshunoslik masalalari, tilshunoslik bo'limlarining mazmun-mohiyati talabalarning milliy-lisoniy ko'nikmalariga asosan hamda mutaxassislik yo'naliishiga ko'ra o'zbek tili misolida yoritildi.

1-§. "TILSHUNOSLIKKA KIRISH " FANI PREDMETI, VAZIFALARI.

"Tilshunoslikka kirish" fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo'lishi va til taraqqiyotidagi umumiylar qonuniyatlarini, til tavsifi borasigi muhim jihatlarni o'rganadi.

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o'rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Tilning tabiat, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishslash principiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir vogelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rmini, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.

Tilshunoslik fanining asosiy problemalaridan biri tilning ushbu fanning predmetu sifatidagi ta'rifidir. Ma'lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganaladigan murakkab obyekt bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'ifi ham turlicha bo'lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o'zida ham tilning yagona ta'ifi yo'q. Tilning ta'ifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'lmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mayjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunishning til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o'rganish metodlari kabi masalalar ma'lum darajada tilni qanday tushunishga bog'liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta'riflash fanning predmetini ham

turlicha tasavvur qilishga sabab bo'ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy etaplarida qanday hal etilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik fanining pridmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim –tildir. Tilning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi . Til umumiyl qonuniyatga bo'ysunuvchi o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa - munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi , voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi , insoniy kechinmalarni, his –tuyg'ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin .

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamон tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariysi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiyl tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarini hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi . F.de Sossyur fikricha , til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli , fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiatni jihatidan til madaniy –tarixiy va ijtimoiy hodisa , ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi - ishoralar tizimidir .

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari ("Yosh grammatikachilar" maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansa-da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiyl va xususiy tilshunoslik ; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiyl qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas ; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysummaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi .

2-§. TILLARNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY QILISHI

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib , jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniy manfaatlarga hizmat qiladi . Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyatini bilan mustahkam bog'liq . Til insoniyat tarixi qadar qadimiyidir .

Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Xalqning asosiy belgilari: umumiyl til , umumiyl hudud , madaniyat va ma'naviyat muhitning umumiyligidir . Xalqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan milliy til o'zaro farqlanuvchi , yetakchi , iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo'ladi .

Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi . Tilning paydo bo'lishi juda murakkabdir . Bu masala faqat tilshunoslikning emas , boshqa ko'p fanlarning: antropologiya , psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir. Tilning paydo bo'lishi masalasi – til qachon va qayerda paydo bo'lgan , dastlab nechta til bo'lgan , u yoki bu tillar qanday tuzilishda bolgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgan emas. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan .

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchandir. Shunday ekan , besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o'zgarish sodir bo'lganini tasavvur qilish , uni ilmiy , ham amaliy , ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish mumkin emas . Til

taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'idir . Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklardan foydalanib , fikr yuritishimiz mumkin . Lekin yozuv tilni o'rganish, tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi muammoni yoritishga to'liq imkon bermaydi. Shunday bo'lsa ham , ba'zi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini , fikrlarini bildirib o'tishgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki , bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o'rtaga tashlashgan. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q , bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan , demak , til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan . Bu guruh olimlar **anomalistlar** deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar "narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog'lanish ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan" degan fikrni ilgari surishgan . Tarixda bu oqim **anologistlar** deb nom olgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida , umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liqlik bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi . Shuni aytib o'tish kerakki , ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan o'zbek , rus , hind , tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo'lganini , qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo, biror bir aniq tilning kelib chiqishi masalasini umuman tilning , insonlar nutqining paydo bo'lishi masalasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi . Hozir dunyoda mavjud bo'lgan jonli tillarning ham , ba'zi bir o'lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o'rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo'lganligi , qachon tarkib topganligi aniqlangan . Biroq, yer yuzida umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganligi , dastlabki tillarda qanday so'zlar bo'lganligi , uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal qilinishi ham mumkin emas . Chunki bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo'lib, keyinchalik nom – nishonsiz yo'qolib ketgan tillar ham bo'lgan.

Bundan bir necha yuz ming yil burun paydo bo'lgan tillarning fonetik tizimi, so'z boyligi , grammatikasi va boshqa muayyan xususiyatlaridan qat'i nazar , umuman tilning kelib chiqishi o'rganilar ekan, eng avvalo , tilning kelib chiqishidagi shart – sharoitlarni tadqiq qilish, ya'ni insonlar qanday sharoitda so'zlay boshlaganliklarini o'rganish va bu masalani umuman tilning kelib chiqishi masalasi bilan bog'lagen holda tahlil qilib, xulosa chiqarish lozim .

Tilning kelib chiqishi masalasini aniqlashdagi qiyinchilik shundan iboratki, birinchidan, hozirgi til tarixi fani dunyoda umuman tilning qanday paydo bo'lganligi to'g'risida hech qanday dalillarga ega emas . Chunki hozir bizga ma'lum tillarning yozuv tarixi 10 -15 ming yildan oshmaydi . Olimlarning faraz qilishicha , inson bundan bir necha yuz ming yil avval so'zlasha boshlagan . Ammo, o'sha davrdagi tillar to'g'risida hozirgi vaqtida hech qanday ma'lumot yo'q . Shuning uchun ham tilshunoslik fani bu masalani to'g'ridan – to'g'ri o'rganish imkoniyatiga ega emas. Dunyoda eng avval paydo bo'lgan tilning fonetik tuzilishi , so'z boyligi qanday ekanligini , grammatik shakllari nimalardan iboratligini bilish mumkin emas.

Umuman, tilning qanday sharoitlarda paydo bo'lishi masalasini ilmiy farazlarga asoslanib o'rganish mumkin bo'ladi. Tilshunoslik ilmi bir – biriga yaqin bo'lgan psixologya , fiziologiya , etnografiya , arxeologiya , tarix va shunga o'xshah fanlarning dalillariga suyanib , tilning kelib chiqishi masalasiga yondashishi mumkin .

Turli nutq tovushlarini biriktirib , so'zlar hosil qilish va so'zlar vositasida gap tuzib , istak va maqsadni ifodalash kishilik jamiyatining boshlang'ich davrlarida yashagan odamlarni o'ylantirib kelgan . Shuning uchun tilning paydo bo'lishi to'g'risida qadimgi kishilar turli rivoyatlarni to'qiganlar. Bu rivoyatlarning ba'zilarida til ma'budlar, ba'zilarida Alloh

tomonidan yaratilib , kishilarga taqdim qilinganligi , ayrimlarida esa tilni ajoyib bir donishmand yaratganligi talqin qilingan .

Yuqorida ta'kidlanganidek, antik zamonlardan beri tilning kelib chiqishi to'g'risida bir qancha nazariyalar yaratilgan . Antik faylasuflar tilning kelib chiqishini bir – biriga qarama – qarshi bo'lган ikki xil nazariya bilan tushuntirishga harakat qilganlar . Ba'zi faylasuflar til tabiiy yo'l bilan paydo bo'lган , ya'ni so'z va predmetlar o'rtasida to'g'ridan – to'g'ri tabiiy bog'lanish bo'lганligi uchun kishilar predmet va narsalarni tabiiy holda bilib olishgan , deb isbotlamoqchi bo'lганlar . Ba'zi faylasuflar esa til kishilarning bir-biri bilan o'zaro kelishihsa natijasida vujudga kelgan , deb hisoblaganlar , Ana shu bir-biriga qarama – qarshi ikki nazariyaning o'zaro kurashi natijasida yana bir qancha nazariyalar vujudga kelgan .

Fanda tilning kelib chiqishi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud bo'lib , ular bir-biri bilan kurashib kelmoqda . Bu nazariyalarning ba'zilari til insonlarning bir-biri bilan munosabatda bo'lishi ehtiyoji natijasida kelib chiqqan deb hisoblasa , boshqalari ayrim shaxslarning o'z fikrini avval o'zi uchun , keyin boshqalar uchun bildirishi natijasida kelib chiqqan , deb hisoblaydi . Shu tariqa tilning paydo bo'lishi va shakllanishi haqida turlicha qarashlar , nazariyalar , farazlar yaratildi . Ushbu nazariyalar tanqidiy tahlil asosida o'rganilishi lozim . Bu nazariyalar asosan 4 ta :

Ovozga taqlid nazariyasi kishilarning o'z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so'zlar , predmetlarning nomlari paydo bo'lган , deb hisoblaydi .

Bu nazariya qadimgi Yunonistonda - Demokrit va Platon davrida o'rtaga tashlangan bo'lib , unga ko'ra ibridoiy odamlar yo ongli , yo ongsiz tarzda turli – tuman tovushlar , ya'ni hayvonlarning baqiriqlari , qushlarning sayrashi , shamol va sharsharalarning ovozlariga taqlid qilishga harakat qilishgan . Masalan : *chumchuq , kaklik , qarg'a , shir-shir , taq-tuq , kuk-ku , gumbur-gumbur* kabilar . Ammo bu so'zlar hamma tilda mavjud bo'lsa ham , ular juda ozchilikni tashkil qiladi . Tabiatda tovush chiqarmaydigan narsalardan tovush chiqaradiganlari kam . Shunday ekan , tovush chiqarmaydigan narsalarning nomi qanday shakllangan , degan savol tug'iladi . Bu nazariya to'g'ri bo'lsa , unda ibridoiy jamiyatda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan so'zlar soni fan va texnikasi rivojlangan xalqlar tilidagiga nisbatan ko'proq bo'lishi kerak . Lekin so'nggi yillarda Janubiy Amerika va Avstraliyada topilgan , ibridoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida o'tkazilgan tajribalar bu tillarda tovushga taqlid qilish yo'li bilan yasalgan so'zlar rivojlangan tillardagiga qaraganda birmuncha kamchilikni tashkil qiladi . Undan tashqari , tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish uchun nutq organlarining o'ta rivojlangan bo'lishi ham aniqlangan . Shuning uchun taqlidiy so'zlar tilning paydo bo'lishi masalasini hal qilishda asosli ahamiyatga ega emas . Demak , ovozga taqlid nazariyasi tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri hal qilib berolmaydi .

Undovlar nazariyasi ham tilning paydo bo'lishi masalasini talqin qiluvchi nazariyalardan biri bo'lib , bu nazariya tarafdarlari tildagi barcha so'zlar kishilarning ichki tuyg'ulari , qahr-g'azablari , his-hayajonlari , ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lган , deb da'vo qiladilar . Bu nazariya ham qadimiylar bo'lib , uning asosida ham hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi . Mazkur nazariya asoschilarining fikricha , ibridoiy odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib , ular orqali o'zlarining ichki kechinmalari , g'am-alamlarini ifodalashgan : *oh , uh , joy , ing* kabi so'zlar bunga misol qilib ko'rsatiladi . Tildagi boshqa so'zlar esa ana shunday so'zlarning birikuvidan kelib chiqqan , deb tushuntiriladi . Taniqli faransuz olimi J.J.Russo ham shu fikrni quvvatlagan .

Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud . lekin bunday so'zlarning miqdori shu qadar kamki , tildek murakkab hodisa ana shu yo'l bilan paydo bo'lган , deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo'lar edi .

Ma'lumki , tilning asosiy vazifasi kishilar orasida fikr almashinuvini ta'minlashdir . Binobarin , mazkur nazariyani qabul qilish tilning asosiy vazifasini , tilning ijtimoiy hodisa

ekanligini rad etishga olib keladi . Ichki kechinmalarni izhor qilish doimo ham jamiyatning bo'lishini taqozo qilmaydi . Tilning yashashi va rivojlanishi esa jamiyat bilan uzviy bog'liq : jamiyat bor joydagina til bor , til bor joyda jamiyat bor .

Demak , bu nazariya ham tilning kelib chiqish masalasini to'g'ri yoritishga ojizlik qiladi .

Mehnat hayqiriqlari nazariyasi tarafdorlari tildagi barcha so'zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan Ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo bo'lgan , deb da'vo qiladilar .

Bu nazariyani XIX asrning 70 – yillarda fransuz faylasufi L. Nuare yaratdi . Uning qayd qilishicha , til instinkтив hayqiriqlardan paydo bo'lgan . Nemis olimi Karl Byuxer ham ushbu nazariyani quvvatlaydi .

Bu nazariya bir qarashda haqiqatga birmuncha yaqin nazariyadek ko'rinsa ham , mantiq jihatdan asossizdir . Chunki mehnat qilishdagi qiyqiriqlar , hayqiriqlar mehnat jarayonidagi bir maromga , bir qolipga solish uchun bir vosita bo'lган , xolos . *uy , oh , voh , viq , oho , ehe* kabi hayqiriqlar kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lganligi ehtimol .

Mehnat hayqiriqlari undov nazariyasiga o'xshab ketadi . Lekin bu nazariya ham tilning kelib chiqish sabablarini , tilning paydo bo'lishini jamiyatning paydo bo'lishi , so'zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan insoniyatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'lay olmaydi .

Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib , uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan , ularning tilning kelib chiqishi to'g'risidagi asosiy fikrlari bir xil . Bu nazariyaga asosan , narsalarni qanday atashni odamlarning o'zları kelishib olishgan . Biror narsani nomlashda kelishib olish uchun , tabiiyki , kelishuv vositasi , ya'ni til kerak bo'ladi . Ushbu nazariya tilning paydo bo'lishini emas , balki til rivojlanishining bir yo'nalishini yoritishi mumkin . Hozirgi vaqtga kelib u yoki bu fanga taalluqli atamalar yoki so'zlar o'zaro kelishib olinadi . Lekin buning til shakllanishiga aloqasi yo'q .

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazariyalarning hammasi ham tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri yoritishga ojizlik qiladi . Chunki bu nazariyalar tilning kelib chiqishi masalasini insoniyatning paydo bo'lishi , dastlabki kishilar jamoasining vujudga kelishi masalasidan ajratib olgan holda qaraydi .

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko'rmasin , u gapirmaydi . Chunki til nasldan naslga , avloddan avlodga o'tmaydi , ya'ni uni irsiyatga bo'lab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi . Irsiyat qonuniga binoan , bolaning biologik , antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o'tadi , lekin o'zbek oilasida tug'ilgan bola faqat o'zbek tilida gapiradi deyish noto'g'ridir . U qaysi tilda gapira boshlashi qaysi oila , qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog'liq .

Qayd etilgan nazariyalarda , birinchidan , til go'yo jamiyat tarixi taraqqiyotidan chetda , o'z holicha taraqqiy etadigan hodisa , deb qaralgan . Shuning uchun ham tilning kelib chiqishi masalasi ibtidoiy davrdagi kishilarning mehnat faoliyatidan ajratilgan holda qaralgan . Ikkinchidan , bu nazariyalarda tilning kelib chiqishi masalasi tafakkurning paydo bo'lish masalasi bilan birgalikda , o'zaro bog'langan holda emas , balki ajratilgan holda talqin qilingan . Uchinchidan , odamning paydo bo'lishi jarayonidagi barcha biologik asoslar hisobga olinmagan .

Sharq tilshunosligida ham tilning paydo bo'lishiga oid mulohazalar bildurilgan . Jumladan , Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asari muqaddimasida o'sha davr dunyoqarashiga mos bo'lgan tilning paydo bo'lishiga doir qarashlar bayon qilingan . Alisher Navoiy tilning paydo bo'lishini Nuh alayhissalom avlodlariga bog'laydi :

"Mundin so'ngra uch nav tildurkim , asil va mo'tabardur va ul tillar iborati gavhari bila koyilining (aytuvchi , so'zlovchi) adosig'a zevar va har qaysining furu'i (shox , daraxtning shoxi) bag'oyat ko'ptur . Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki (bir narsaning chiqib kelgan o'rni , kelib chiqish joyi , boshlanishi) , Nuh payg'ambar... ning uch o'g'lig'akim , Yofas va Som va Homdur , etishur . Va bu mujmal

tafsili budurki , Nuh... to'fon tashviridin (to'lqin , falokat) najot va aning mahlakasidin (xavf – xatar joyi va vaqt , halokat , xavf – xatar) hayot topti , olam ma'murasida bashar jinsidin osor va inson navidin namudor qolmaydur erdi . Yofasniki , tavorix ahli Abu – t – turk bitirlar , Xito mulkiga yibordi va Somniki , Abu – l – furs bitirlar , Eron va Turon mamolikining vasatida (o'rtta , o'rtaliq) voliy (hokim , hukumdar , podshoh qildi va Homnniki , Abu – l – hind depturlar , Hindiston bilodig'a (shaharlar , mamlakatlar uzatti . Va bu uch payg'ambarzoda avlod va atbo'i (tobelar , fuqarolar , qaramlar , izdoshlar) mazkur bo'lg'an mamolikda yoyildilar va qalin bo'ldilar . Va Yofas o'g'loniki , Abu – t – turkdur , tarix ahli ittifoqi(bir fikrga kelish , hammasi degan ma'noda)depturlarki , nubuvvat (payg'ambarlik) toji bila sarafroz va risolat (payg'ambarlik , rasullik) mansabi bila qarindoshlaridin mumtoz (saralangan , ajratilgan) bo'ldi . Va uch tilki , turkiy va forsiy va hindiy bo'lg'ay . Bu uchovning avlod va atbo'i orasida shoe bo'ldi . ("Muhokamat ul – lug'atayn "dan) .

Olimlarning faraz qilishicha , mehnat , ibridoiy mehnat qurollarini yasash odamlar a'zolarini asta-sekin juda uzoq davrlar davomida takomillashtirib , til hamda tafakkurning rivoj topishida beqiyos rol o'yagan .

'Demak , mehnat qilish , mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar borgan sari uyushib boradi , natijada kishilik jamiyati vujudga keladi . Hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odamlarda jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir-biriga nimadir deyish ehtiyoji tug'iladi . Bu zaruriy ehtiyoj esa tilni yaratadi . Til bilan ayni bir vaqtida tafakkur paydo bo'ladi . Mehnat bilan bir vaqtida muhim ehtiyoj talabi bilan til va tafakkurning paydo bo'lishi natijasida bu uch omil bir-biriga ta'sir qilib , rivojlanish imkoniyati yazaga kelgan . Buning natijasida mehnat qilish yo'llari , mehnat qurollari , til va miya asta-sekin takomillasha boshlaydi . Ilgari tosh hech qanday ahamiyatga ega bo'lмаган bo'lsa , endi kishilar undan foydalanishni o'ргана boshlaydilar va uning xususiyatlarini bilib oladilar . Endi odam toshni yorib yoki sindirib , undan har xil shakldagi turli mehnat qurollari yasay boshlaydi va ana shu mehnat qurollaridan foydalanish jarayonida boshqa narsalarning ham turli xususiyatlarini bila boradi . Bu esa narsalarni bir-biriga solishtirib , ularning xususiyatlarini aniqlashni o'ргатади . Oqibatda tafakkurning rivoj topishiga imkoniyat tug'iladi .

Odamlar mehnat qilishini bilganlaridan keyin , oziq-ovqat topish uchun zarur narsalar haqida , ya'ni mehnat qurollari tayyorlash , undan qanday foydalanish , qaysi tarafga borish , oziq-ovqat topish harakatini jamoa bo'lib bajarish va boshqalar to'g'risida ozmi-ko'pmi fikr yurgizadigan bo'ladilar . Ular guruh-guruh bo'lib , birgalikda harakat qila boshlaydilar . Bu esa insonlar tili va tafakkurining borgan sari o'sishiga , ularda mavhum tushunchalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi .

Endigma mehnat qilish qobiliyatiga erisha boshlagan , eng ibridoiy mehnat qurollarini yasashni o'ргана boshlagan odamlardan bir necha bosqich yuqori darajada yashayotgan Afrikadagi qabila jamoasi holatidagi xalq tillarining so'z boyligi , grammatik tuzilishi hamda tafakkurining rivojlanish farqlari qiyoslab bo'lmaydigan darajada ekanligini , rivoj topganini faraz qilish mumkin . Shu tariqa Afrika , Amerika qit'alarida qabila bo'lib yashayotgan xalqlarning rivojlanish darjasini , so'z boyligi , grammatik tuzilishi , tafakkur qilish qobiliyat eng taraqqiy topgan ingliz , rus , nemis , arab kabi xalqlar tillarining so'z boyligi , grammatik tuzilishi va boshqa til hodisalaridan , tafakkur etish darajasidan juda katta farq qiladi . Yuqorida fikrlar til va tafakkurning rivojlanib borishi kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan uzviy bog'langanining yorqin dalilidir .

Jamiyat tarixida tillarning keyingi taraqqiyoti milliy tillarning vujudga kelishi bilan bog'liq . Milliy til mahalliy shevalar bilan o'zaro bog'langan holda taraqqiy qilib boradi . Bu jarayonda ba'zi shevalar milliy tilga qo'shilib , uni boyitadi ; ba'zi shevalarni esa milliy til asta-sekin siqib chiqaradi .

Milliy tilning yagonaligi shuni ko'rsatadiki , til shu millatning barcha tabaqalar , guruhi va sinflariga tushunarli va bab-baravar xizmat qilib , ularning hammasi uchun birdan bir aloqa vositasi bo'lib qoladi . Chunki til ayrim sinf , ayrim tabaqa , ayrim guruh

tomonidan yaratilmagan , balki jamiyatning barcha a'zolari – umumxalq tomonidan yaratilgan.

Xullas , til birligi uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir . Milliy tilning xalq tilidan farqi uning adabiy yozuv shakliga egaligidir . Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir a'zosi , har bir sheva uchun umumiyydir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda o'z aksini topadi.

3-§. TILNING IJTIMOIY TABIATI

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiatni ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi.

Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.

Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi (boshqacha aytganda , «tug'iladi », taraqqiy etadi, « o'sadi»), bir jamiyat yo'q bo'lishi bilan til ham asta – sekin iste'moldan chiqqa boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik til bo'lib qoladi. Masalan, lotin, sug'd, qadimiy Xorazm tillari kabilar bunga misol. Biroq tilninng paydo bo'lishi (" tug'ilishi") taraqqiy etishi (" o'sishi") va iste'mol qilinmay qolishi (" o'lishi") biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo'llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liq holda o'rgangandagina masalani to'g'ri hal qilish mumkin.

Demak, jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o'xshatish noto'g'ridir. Til o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o'zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi.

Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashxur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'r ganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.

V. Gumboldt ta'rificha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antinomiya qarama-qarshilik) metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Til tabiatiga xos asosiy antinomiyalar quyidagilardir:

Birinchi antinomiya: til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmanidek, tilning ham tafakkurdan ajralib qo'yilishi mumkin emas.

Ikkinci antinomiya: til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomonidan, til faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Tilda so'zlovchi har bir kishi o'zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shamdi. Shu bilan birga til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlantirgan va avloddan-avlodga o'tib boradigan aniq tarixiy me'yordir. «Aslida til» «егон» (faoliyat mahsuli) emas, balki «еhepgiya» (faoliyat) ning o'zginasidir». Bu antinomiyadan ko'rini turibdiki, V. Gumboldt til bilan nutqning tilshunoslik fanining ob'ektlari, sifatida ajratib o'rganish masalasini ilgari surgan. Demak, ikkinchi antinomiya til bilan nutqning o'zaro munosabati masalasidan iborat.

Uchinchi antinomiya: nutq va tushunish antinomiyasidir. V. Gumboldt ta'rifiga ko'ra nutq bilan nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.

To'rtinchi antinomiya: tildagi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarni o'z ichiga oladi. V. Gumboldtning fikricha, har bir individ insoniyat kollektivi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun qoidalariga rioya qiladi. Sub'ektiv hodisa sifatida esa har bir so'zlovchi o'zining nutqiy faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun o'z hissasini qo'shadi.

Beshinchi antinomiya: tildagi kollektiv va individual xususiyatlardir. Ma'lumki nutq ayrim shaxslarning mahsulidir, ammo ayrim shaxslar o'zlaridan oldingi avlod tomonidan yaratilgan kollektiv mahsulotidan foydalanadilar. Nutq faoliyati o'z navbatida so'zlovchini va tinglovchini taqozo qiladi. Shuning uchun tildagi kollektiv va individual xususiyatlarni o'rganish zarur.

Demak, V. fon Gumboldt fikricha, til nihoyat darajada murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish esa tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi.

V. fon Gumboldt ta'kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib o'zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi- tilning ana shu xususiyatini o'rganishdan iboratdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.

Garchi V. Gumboldtning nazariyasi idealistik falsafaga asoslangan bo'lsa ham, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa til bilan nutq antinomiyasi xususidagi ta'limoti tilshunoslik fanining taraqqiyoti uchun juda katta hissa bo'ldi. V. Gumboldtning til haqidagi falsafiy nazariyasi, o'zidan keyingi tilshunoslik fanining takomillashuvida, turli ilmiy muktablar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo'ldi.


Tilshunoslik fani tarixida muhim o'rinn tutgan «Yosh grammatikachilar» maktabi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til avvalo uzoq tarixga ega bo'lgan kishilik jamiyatni madaniyatining mahsuli bo'lib, uni tarixiy jihatdan o'rganish zarur. Shunga binoan, tilshunoslik tarixiy fan bo'lib, tilning o'ziga xos tabiatini, tilning o'zgarish sabablarini o'rganishi lozim. «Yosh grammatikachilar» maktabining eng yirik namoyandası G. Paulning fikricha, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi bir. «Yosh grammatikachilar» til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o'rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatic qurilishi turlicha bo'lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiatni kabi masalalar bilan qiziqmadilar. Ular o'sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo'lib, tildagi barcha hodisalarini individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar.

F. de Sossyurning ilmiy g'oyasi tilning murakkab ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan. F. de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir.

Ijtimoiy tabiatni jihatidan-qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir.

F. de Sossyurning ta'rificha, tilshunoslik faniniig obyekti shartli belgilar sistemasi bo'lgan tilni o'rganishdir. Shuning uchun ham tilshunoslik belgilarni o'rganadigan semiotik fanlar qatoriga kiradi. F. de Sossyurning ta'kidlashicha, insonning nutq faoliyati ko'p tomonlama hodisa bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun nutq faoliyatini o'rganishda F. de Sossyur ham V. fon Gumboldt kabi antinomiya metodidan foydalandi.

Tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. de Sossyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til bilan nutqning asosiy farqi - til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini F. de Sossyur quyidagi sxemada ko'rsatadi: (Ijtimoiy tabiatni jihatidan-qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgi lar sistemasidir).



I Garchi F. de Sossyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida - alohida o'rganishni taklif qildi. Fanning bu ikkala tomonini o'rganish uchun F. de Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasi degan nom ham berdi.

F. de Sossyur fikriga ko'ra, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi va predmeti til lingvistikasini o'rganishdan iboratdir. Nutq lingvistikasi esa tilshunoslik uchun ikinchi darajali masala bo'lib, boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin.

F. de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi tilning ichki qurilishi (strukturasi)ni o'rganadigan lingvistika, tashqi lingvistika esa tilning xalq madaniyati, tarixi bilan aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, tilshunoslik fani uchun ikinchi darajali hodisadir.

Tilshunoslik fanining predmetini yanada aniqroq tasavvur etish maqsadida F. de Sossyur tilni o'rganishda sinxronik (bir vaqtda) va diaxronik (ketma-ket, tadrijiy suratda yuz beradigan yoki tarixiy) aspektlarni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi va ko'proq sinxronik aspektga ahamiyat berdi.

F. de Sossyur fikricha, sinxronik aspekt bilan diaxronik aspektlar o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum aspekti tanlash o'z oldiga qo'yilgan ilmiy maqsadlarni nazarda tutadi.

Sinxronik aspekt til sistemasini o'rganadi, ammo diaxronik aspekt o'rganadigan obyekt esa sistemani tashkil qilmaydi.

F. de Sossyur nazariyasida asosiy antinomiya - til va nutq antinomiyasidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan tashqi va ichki lingvistika, sinxroniya va diaxroniya antinomiyalarini til va nutq aitnomiyasining natijasidir.

Shunday qilib, F. de Sossyur nazariyasi tilshunoslik fanining predmetini o'rganishga qo'shilgan katta hissa bo'lди. F. de Sossyur nazariyasi ta'sirida XX asrda «Strukturalizm» nomi bilan atalgan yangi lingvistik oqim vujudga keldi.

Tilnnng ijtimony tabiatnni talqin qilishda jahon tilshunosligi dialektik taraqqiyot prinsplariga asoslanadi. Xususan, tilni jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunish tilshunoslik faniga qo'shilgan eng buyuk hissalardan biridir. Tilnnng asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan bo'lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Tilning ijtimoiy tabiatni uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Insonning butun hayoti til bilan bog'liq bo'lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o'rganadilar, o'zaro fikr almashadilar, jamoa bo'lib birlashadilar va mehnat qiladilar.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy -biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bogliq bo'limgan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish na fikrlash uchun kishilik jamiyatni (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bogliq. Misol uchun, fransuz bolasi go'daklikdan yaponiyaliklar orasida tarbiyalansa, u faqat yaponcha so'zlab, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz

tuzilishini, sochining rangi va hokazolar) o'zgarmagan holda shakllanib boradi. Boshqa bir misol: 1920 yilda Hindistonda ovchilar bir uyada ikki bo'ri bolasi va ikki qizchaga duch kelganlar. Ular (ayniqsa ularning kattasi-Kamola) o'zlarini bo'ri sifatida tutganlar. Kamola bo'rilar bilan 15 yil birga hayot kechirgan. Lekin u gapirishni butunlay bilmagan. Uni «odamlashtirish» juda sekinlik bilan amalga oshgan. Faqt o'rgatishning uchinchi yilida ikki oyoqda turishni (shunda ham orqasidan ushlab turilsa) o'rgangan. Yetti yildan keyingina ikki oyoqda yura boshlagan. Lekin, baribir, yugurish zaruriyat tug'ilsa, emaklab chopgan. Nutqqa o'rgatish yana ham qiyin bo'lgan. To'rt yil davomida faqt olti so'zni bilib olgan. Yetti yil davomida Kamolaning lug'atidagi so'zlar ellikka ham bormagan. 16 yoshida bu qiz o'zini 4 yoshli qiz holida tutgan. Bu misol ham tilning jamiyat bilan bog'liqligini, uni jamiyatdan ajratish mumkin emasligini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatib turibdi. Ma'lumki, jamiyatga xizmat qiladigan njitimoiy hodisalarning turlari nihoyatda ko'p. Bazis, ustqurma, ideologiya kabi ijtimoiy hodisalar yoki ayrim tabiiy hodisalar (yog'ayotgan yomg'ir, quyosh nuri va hokazolar) ham jamiyatga xizmat qiladi. Ammo bu hodislarning jamiyatda bajaradigan funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasi bor. Masalan, bazis jamiyatning iqtisodiy tuzilishini, ustqurma esa jamiyatning siyosiy, yuridik, ideologik normalarini belgilab beradi. Har bir tuzumning o'z bazisi va ustqurmasi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarining o'zgarishi bilan bazis va ustqurma ham o'zgarib turadi. Til esa na bazis va na ustqurma tarkibiga kirmaydigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir. Shuning uchun ham til sinfiy xarakterga ega emas. So'zlovchi insoniyat jamoasi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Shu bilan bir qatorda, har bir so'zlovchi ayniqsa adiblar, olimlar o'zlarining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun ma'lum hissalarini qo'shadilar. Kishilar o'zaro aloqa qilish, fikrlashishda tildan boshqa vositalardan ham foydalanadilar. Bular ovozli va grafik shaklda bo'ladi va odatdagi so'zlashuv nutqidan boshqa turli tovush signallari: zvonok, gudok kabilardan foydalaniladi.

Grafik yozuv ko'rinishlari turlichadir:

1. Yozuv- kishilik aloqasida muhim vositadir. Yozuvnining eng afzal tomoni unga vaqt va masofaninig ahamiyatsizligidir. Yozuv jamiyatning madaniy taraqqiyotida muhim faktordir.

2. Yordamchi vositalar - qo'l alifbesi va ko'rlar alifbesi. Qo'l yozushi barmoqlar yordamida harflarni tasvirlash bo'lib, eshitish qobiliyatini yo'qotganlar uchun xizmat qiladi. Ko'rlar alifbesi Lui Brayl' tomonidan ishlangan bo'lib, ko'rish qobiliyatini yo'qotganlar uchun mo'ljallangan. Bunda harflar 6 nuqtaning turli kombinatsiyasi orqali ko'rsatiladi.

4-§. TIL VA JAMIYAT. SOTSIOLINGVISTIKA

Til va jamiyatning o'zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o'rganadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir.

Umumiyl til tushunchasining shevadan farqi bor: til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhigagina taalluqlidir. Til ko'p vazifali, hamma uchun umumiyl bo'lgan aloqa-munosabat vositasidir; sheva esa, vazifa nuqtai nazaridan chegaralangan bo'lib, tilning nutqiy ko'rinishini tashkil etadi.

Masalan, o'zbek tiliga qarluq-chigil-uyg'ur dialekti asos bo'lgan. Bu sheva Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro shevalarini o'z ichiga oladi. O'zbek tili—ko'p dialeklti til. Bu hol o'zbek tilining o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o'zbek millatining o'tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanadi.

Ta'kidlanganidek, til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, tilning grammatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, avval urug'dosh tili, keyin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan.

Dialektlar urug'chilik davridan boshlab, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichiga qadar son jihatdan ko'payib boradi. Bu qabilalarning yashash tarzi bilan bog'liq. Avval bir qabila ittifoqiga kirgan tillar markazdan uzoqlashgan sari ulardagi dialektal farq orta boradi va bu dialektal farqlar oxir-oqibatda yangi til paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi. Dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi-yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiyotining **differensiatsiya** jarayonini tashkil qiladi. Differensiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishidir.

Har bir millat o'z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi kuzatiladi. Buni adabiy til ta'sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon **integratsiya** deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvlidir. Bunday jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog'liq tarzda sodir bo'ladi.

Til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liq jihatlarini o'rghanuvchi soha ***sotsiolingvistika*** (ijtimoiy tilshunoslik) dir. Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni o'rGANADI:

- 1) jamiyat va til o'zaro bog'liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.
- 2) jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.
- 3) adabiy tilning, shevalarning lug'at boyligi kengayadi, ortib boradi.
- 4) yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o'xshash hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta'sir ko'satadi. Tillar leksik jihatdangina emas, balki grammatik jihatlariga ko'ra ham ta'sirlashadi.

Dunyo tillarining, ma'lum ma'noda, o'ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko'rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog'liq tomonlarini o'rganish tilning o'ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Kishilik jamiyat taraqqiyoti davomida aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilning jamiyatga bo'lgan nisbatini turlicha izohlashgan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Ba'zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan. Ba'zilari o'zgarmas voqelik sifatida qarashgan. Bunday qarashlarni tanqidiy-tahliliy ravishda o'rganib, quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- 1.Til tabiiy-biologik hodisa emas.
- 2.Tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bog'liq emas.
- 3.Til kishilarning tabiatiga, irqiga, nasliga aloqador emas.
- 4.Jamiyat bo'lib uyushgan kishilargina aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilga ega. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiatini uning janiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda ***tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylilik*** kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo'lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tishi kerak. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning ***tarixiyligi*** bilan bog'liq.

Tilning ***hayotiyligi*** uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjuligidir. Til hayotiyligini yo'qotsa, o'lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan

jamiyat zarur bo'ladi. Ba'zan o'lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini misol qilib keltirish mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdimi, uni sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

Sotsiolingvistikadagi **me'yoriylik** mezoni deyilganda tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiglashtiriluvu tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me'yorashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Me'yorashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalalar asosida muvofiglashtirilgan milliy-adabiy tildir.

Hududiylilik tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylilik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi.

Ijtimoiy tabiatni va o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, tillarni quyidagicha guruhash mumkin.

Me'yorashtirilgan tillar adabiy til me'yoriga ega bo'lgan tillardir. Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo'lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o'zgarib boradi.

Qadimiy tillar tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimiy madaniy-ma'naviy yodgorliklar yaratilgan tillardir. Bu tillar keyingi davrlarda shakllangan bir qator tillar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Qadimiy tillar kishilik jamiyatining umumiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ma'lum davrda aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo'lib, keyingi davrlarda iste'moldan chiqqa borgan. Natijada o'lik tilga aylangan. Lotin tili qadimiy tilning yaqqol namunasidir.

Mahalliy tillar kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Mahalliy tillar o'z yozuviga ega emas. Bunday tillar faqat og'zaki shaklda mavjud bo'lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi.

Kreol tillar Yevropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) xususiyatlarining singishidan hosil bo'lgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida *giti-kreol*, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan *ispan-nauatal* kreol tili hosil bo'lgan. Kreol tillarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda birdan ortiq tilning o'ziga xos xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Pijin tillar ham Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga keladi. Lekin pijin tillarida so'zlashadigan jamiyat yo'q (kreol til jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi). Pijin tillardan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladi.

Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun'iy til hisoblanadi. Bu tilning lug'aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshitirishlar ham tashkil qilingan. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog'liq.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiy va xususiy qonuniyatlarga tayanadi.

XIX asrning o'rtalarida tabiiy fanlarning rivojlanishi, Charlz Darvin ta'limotining vujudga kelishi bilan tilni tirik organizm deb tushunish kuchayadi.

Chunonchi, nemis tilshunoslari M. Myuller va A. Shleyxerlar shu nazariya tarafdoi edilar. To'g'ri, fiziologik jihatdan til umurtqali hayvonlarning, shu jumladan, kishilarning og'iz

bo'shlig'ida joylashgan harakatchan bir qismi. Lekin hayvonlar tili faqat ovqat yeyish, uning ta'mini aniqlash kabi ishlar uchun xizmat qiladi. Kishilar tili esa hayvonlarga xos xususiyatlardan tashqari, nihoyatda muhim vazifalarni, ya'ni kishilik jamiyatining aloqa vositasi—kommunikativ ijtimoiy vazifani bajaradi.

Shuni uqtirib o'tish kerakki, insonning tabiiy-biologik xususiyatlari kishilik jamiyatidan tashqari, jamiyatga bog'liq bo'limgan holda, masalan, yangi tug'ilgan go'dak hayotining takomili (nafas olishi, korishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hokazolar) tabiat qonunlariga muvofiq holda taraqqiy etaveradi, o'saveradi. Ammo til bunday tabiiy hodisa emas. So'zlashish, fikrlash uchun kishilik jamiyatining bo'lishi shart. Demak, aytilgan fikrlardan

shunday xulosa chiqarish mumkin: *birinchidan*, til tabiiy biologik hodisa emas; *ikkinchidan*, tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bog'liq emas; *uchinchidan*, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog'liq emas; *to'rtinchidan*, faqat jamiyat bo'lib uyushgan insonlarga aloqa vositasi bo'lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo'lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog'liq bo'limgan ijtimoiy hodisadir.

Dastlabki davrlarda, jamiyatning qarama-qarshi guruhlarga bo'linishiga qaramay, til birgina guruh ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmadi, u jamiyat a'zolarining hammasiga bab- baravar xizmat qildi. Ishlab chiqarish jarayoni jamiyatdagi turli guruh odamlari bir-biri bilan aloqada bo'ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyatning hamma sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat va jamiyatning a'zolari tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsuli bo'lib, jamiyatdagi turli tabaqa vakillari uchun bab-baravar xizmat qiladi.

Faqat bir sinfga yoki bir guruhga xizmat qiluvchi til bo'limgan va bo'lishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, til guruh va tabaqalardan qat'i nazar, butun jamiyatga xizmat qiladi.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham tafakkur ham mehnat jarayonida kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari – fonema, morfema, so'z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (histuyg'y, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog'liqidir.

Til alohida tizim sifatida quidagi vazifalarni bajaradi :

1. *Aloqa – munosabat vazifasi*. Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa – munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa - munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi . Til aloqa – munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan muntazam bog'liq. Kishilar o'z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir – birlariga ta'sir ko'rsatadilar.

2. *Tilning hissiy ta'sir vazifasi*. Tilning muayyan ma'lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi uning hissiy - ta'siriyl vazifasi hisoblanadi . Xabar, sezgi va hayajon , xohish ifoda qilish hissiy ta'sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriy til vositalaridan, jumladan, modal so'zlar , javob talab qilmaydigan so'roq , tartibni o'zgartirish kabilardan foydalaniladi.

3. *Tilning to'plash vazifasi*. Til aloqa – munosabat vositasi, hissiy ta'sir ifodasi bo'lib qolmay , to'plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir . Til millatlararo aloqa - munosabat vositasi, to'plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi asosiy vositalardan hisoblanadi .

Bevosita aloqa - munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari

namoyon bo'ladi. Mustaqil so'zlar, qo'shma nomlar, iboralar, atama nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko'rinishlari fikr fodalovchi birlik hisoblanadi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o'rnini, madaniy – ma'naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilash tilning asosiy vazifalarini to'g'ri ta'riflashga asoslanadi.

Bevosita aloqa – munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo'ladi. Mustaqil so'zlar, qo'shma nomlar, iboralar, atamanomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko'rinishlari fikr ifodalovchi birlik hisoblanadi.

5-§. TIL –RAMZLAR TIZIMI

Har qanday til fonetik tuzilish, grammatic qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qisimlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning murakkab tizim ekanligi I. A. Boduen de Kurtene, H. B. Krushevskiy, F. F. Fortunatov, V. A. Bogoroditskiy, A. A. Potebnya, A.A. Shaxmatov, S .P. Obnorskiy, V .V . Vinogradov, A . M . Peshkovskiy, L. V. Shcherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarhas bog'liq bo'lgan til birlarining yig'indisi va ana shu birlklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Til inson hayotida muhim rol o'ynaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog'langan bo'lib, til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo'lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jaroyinida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan-avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilning tabiat, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o'rganishni talab qiladi.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiat, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. A.Shleyxer tilning tabiat, tilning biologik tabiat to'g'risida, G.Paul til faqat individga xos hodisa ekanligi haqida, Vundt xalq psixologiyasi bilan til o'rtasidagi munosat to'g'risida ilmiy ishlar olib borishgan va bir qancha asarlar yozishgan.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqa-munosfbatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a'zolari bilan uzviy aloqada bo'lib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birlklari va kategoriyalarini chuqur anglab bo'lmaydi. Kishilar o'zaro aloqada o'z fikrlarini, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta'sir qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ funksiyasidir. Bundan tashqari til ekspressiv va akkumlyativ funksiya bajaradi.

Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Bu ehtiyojning kishilar jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi tilda, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Demak, til tabiiy va biologik hodisa emas, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi tabiat qonunlariga bo'y sunmaydi.

Tilning ijtimoiy tabiat uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Til ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari(ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanisi va

hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lmanan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Ko'rindiki, til o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Har qanday til fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lган til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o'zaro munosabati va bog'lanish qonuniyatları murakkab hamda ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo'lsa-da, bu tizim o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan, til tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligan iborat. Har bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o'zaro bog'liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik sath.
2. Lug'at sathi.
3. Grammatik sath.

Fonetik-fonologik sath.

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovush lar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladi tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o'rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydolanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazrdan ham o'rganish mumkin, chunki tovushlar tilda o'z holicha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning fizik va biologik xususiyatlarini fonetika fani o'rganadi. Tovushlarning til tizimida bajaradigan funksiyalarini esa fonologiya o'rganadi. Fonetikaning bir necha ko'rinishlari bor: ***nazariy fonetika, amaliy fonetika, segmental, supergmental fonetika va fonologiya***.

Fonetikaning to'rtinchi asosiy sohasi hisoblanmish fonologiya alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo'lган morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog'liqidir. Nutq fonetik jihatdan ***fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushlariga*** ajraladi. ***Fraza*** nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo'ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga ***takt*** deyiladi. Frazada nechta urg'u bo'lsa shuncha takt bo'ladi.

Takt bo'g'inlardan tashkil topadi. ***Bo'g'in*** bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birligidir. Bo'g'in ta'rifiga aloqador bir qancha nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: ***fonologik bo'g'in nazariyasi va fonetik bo'g'in*** nazariyasi keng tarqalgan. Tovushlar fonetika birligi sifatida o'rganilganda "nutq tovushlari" yoki "fonlar" deb yuritiladi. "Fon" hozirgi tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo'lib, nutqning eng kichik, ma'no anglatmaydigan birligidir.

Nutq tovushlarining o'rganilishidagi aspektlardan biri ***fonologiya*** deb yuritiladi. Nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini fonologiya o'rganadi. Fonologiyaning o'rganish manbai fonemadir. ***Fonema*** so'z, so'z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma'no farqlash uchun

xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan til birligidir. Masalan, *tup-tub*; *quy-qo'y*; *sut-sud* so'zlar fonemalar yordamida farqlanadi. Tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so'zlar ***kvaziomonimlar*** deb yuritiladi. Tildagi barcha fonemalar bir-biriga nisbatan ma'lum ko'lamda bo'ladi. Fonemalarning bog'lanishi, o'zaro munosabati fonologik tizimni tashkil etadi.

Lug'at sathi

Tilning lug'at sathi tilda mayjud bo'lgan so'zlarning yig'indisidan iborat. Lug'at sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim o'zgarib va rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug'at sathining doimiy o'zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, tilning lug'at sathi paydo bo'lishi va qo'llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lug'at sathining asosiy birligi hisoblangan so'z yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydilar; gapda esa so'zlar o'zaro birikib fikr ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Lug'at sathini leksikologiya o'rganadi. So'zning ta'rifi, so'z va predmet, so'z va tushuncha, lug'atning o'zgarishi, so'zlarning bir-biri bilan munosabati, lug'atning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o'rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi. So'zlarning boshlang'ich ma'nosi va shaklida bo'lgan o'zgarishlarni ***etimologiya***, lug'at va uning tuzilishini ***leksikografiya***, so'zning ma'nosi va uning taraqqiyotini ***semasiologiya*** o'rganadi. Frazeologizmlar leksikologiya bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Tilning lug'at tarkibi bir nechta nuqtayi nazardan o'rganilishi mumkin. Tilning lug'at qatlamini tarixiylik nuqtayi nazardan o'z va o'zlashgan so'zlarga ajratish mumkin. Har bir tilda o'z qatlam so'zlar bilan bir qatorda o'zlashgan so'zlar qatlam so'zlar ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar o'rtasidagi turli munosabatlar ta'siri bilan izohlanadi. Lug'at qatlaming ma'lum qismi sheva so'zlaridan iborat. Sheva so'zlar asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva so'zlarining adabiy til lug'atini boyitishda alohida o'rni bor. Tilning lug'at tarkibi iste'mol darajasi nuqtayi nazardan ham turlichadir. Bu jihatdan faol va kam ishlataladigan so'zlar farqlanadi. Bu borada quiroqda, "Tilshunoslik va uning bo'limlari" da (o'zbek tili misolida) batafsil to'xtalamiz.

Tilning lug'at boyligini oshiruvchi asosiy manba so'z yasalishi, shevalardan so'z olish, so'zning ma'no taraqqiyotidagi o'zgarishlar va ma'no ko'chirishlar hisoblanadi.

Grammatik sath

Har bir tilning grammatik sathi so'zlarnibg grammatik formasi, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o'z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik ***morfema*** bo'lib, morfemalardan ***so'zlar*** yasaladi, so'zlar esa o'z navbatida so'z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. ***Gap*** grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: ***murakkab sintakik (birlik) butunlik, abzats va matn.***

Til grammatik strukturasining o'ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, tilning grammatik qurilishi: so'zning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, so'z birikmari va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o'zgaradi.

Ikkinchidan, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab*, *tosh*, *bola* kabi so'zlarning o'z leksik ma'nosi bor, ammo, grammatik nuqtayi nazardan bu so'zlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu so'zлarni ularning leksik ma'nosi emas, grammatik ma'nosi umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasini morfologiya va sintaksis o'rganadi. Morfologiya so'zning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasini o'rganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda o'rganiladi.

Til tizimi til birliklari -fonema, morfema, so'z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridaqilardan ko'rindan, aloqa-munosat vositasi bo'lgan tilning fonetik, leksik,

grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o'zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o'ziga xos bo'lgan alohida qoidalarda namoyon bo'ladi. Muayyan tildagi gaplar so'zlardan, so'zlar bo'g'irlarning birikuvidan, bo'g'inlar nutq tovushlaridan hosil bo'ladi. Jumani, gapni tashkil etuvchi so'zlar o'zaro til qonuniyatlarini asosida birikadi. Istalgan har qanday so'zlar yig'indisi gap bo'la olmaydi. Tartibsiz suratda yig'ilgan so'zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So'zlearning ketma-ketligi ma'lum tartib va umumiyligi qoidaga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Shu holatning o'ziyoq tilning tizim ekanligini ko'rsatadi. Ma'lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so'zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan so'z shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz me'yorlariga bo'ysunadi. Masalan: o'zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so'zlar o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashadi: *чайник-choynak, поднос-patnis*. Aksincha o'zbek tilidan rus tiliga o'zlashgan so'zlar rus tilining talaffuz me'yorlariga bo'ysungan: *qorovul-карапул, karvon-караван, bozor-базар*.

Umuman, tilda tovushlar, lug'at tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o'zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog'liqlik tilning umumiyligi qoyidalari va qonuniyatlariga asoslangan.

6-§. TIL VA NUTQ

Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash ularning munosabat mohiyatini o'rganish arab tilshunosligida VIII-IX asrlardayoq mavjud edi. Mazkur tushunchalarning munosabat shakli hozirga qadar dunyo tilshunoslaringin diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Smernitskiy A. I., Panfilov V.Z., Melnichuk A.S., Solnsov V.M. kabi Praga tilshunoslari sistem tilshunoslik taraqiyotiga ulkan hissa qo'shib, til va nutq munosabati tarixi xususida o'z mulohazalarini bildirgan edilar. Lekin til va nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma'noda ilmiy-nazariy hamda amaliy farqlash; «til» va «nutq» tushunchalariga batamom yangi ma'zmun berilishi F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan boqliqdirdi. Til va nutq maslalariga munosabat dunyoning muayyan taraqqiyot darajasidagi tillarda o'ziga xos tarzda talqin qilinmoqda. Jumladan, hozirgi o'zbek tilshunoslida o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan til va nutq hodisalarining farqiga oid ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo'lishiga qaramay, bu masalaning hal qilinishi lozim bo'lgan jihatlari ko'p.

Tilshunslik boshqa fanlardan ajralib, o'zicha a'lovida mustaqil fan deb tanilgan davrdayoq, til va nutqni fariqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma sohada ham til va nutq bir-biridan farqlanavermaydi. Shuning uchun, ko'pincha nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib keldi.

Keyingi davrlarda til bilan nutqni farqlab yondashish o'zbek tili tadqiqotlari uchun asos qilib olina boshlagani nutq tovushi va fonema, fonetik va fonematik o'zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominatsiya, qurilma va ularning yuzaga chiqishi, lug'aviy birliklarning makro va mikro tekstdagi xususiyatlarini, o'zbek tili sintaksisi sathida mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqr tadqiq etish imkonini yaratmoqda.

Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmati cheksiz. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

Buyuk mutaffakirimiz Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida til va nutq munosabatlarini shunday ifodalaydi:

«Til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir, agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa tilning ofatidir».

Nutqiy faoliyat natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. Lekin bu xulosa F.de Sossyurning fikrini qisman rad etadi. U «avval nutq faoliyati yuz beradi, undan til yuzaga keladi, tildan nutq hosil bo'ladi», degan «o'tish» tartibi haqidagi fikrini ilgari surgan hamda til va nutq dixotomiyasini shatranj o'yini qoidalari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi.

Haqiqatan ham shatranj taxtasidagi 64 katak teng holatda 2 xil rangda, 2 guruhga 32 tadan ajratilib qarama qarshi qo'yiladi, har 2 guruhdagi donalarning vazifasi va qiymati jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga xos joylashish tartibi va yurish qoidalari bir xil; shatranj o'yini qoidalari o'yinchilar uchun majburiy, avvaldan ma'lum bo'lib, ular doim o'yinchilar xotirasida saqlanadi. Har ikkala o'yinchi bir xil imkoniyatlarga ega bo'lib shatranj o'yini qoidalari ga bir xil bo'ysunsa ham o'yinchilarning o'zлari imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ko'ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo'ladi. Qaysi biri shatranj imkoniyatlarini o'z maqsadi yo'liga izchillik bilan bo'ysundira olsa, u shu imkoniyatlardan foydadlana olmagan raqibini engadi.

Lekin Sossyur shatranjda durang holatlari ham bor ekanligini e'tiborga olmagan. Demak, u ta'riflagan harakatda kuchlar tengligiga berilmagan. Shuning uchun bu tasavvur bugunga kelib o'zini oqlamay qo'ydi.

Shunday ekan til va nutq, Sossyur ta'riflaganidek, bir-biriga zid tushuncha bo'lgani holda (Sossyur bu o'rinda bir-birini taqozo qiluvchi zidlikni nazarda tutgan, deb hisoblansa), bir-biriga bog'liq ravishda bir birini talab qiladi, to'ldiradi. Hozirgi davr sistem tilshunosligida til va nutq oppozitsiyasidan kelib chiqib, nutq faoliyati quyidagi 3 tarkibiy qismdan iborat deb hisoblanadi.

1. Til;
2. So'zlash qobiliyati (tildan foydalanish ko'nikmasi va malakasi);
3. Nutq;

Til deganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilgan, hamma uchun umumiyligini, qabul qilinishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliliklar va shu birliliklarning o'zaro birikishi va bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi.

So'zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma'lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlardan foydalana olish ko'nikmasi va darajasi anglashiladi.

Nutq esa yuqorida ta'riflangan tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan so'zlash qobiliyati ko'magida ma'lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo'llanish natijasidir. Shu nuqtayi nazardan til va nutqning bir-biriga xos bo'lgan mavhum-konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliliklari e'tibor qaratamiz.

Til birliliklari	Nutq birliliklari
fonema	fon
morfema	morf
leksema	leks
konstruksiya (model)	so'z shakli; so'z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst

Bu birliliklar o'z navbatida ma'lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba'zan esa bir-birini to'ldiradi.

Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabat haqida aytilgan fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Til	Nutq
Umumiylit	Xususiylik
Imkoniyat	Voqelik
Tayyorlik	Hosilalik
Majburiylik	Ixtiyorilik
Birliliklari chegaralangan	Birliliklari chegaralanmagan

Til va nutq munosaqbatlari umumiyligida quyidagicha izohlash mumkin.

Til va nutq o'zaro aloqador hodisalar sifatida e'tirof etilgan. Til ijtimoiy, nutq xususiy hodisa. Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodalanadi. Til va nutqning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Til- munosabat asosi; nutq munosabat ifodasidir.
2. Til jamiyatda shakllangan; nutq esa har bir shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi.
3. Tilning mayjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog'liq; nutqning mayjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mayjud.
4. Bir shaxs ayni zamonda bir nechs tilga ega bo'la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo'ladi, negaki nutq ma'lum vaqtida va ma'lum makonda yuz beradi.
5. Tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan; nutqning hajmmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn, kitob ifodalari bo'ladi.
6. Til qat'iy, turg'un hodisa; nutq o'zgaruvchan harakatdagi hodisadir.

Nutq jarayoni va so'zlash faoliyatini psixologik tilshunoslik o'rganadi. Psixologik tilshunoslik ham boshqa sohalar qatorida nutqni tiil bilan uzviylikda talqin etadi.

Til ma'lum miqdordagi nutq tovushlarining turli kombinatsiyasi bilan kishilar birlariga bildiradigan so'zlar, grammatik vositalar va ulardan foydalanish qoidaliridan tashlik topgan, degan fikr XIX asrning birinchi yarmidayoq qiyosiy grammatikachilar tomonidan ilgari surildi. Hozir ham tilni shu xilda tasavvur qiladilar.

Ma'lumki, til o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan sistemadir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda ikki elementdan tashkil topgan. Bular: A. Leksika, yani lug'at sostavi. B. Grammatika. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat bo'lgan materiyaga ega.

7-§. TIL VA TAFAKKUR

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tamoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan munosabatdadir. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ama shunday aloqalar mavjud.

Mantiq – tafakkur shakllari qonunlari va usullarini o'rganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo'lishini taminlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo'limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so'z va so'z birikmalarini orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Har bir kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo'lsa, mantiqning shakl va qonunlarni o'zlashtirish ham shunchalik zarurdir.

Mantiq shakllari tushuncha, xulosalar hamma xalqlar uchun umuniy bo'lsa, ularning turli tillarda ifodalinish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan o'z grammatikalariga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog'liq, ular bir-birlarini to'ldiradi.

Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganadigan obyektining tabiatini asos qilib olinadi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til-ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchunchidan Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. To'rtinchidan til uzliksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi. Ana shu

xususiyatlarini o'rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiy belgilarga ega ekanligini isbotlaydi.

Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmanidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Oningizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi.

Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyiliği va fiziologik vazifasi bilan bog'liqidir.

Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar va so'z birikmalari va jumlalar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'yektidir.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Taffakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan .

Til birliklari - fonema , morfema, so'z , gap bir butun holda , mantiqiy tushunchalar (his-sezgi , idrok , tafakkur) bilan uzviy bog'liqidir .

8-§ TIL BIRLIKLARINING O'ZIGA XOS TABIATI

Til muayyan birliklarning tizimidan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Til birliklarining o'ziga xos tabiatini professor Sh. Rahmatullayevning "Til qurilishining asosiy birliklari" qo'llanmasida izchil bayon etilgan:

"Til-tabiiy yo'sinda vujudga kelgan murrakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murrakkab ijtimoiy hodisani o'rganadi va o'rgatadi.

Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala **til** so'zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhum aloqa-aralashuv quroli deyiladi. Bu ta'rif-lingistik ta'rif emas, falsafiy ta'rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, **til** so'zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko'rindi: 1) Ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi, 2) Ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holatigina tushuniladi. Demak **til** deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. **Til** so'zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan, **til** so'zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani **lison** deb atash mumkin.

Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasini qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

Nutq – miyada, til xotirasida mavjud hodisalaridan va ularni ishlatish qoidalardan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (Nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi).

Demak, til hodisalariga ikki nuqtayi nazaridan – lison nuqtayi nazaridan va nutq nuqtayi nazaridan baho beriladi, shu asosda til birliklari lisoniy birliklar va nutqiy birliklar deb farqlanadi.

Lison – tilning kishi miyasidagi til xotirasini markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalardan iborat boylik. **Nutq** esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Lison kishi miyasida mavjud mavhum hodisa bo'lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo'lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz.

Lisonga mansub, ya'ni til xotirasida mavjud hodisalarga **lisoniy birliklar** deyiladi; lisoniy birlikning nutqda moddiy shakl olgan holatiga

nutqiy birlik deyiladi. Demak, har bir kishining miyasida lisoniy birliklarning ramzlaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik bor, har bir kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib nutq hosil qiladi.

Inson tili asosini tovush

tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihatni deyiladi.

Til tovushi lisoniy birlik sifatida

miyadagi til xotirasi markazida ma'lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlarni haqida axborot bo'ladi. Masalan, **u** tovushi haqida "ovozdan iborat", "og'iz bo'shlig'i tor holatda", "tovush hosil bo'lish oralig'i til sathining orqa qismida", "lablar aktiv qatnashadi degan axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan **u** tovushini aytish haqida "ko'rsatma"(impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a'zolari harakatga kelib, ko'rsatmaga binoan ma'lum holat egallaydi va o'pkadan chiqayotgan havo ma'lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi".

9-§. DUNYO TILLARI VA TILLAR TASNIFI

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatic xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin. Qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatic xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, So'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiyligi o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatic tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilalar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning So'z boyligi, grammatic qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning So'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagini so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning So'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatic xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganshida material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chek, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatic tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda So'z o'zaklari grammatic vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror So'z yoki grammatic vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **u (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bau (baw), tog - tau (taw)**: o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozorbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; o'zbek tilidagi y tovushiga qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatic qurilishlari bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatic vositalar, so'zlearning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatic shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtida tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. ***Hind-evropa tillari oilasi.***
2. ***Xom-som tillari oilasi.***
3. ***Turk tillari oilasi.***
4. ***Ugor-fin tillari oilasi.***
5. ***Kavkaz tillari oilasi.***
6. ***Xitoy-tibet tillari oilasi.***
7. ***Dravid tillari oilasi.***
8. ***Indonezi tillari oilasi kabilar.***

I. ***Hind-evropa tillari oilasiga*** hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlari kiradi.

I. **Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *hind tili*. Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo'lib, eski hind yozushi - devonagaridan foydalanadi.

b) *urdu tili*. Bu tilda 180 millioncha kishi so'zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. *Bengal tili*. Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi.
2. *Maratxi tili*. Bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so'zlashadi.
3. *Panjob tili*. Bu tilda. 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi.
4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.
5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Bu tillarda so'zlovchilarining aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo'li, sindxi tillari, shuningdek, o'lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda "**Mahabxarata**" ("Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston") hamda "Xito padesha" ("Yaxshi nasihat") kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o'zining mashhur "Sanskrit grammatikasi" asarini yaratgan.

2. **Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *fors tili*. Bu tilda 30 milionga yaqin kishi so'zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so'zlashadi. U Afg'onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo'lib, u arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo'lgan kurd xalqi Eronda, Irokda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo'lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo'lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *baluchi tili*. Bu tilda so'zlovchilar Pokistondan va Eronda yashaydi.

Eron tillari guruhiga bularidan tashqari tolish tili, tog' tili, o'lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug'du, xorazmiy tillari kiradi.

3. **Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo‘lib, bu tilda 150 million kishi so‘zlashadi;

b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

v) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

g) *bulg‘or tili*. Bu til Bulg‘oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

e) *chex tili*. Bu til Chexoslavakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

j) *slovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu til ham Chexoslavakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;

z) *polyak tili*. Bu til Pol’sha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, o‘lik tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

4. Boltiq tillari guruhibiga quyidagi tillar kiradi:

a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil‘nyus) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2,2 million kishi so‘zlashadi;

b) *latish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 million kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

5. German tillari guruhibiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ingliz tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qo‘shma Shtatlari (poytaxti Washington), Kanada (poytaxti Ottawa) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi;

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvesiyaning (poytaxti Stokgol‘m) davlat tili bo‘lib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 million kishi so‘zlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili bo‘lib, bu tilda 13 million kishi so‘zlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili bo‘lib, bu tilda 250 ming kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

6. Roman tillari guruhibiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fransuz tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 60 million kishi so‘zlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *moldava tili*. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

j) *provansal tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 milliondan ko‘p kishi bo‘lib, ular Fransiyaning janubi-sharqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo‘lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo‘lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 550 ming kishi bo‘lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O‘lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

7. Kelt tillari guruhiga quvidagilar kiradi:

a) *irland tili*. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 800 ming kishi so‘zlashadi;

b) *shotland tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 140 mingdan ko‘p kishi bo‘lib, ular Angliyada yashaydi;

v) *breton tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Fransiyaga qarashli Bretan‘ yarim orolida yashaydi;

d) *uel’s (valli) tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Angliyaning g‘arbiy qismida yashaydi.

O‘lik tillardan gal va kornoul tillari ham kal’t tillari guruhiga kiradi.

8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

Bu til Gretsianing (poytaxti Afina) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

O‘lik tillardan qadimgi yunon, o‘rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma’lumdir.

10. **Arman tili guruhiga** hozirgi zamon arman tili kiradi. Bu til Armanistonning (poytaxti Erevan) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi. O‘lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

I. Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko‘rsatib o‘tganlarimizdan tashqari, xett, toxar tillari singari o‘li tillar guruhi ham kiradi.

11. **Xom-som tillari oilasi**. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo‘linadi.

1) Som tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

Arab tili. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi so‘zlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bag‘dod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab resupblikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qit’asida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida so‘zlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o‘lik tillardan asseriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va aramay tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. **Xom tillari guruhiga**: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib o'rganilmagan.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. G'arbiy guruhga quvidagi tillar kiradi:

a) *abxaz tili*. Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarining xalq tili bo'lib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *abazin tili*. Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *adigey tili*. Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili*. Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

2. Veynax guruhiga quvidagi tillar kiradi:

a) *chechen tili*. Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, unda 500 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *basbi tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

3. Dog'iston guruhiga Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) *avar tili*. Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *dargin tili*. Bu tilda 160 ming kishi so'zlashadi;

v) *lazgin tili*. Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *lak tili*. Bu tilda 70 ming kishi so'zlashadi;

e) *tabassaran tili*. Bu tilda 34 ming kishi so'zlashadi.

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo'lgan bir qancha tillar ham dog'iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlovchilarining aksariyati Dog'iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

4. Janubiy guruhga gruzin tili kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga kiradi.

IV. Ugor-fin tillari oilasi 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. Ugor tillariga quyidagilar kiradi:

a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesht) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 milliondan ko'p kishi so'zlashadi;

b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *xanti tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 22 mingdan ko'p bo'lib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. Fin tillariga quyidagilar kiradi:

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xel'sinki) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlovchilarining bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

3. Ming kishi so'zlashadigan veps tili, 15 ming kishi so'zlashadigan ijom tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar;

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 580 ming kishi bo‘lib, ular Udmurd Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan ko‘prog‘i Eronda, 6 milliondan ko‘prog‘i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *o‘zbek tili*. Bu til O‘zbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili bo‘lib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozog‘iston respublikasining (poytaxti Olma-Ota) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *qirg‘iz tili*. Bu til Qirg‘iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uyg‘ur tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo‘lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin‘-szan-uyg‘ur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvashtili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, 300 mingdan ko‘p kishi so‘zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog‘istonda yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 150 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so‘zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so‘zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so‘zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so‘zlashdi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o‘lik tillardan o‘rxo‘n, pechenet, qipchoq, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or va hazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

VI. Mo‘g‘ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xalxa-mo‘g‘ul tili*. Mo‘g‘uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu tilda so‘zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo‘g‘uliston ham Sin‘szanda) yashaydi;

b) *buryat tili*. Burt respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 270 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

v) *qalmiq tili*. Qalmiq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 105 ko‘proq kishi so‘zlashadi.

VII. Tungus-manjur tillari.

I). Tungus guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federasiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqi tumanlarida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo‘lib, ular asosan Rossiya Federasiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

3. Manjur guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu til hozir o‘lik tillar qatoriga o‘tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federasiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 8 ming kishi so‘zlashadi.

Udey, ulq, oroch tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi.

1. Tay-xitoy guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo‘lib, bu tilda bir milliarddan ko‘p kishi so‘zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo‘linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo‘lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo‘lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so‘zlashadi;

g) *vietnam tili*. Vietnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo‘lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Tailandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo‘lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo‘lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

a) *tamil tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolinig shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 13 milliondan ko‘proq kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-g‘arbida yashaydi;

v) *kannara tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 14,5 million kishi bo‘lib, ular G‘arbiy Hindistonda yashaydi;

g) *telugu tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 31 million kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

d) *braxun tili* (260 mingga yaqin kishi so‘zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

X. Malay-polineziya tillari. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kirdi. Bu tillarda so‘zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko‘p kichik tillari kiradi, lekin ular ham yaxshi o‘rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o‘rganilmagan.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so‘zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlarga bo‘linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal gviney guruhlari kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlarga bo‘linadi.

XV. Paleoafrika tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhgaga ya’ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo‘linadi.

XVI. Paleoosiy tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Rossiya Federasiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. **Paleoosyo tillari ikki guruhga:**

1. Chukot guruhi va 2) Sibir' guruhiga bo'lindi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so'zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so'zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so'zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so'zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so'zlashadi), ket tili (2 ming kishi so'zlashadi) kiradi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so'zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel' orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so'zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 mdan oshiq bo'lib, ular uch guruhga:

1) Shimoliy Amerika; 2) Markaziy Amerika; 3) Janubiy Amerika guruhlariga bo'linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so'zlashadi), bunda (6 milliondan ko'p kishi so'zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) yapon tili. Yaponianing (poytaxti Tokio) davlat tili bo'lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

2) ryukyu tili. Bu tilda so'zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) quriya (koreya) tili. Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxon'yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respublikasining (poytaxti Seul) davlat tili bo'lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

4) ayn tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo'lib, ular Yaponianing shimolidagi Xokkaydo orolida bulib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

XXI. Burjaski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so'zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, genealogik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o'zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur teshirilib o'rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

10-§. SHARQ ILMIDA TIL TASNIFIGA OID QARASHLAR. TURKIY TILLAR TASNIFI

Sharq ilmida ham tillar tasnifiga oid, tillarning muhim jihatlarini yorituvchi qarashlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bu boradagi beqiyos manbadir.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar klassifikatsiyasini yaratishga birinchi bo'lib qo'l urgan olimdir.

Turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan birinchi ensiklopedist turkolog olim Mahmud Koshg'ariy 1029-1038 yillar oralig'ida Koshg'arda tug'ildi. "Devoni lug'tit-turk" deb nomlangan uch tomli asar yozdi. Bu asar "Turkiy so'zlar devoni" bo'lib, ikki qismdan tashkil topgan: 1) kirish; 2) lug'at.

Kirish qismida turkiy tillarning mavqeyi, lug'atning oldiga qo'yilgan vazifalar, asarning mundarijasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va ular tillarining o'ziga xos xusisiyatlari yoritilgan.

Asarning lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat.

1. Hamzali so'zlar bo'limi (boshida alif, vov, yoy harflari keladigan so'zlar)
2. Solim(tarkibida alif, vov, yoy harflari keladigan so'zlar) bo'limi .
3. Muzoaf bo'limi(tarkibida bir harifi ikki marta kelgan takrorlangan so'zlar).

4. Misol(boshida, o'rtasida yoki oxirida alif, vov, yoy harflaridan biri kelgan so'zlar) bo'limi.
5. Uch harfli so'zlar bo'limi.
6. To'rt harfli so'zlar bo'limi.
7. G'unnalilar (tarkibida burun tovishlari keladigan so'zlar) bo'limi.
8. Tarkibida ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalandi. U turkiy tillarning leksikasini, morfologiyasini va fonetikasini bir – biriga qiyoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatdi. Lug'atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 so'z izohlangan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo'lib yoritgan olimdir. U "Devonu lug'otit – turk" da fonetik qonuniyatlarning tovush almashinuvi, tovush tushishi, tovush ottishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohlagan.

Uning tashrifi ikki prinsipga tayanadi:

1. Tilning sofligi prinsipi.
2. Fonetik- morfologik prinsip.

Mahmud Koshg'ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlarning tillarini ikki qisimga ajratadi:

1. Sharqiy turkiylar tili
2. G'arbiy turkiylar tili.

Mahmud Koshg'ariy birinchi guruhsiga Bolosog'un, Koshg'ar atrofida yashaydigan xalqlarning tillarini kiritdi. Bular chigil, qorluq, uyg'ur, tuxsi, yag'mo kabi xalq va qabilalarning tillaridan iborat edi.

Sharqiy va g'arbiy guruh tillarning qator xususiyatlari ko'ra bir – biridan farqlanadi.

Fonetik farqlar:

Sharqiy turklar tilida:

- | | |
|----------------------------------|---|
| 1. Jarangsiz t - tovushi keladi: | Jarangli d- tovushi keladi:
tebey |
| 2. Til o'rta y – tovushi keladi: | Til oldi j- tovushi keladi
Yinju, yilkin |
| 3.Sonor m – tovushi keladi: | Portlochi b – tovushi
Men, mung |

G'arbiy turklar tilida:

So'z boshida:

- | |
|---|
| Jarangli d- tovushi keladi:
debey |
| Til oldi j- tovushi keladi
yoki y- tovushi kelmaydi:
janju, elkin |

Mahmud Koshg'ariy qabilalar hayoti va tilinii tarixiy asosda yoritdi. Ilgarilarda katta o'rin tutib , XI asrda ergashuvchi qabilalar holiga tushgan qarluqlar, tangutlar, basmil va boshqalar ham devonda keng izohlanadi. Urxon yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha bu qabilalar IX – X asrlarda ilg'or hisoblanar edilar. Lekin XI asrlarda bular o'zlarining mavqeyini yo'qotib, boshqa qabilalarga qo'shilgan edi. Mahmud Koshg'ariy hatto ilgarilar bu yerlarga kelib joylashib qolgan boshqa xalq hayotini ham sinchiklab o'rgandi. U tubutlar haqida shunday ma'lumot beradi: " Tubutlar turk diyorida yashovchi bir qavm : Kiyik mushki(kiyikning kindigidan kesib olib hozirlanadigan atir) tubatlarda bo'ladi. Tubutlar bir jinoyat qilib Yamandan qochib, dengiz yo'li bilan Chinga borib, o'rnatshib qolgan Bani sobit avlodlaridir. Hozir ular bir ming besh yuz farsah yerda yashaydilar. Sharq tomoni Chin, g'arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg'ur, janub tomoni Hind dengizidir. Ular o'z tillarini yo'qotib, turkiy tilni o'zlashtirgan bo'lsalar ham, hanuz ularning so'zlarida o'z tillariga moslashtirish farqi sezilib turadi. Chunonchi, onani "uma" deydilar, otani "aba" deydilar". Bu qabilalar leksikasi haqidagi ma'lumotlar tarixiy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Mahmud Koshg'ariy ayrim shevalargagina xos bo'lgan til hodisalarini ham, ko'pchilik qabilalarning

umumlashgan til xususiyatlarini ham izchil ravishda ko'rsatib berdi. Bu xil ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlari tillarining, shu jumladan, o'zbek tilining shakllanishida asos bo'lgan qabilalarni aniqlashda muhim material bo'lib xizmat qiladi. Uning asarida qabilalar tilida so'z yasalish masalasi ham to'la yoritildi. U til faktlari asosida qabilalarning bir – biriga bo'lgan munosabatini ko'rsatdi va nihoyat u davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir – birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan boshlang'ich xalq tili namunalarini ham yaqqol ifodalab berdi. Mahmud Koshg'ariy asarida o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va bu xalqlarning qadimgi sodda tillarining namunalarini mukammal izohlab berdi. Bu xalqlar devon materiallari asosida o'zlarining tillari qaysi qabila tili asosida shakllanganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida davrining mukammal dialektologiyasini yaratib berdi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlar madaniyati va fan tarixida alohida o'rinn tutadi. U turkiy filologiya fanini yaratgan olimlardan biri. Uning "Devonu lug'otit – turk" asarida bu fanning deyarli barcha sohalari yoritilgan. Turkiy tillar klassifikatsiyasi; turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, xalqlar etnografiyasi, toponimikasi, geografik joylashuviga oid qimmatli malumotlar ham bor. Lug'atda turkiy xalqlarning eng eski geografik kartasi berilgan.

Bundan tashqari, M. Zamaxshariyning "Muqaddimat – ul -adab" asarida, muallifi noma'lum asar "Kitob –i-majmu-u-tarjimon turki va ajamiy va mug'o'liy" asarida, Abu Hayyonning "Kitob al – idrok li-lison al -atrok" asarida Jamoliddin Ibn Muxannanining "Xiliyat-ul-inson va xalibat-ul-lison" asarida, Jamoliddin at-Turkiy "Kitobi ul-lug'ot al-mushtoq fi-l-lug'ati at-turk va l-qipchoq" asarida, "Kitob-at-tuhfaq-uz-zakiyat fi-l-lug'at-it-turkiy" asarida turkiy tillar haqida fikr yuritilgan.

XV asr olamida ulug' mutafakkir shoir, madaniyat va davlat arbobi Alisher Navoiyning mashaqqatli mehnati, izlanishlari hamda Husayn Boyqoroning homiyligi tufayli turkiy tillar orasida o'zbek tilining mavqeyi jahon miqyosiga ko'tarilgan edi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning keng imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi.

O'zbeklar yirik turkiy xalqlardan bo'lib, tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, ularning ota-bobolari qadimdan O'rta Osiyo hududining asosiy aholisi bo'lgan.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, o'tmishdan tortib, XIX asrning II yarmigacha turk, sart, chig'atoy va nihoyat o'zbek atamalari bilan yuritilib kelgingan.

Turk atamasi haqida. Dastavval o'zbek xalqi turk nomi bilan yuritilgan. Faqat o'zbeklarga emas, O'rta va Markaziy Osiyoda yashaydigan barcha turkiy xalqlar turk nomi bilan yuritilgan. Jumladan, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, Volga bo'yidagi tatar, boshqird, chuvash kavkazdagi ozarbayjon, qumuq, no'g'ay va sibirdagi oltoy, xakas, tuva, yoqut kabi xalqlar ham turk deb atalgan. Ularning tillari esa turkiy til deyilgan.

Turk atamasi dastlab siyosiy-ijtimoiy ma'noni anglatgan. U qabilalar harbiy uyushmasining nomini bildirgan.

Alisher Navoiy "Muhokamatul lug'atayin" asarida o'zbek xalqini turk, uning tilini turk tili deb amalda *turk*, *turkiy*, *turk ulusi*, *turk tili*, *turkiy til*, *turkiy alfoz* kabi so'z va iboralarni keng qo'llagan.

Turkiy tillarda so'zlashuvchi yana shunday elatlar mavjudki, ularning ona tilisi asosan maishiy hayotda foydalilanadi, bu tilning ijtimoiy vazifasi juda chegaralangan. Ular o'zlarining rasmiy yozuvlariga ega emas. Zarurat tug'ilganda, eski alifboden foydalananadilar. Bunga karaim, shor, chulim tillari kiradi. Ushbu tillar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Turkiy tillida so'zlashuvchi xalqlar Afg'oniston, Eron, Xitoy, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham yashaydi. Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qoraqalpog'istonda ham bu tilda so'zlashuvchi millionlab o'zbeklar istiqomat qiladi.

Turkiy tillarning taraqqiyot xususiyatlarini o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti misolida kuzatish mumkin. Bu jihatdan qadimgi turkiy til xususiyatlari o'ziga xosdir.

Qadimgi turkiy tilda so'zlar ham, morfemalar ham, qattiq va yumshoq turlarga bo'linadi. Qadimgi turkiy tilda birlamchi cho'ziq unlilar ham farqlangan undoshlardan jarangli va jarangsiz uyg'unlik bor.

Qadimgi turkiy adabiy tili morfem tuzilishining hozirgi o'zbek adabiy tili bilan mos keluvchi va farq qiluvchi tomonlari bor. Ba'zi shakllar iste'moldan chiqqan bo'lsa, ba'zilarning vazifasi o'zgargan. Ayrimlari turli fonetik o'zgarishlarda hozirgi tilimizda ham uchraydi. Qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlanmagan, lekin umumxalq tilida yoki boshqa turkiy tillarda uchraydiganlari ham bor. Qadimgi turkiy tilda faol sanalgan ayrim shakllar hozirgi o'zbek tilida qoldiq sifatida ham uchrashi mumkin.

Ma'lumki, davr o'tishi bilan morfemalar ma'no o'zgarishiga uchrashi mumkin; so'z-morfema ham, affiks-mofema ham o'z ma'nosini yo'qotadi. Yani ulardan biri iste'moldan chiqadi. Shunda tarixan mustaqil morfemalar bir so'zga aylanib, hozirgi paytda ma'noli qismlarga bo'linmaydigan bo'lib qoladi. Jumladan, hozirgi boshla, ishla so'zlarini osonlik bilan ikki morfemaga ajrata olamiz. Ular qadimda ham shunday bo'lingan: bosh-la, ish-la. Lekin ula so'zi tilimizda ikkiga ajralmaydi. Qadimgi turkiy tilda ikki morfemaga bo'lingan: u -bog', -la- fe'l yasovchi.

Qadimgi turkiy til morfemalari hozirgi adabiy tilimizdagidan fonetik variantlarining mayjudligi bilan farqlanadi. Hozirgi adabiy tilimda ko'proq morfologik prinsipga amal qilinsa, o'tmishda fonetik prinsip ustun bo'lган. Yani talaffuz qanday bo'lsa, yozuvda ham ko'proq shunga amal qilingan va bu adabiy til me'yori hisoblangan.

Turkiy tillarning gramatik qurilishi

Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo'lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil tillarning morfologik klassifikatsiyasi bo'yicha agglutinativ tillar guruhiga kiradi. Turkiy agglutinativ tillarning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

1.So'z doimo o'zakdan boshlanadi.

2.O'zak, asosan o'zgarmasdir. O'zakdan keyin qo'shilgan har qanday affiks o'zakni fonetik jihatdan o'zgartirmaydi.

3.So'z formalari asosan affikslar vositasida hosil qilinadi.

4.So'z formalari hosil qilishda supplтив formalar mutlaqo ishtirok etmaydi, ya'ni bir so'zning turli formalari faqat bir o'zakdan hosil qilinadi.

5.O'zak va affiks organik birikib ketmaydi, ular orasidagi chegara aksariyat hollarda aniq va ravshan bo'ladi. Masalan, boshlandi so'z formasida bosh – o'zak, - la- fe'l yasovchi affiks va di – zamon yasovchi: bular bir-biridan aniq ajralib turadi

6. Har bir grammatic ma'noni ifoda etishda alohida affiks qo'shiladi, shuning uchun bir so'z formasida bir necha affiks ketma-ket, bir qatorda keladi:

Turkiy tillarda so'z o'zak va affikslarga ajratiladi. O'zak turkiy tillarlarda fonetik jihatdan tubandagi ko'rinishlarga ega (v-unli, c-undosh): v-u; vc- ol, ot, cv-na, ma; cvc- bosh, go'l, yoz; vcc –ont, ust; cvcv – bola.

Gramatik son kategoriyasi. Gramatik son kategoriyasi odatda birlik va ko'plikdagi formalarning oppozitsiyasidan tashkil topadi. Birlik turkiy tillarda nol ko'rsatkichli bo'lsa, ko'plik-lar va uning turli variantlari yordamida ifodalanadi, lekin turkologiyada turkiy tillardagi grammatik son kategoriyasi formalarini boshqacha ifodalash ham mavjud. Bu nuqtayi nazarga ko'ra turkiy tillarda grammatik son kategoriyasi "birlik" va "ko'plik" formalariga ega emas. Turkiy tillarda –lar affiksi olmagan otlar umumlashgan predmet nomini bildiradi Turkiy tillardagi ko'plik formasi hisoblangan –lar, ko'plik ma'nosini ifodalashdan tashqari, boshqa funksiyalarni ham bajarish xususiyatiga ega:

Turkiy tillarning ayrim sintaktik xususiyatlari.

Turkiy tillarda sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usuli bilan tobelanadi. Turkiy tillarda aniqlovchning yana bir turi borki, u tilshunoslikda turkiy izofa deb yuritiladi. Turkiy tillarda gap bo'laklari, boshqa til oilasidagiga, masalan hind – evropa tillari oilasidagiga nisbatan o'zining

muntazam joylashish tartibiga ega. Turkiy tillarning boshqa til oilalaridan farq qiladigan tomoni shundaki, bu tillarda qo'shma gapning ergashgan qo'shma gap tipidan tashqari, funksional va struktural jihatdan boshqa til oilalaridagi ergash gapga teng keluvchi ravishdosh, sifatdosh oborotlari keng tarqalgan va taraqqiy qilgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Kitobi javohir an-nahv fi-l-lug'at at-turk" nomli ikkinchi asarida turkiy tillar sintaksisi ustida bahs yuritiladi.

11-§. Tilshunoslik va uning bo'limlari

Dunyoda 5 ming xil til mavjud. Bu tillar ma'lum xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratilgan.

O'zbek tili mansub bo'lgan turkiy tillar guruhi o'ttizga yaqin tilni o'z ichiga oladi. O'zbek tili qardosh tillar bilan bir asosga ega. Shu bilan bir qatorda mazkur tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida shakllangan o'ziga xos jihatlari mavjud.

O'zbek tili fani quyidagi bo'limlardan iborat.

1. **Fonetika**-nutq tovushlari, bo'g'in va urg'u haqidagi bo'lim.
2. **Orfoepiya**-adabiy tilning to'g'ri talaffuz qoidalari haqidagi bo'lim.
3. **Orfografiya**-to'g'ri yozish yoki imlo qoidalarni o'rganadi.
4. **Grafika**-tovush va harf munosabati, alifbo tizimi, yozuv va uning turlarini o'rganadi.
5. **Leksikologiya**-so'z va uning lug'aviy ma'nosi, lug'aviy ma'noning taraqqiyot yo'llari, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqidagi bo'lim.
6. **Frazeologiya**- iboralarni (frazeologizmlarni) o'rganadi.
7. **So'z yasalishi**-so'z yasash usullari haqidagi bo'lim.
8. **Etimologiya**-so'zning kelib chiqishi, shakllanish tarixi haqidagi bo'lim.
9. **Grammatika**-tilning ichki qurilishini o'rganadi. Grammatika ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis.
10. **Morfologiya**-so'z turkumlari, grammatick ma'no, grammatick shakl haqidagi bo'lim.
11. **Morfemika**-morfema, ya'ni so'zning ma'noli qismi haqidagi bo'lim (morfemikani morfologiyaning alohida bir bo'limi sifatida tushunish mumkin).
12. **Sintaksis**-so'z birikmasi, gap va uning turlari haqidagi bo'lim.
13. **Punktuatsiya**-tinish belgilarini o'rganadi.
14. **Stilistika (uslubiyat)**-nutq uslublarini o'rganadi.
15. **Dialektologiya**-shevalar, lahjalar haqidagi bo'lim.
16. **Leksikografiya**-lug'at va uning turlarini o'rganadi.
17. **Til tarixi**-til taraqqiyotining tarixiy bosqichlaridagi muhim jihatlarni o'rganadi.

12-§. FONETIKA

«Fonetika» grekcha so'zdan olingan bo'lib, «tovush» ma'nosini anglatadi, ya'ni «tovush haqidagi bo'lim» demakdir. Nutq tovushlari fonetikada o'rganiladi. Nutq a'zolari harakati jarayonida hosil bo'lgan tovushlar ***nutq tovushlari*** deyiladi. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi nutq a'zolarining jami *nutq apparati* deb yuritiladi.

Nutq a'zolari nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtirokiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. **Faol (aktiv) nutq a'zolari:** 1) til; 2) ovoz (un, tovush) paychalari; 3) yumshoq tanglay; 4) og'iz bo'shlig'i (til, lab); 5) pastgi jag'. 2. **Passiv (sust) nutq a'zolari:** 1) o'pka; 2) kekirdak; 3) qattiq tanglay; 4) burun bo'shlig'i; 5) tish.

Nutq tovushlari ikki xil: unli va undosh tovushlar.

Unli tovush: o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishidan hosil bo'ladi tovush *unli* hisoblanadi. Unli tovushlar oltita: *a, i, e, u, o', o*.

Unlilar lab ishtirokiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Lablangan unlilar: *o, u, o'*
2. Lablanmagan unlilar: *a, i, e*.

UNLI TOVUSHLAR TAVSIFI.

i unlisi-old qator lablanmagan, tor unli.Tilning tanglay tomon yuqori ko'tarilishi va og'izning nisbatan tor ochilishi bilan qisqa talaffuz etiladi. **Til, dil, jim, kiyik, kiyim** .

u unlisi-orqa qator, lablangan, tor unli.Uni talaffuz qilishda til tanglay tomon ko'tarilib og'iz juda torayadi,lablar oldinga cho'ziladi: *gulshan,bug'doy,kurtak,lunj*.

e unlisi-old qator,lablanmagan,o'rtaligi keng unli.Tilning tanglay tomon yuqori-o'rtaligi ko'tarilishi, til uchining pastki tishlarga tegishi bilan yumshoq talaffuz etiladi,og'iz bir muncha torayadi:*etik,sekin,meva,ehson*.

o' unlisi-orqa qator lablanmagan ,o'rtaligi keng unli.Har vaqt so'zning bиринчи bo'g'inida keladi:*bo'z,bo'y,do'ppi,ko'zgu*.

a unlisi-old qator lablanmagan,keng unli.Uning aytilishida lablar kerilib,tilning oldingi qismi pastga tushadi,uchi esa pastki tishlarga yaqinlashadi:*alanga,vazifa,gavhar,jasur,kurash*.

o unlisi-orqa qatior,lablangan,keng unli.Uning aytilishida til ichkariga tortiladi,tilning uchi tishlardan uzoqlashadi,pastki jag' esa tushiriladi: *bozor,obod,ovozi,hikoya,matbuot*.

Undosh tovush: o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida ma'lum to'siqqa uchrashidan hosil bo'lgan tovush *undosh* hisoblanadi. Undoshlar quyidagicha tasnif etiladi.

1. Hosil bo'lish o'rniiga ko'ra: (*qaerda?*)
2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra: (*qanday?*)
3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

1. Hosil bo'lish o'rniiga ko'ra undoshlar quyidagicha:

a) lab undoshlari	Lab-lab: b, p, m (v)
	Lab-tish: v, f

b) til undoshlari	Til oldi: d,t,n,l,r,z, sh, ch, j
	Til o'rtaligi: y
	sayoz til orqa: k,g,ng
	til orqa:

chuqur til orqa: q,g',x

v) bo'g'iz undoshi: H

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar quyidagilarga ajratiladi:

a) portlovchi undoshlar: **b, p, d, t, q, k, g**. Bunday undoshlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi to'siqdan portlab chiqadi;

b) sirg'aluvchi undoshlar: **v, f, g', z, s, sh, j, y, x, h**. Bu undoshlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi to'siqdan sirg'alib chiqadi.

v) qorishiq (affrikat), portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar: **ch,j,s**. Bu undoshlar ham portlab, ham sirg'alib chiqadi.

m,n,ng - burun tovushlari. Bu tovushlar talaffuzida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan chiqadi.

l-yon tovush, til- tanglay tovushi: havo oqimi tilning ikki yonidan sirg'alib chiqadi.

r-titroq tovush, til uchining titrashidan hosil bo'ladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar ikki xil bo'ladi: *Jarangli va jarangsiz* undoshlar. Jarangli undoshlar ovoz va shovqindan iborat bo'ladi. Tarkibida ovoz (un) miqdori ko'p bo'lgan jarangli undoshlar **sonor** (lotincha «**ohangdor**») lar deyiladi. Sonor tovushlar 5 ta: **m, n, ng, l, r**

Jarangli	B	v	d	g	J	J	z	g'	l	m	n	ng	r	y	s	h	q
Jarangsiz	P	f	t	k	ch	sh	s	x									

Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar: *mard, javlon, maydon, jadval*.

Faqat jarangsiz undoshlar ishtirokidagi so'zlar: *paxta, ko'kat, soch popuk, sex*.

UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

Ovoz shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra						Til tovushlari			til orqa			Chuqr									
			Lab tovushlari		Til oldi		Til o'rta																	
			lab- lab	lab- tish	Til oldi	Til o'rta	sayoz																	
			b		d																			
	Jarangli	Portlovchilar	p		t																			
	Jarangsiz		v		z,j											g'								
	Jarangli	Sirg'aluvchilar		f	s,j										x	h								
	Jarangsiz				j																			
	Jarangli	Qorishiq tovushlar			ch																			
	Jarangsiz		m		n			n(ng)																
	Jarangli	Burun tovushlari			l																			
		Yon tovush			r																			
		Titroq tovush																						

Bo'g'in

Bir nafas to'lqinida aytildigan tovush yoki tovushlar yig'indisi *bo'g'in* deyiladi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha *bo'g'in* bo'ladi. Bir unli bir *bo'g'inni* hosil qila oladi. *Bo'g'inlar* tarkibi quyidagicha bo'ladi: c-undosh; v-unli.

v: o-na, u-mid, a-ka, i-jod, o-lim, a-yoz.

vc: o't, el, ot, on, ur, ish, oy, ip, iz, o'y, ol-(ma), in-(kor).

cv: bu, shu, da-da, ma-na, da-(vom), sa-na, ra-(von), sa-(bab).

cvc: ko'k, gul, qo'l, sol, bor, dam, tan-qid, tan-bur, rav-shan.

cvec: go'sht, qasd, mard, qasr, fikr, ranj, hukm, mehr.

vec: aql, ust, asr, ahl, art, ishq, ont.

cevec-sport, shrift.

O'zbek tilida bir unli, ikki undoshdan iborat bo'g'in mavjud, ammo ikki unli va bir undoshdan iborat bo'g'in uchramaydi. Negaki, bir unli bir bo'g'inga teng keladi. Bo'g'inning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- a) maktab o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish bo'g'inga asoslanadi;
- b) she'riy misralarda bo'g'inlar tengligi alohida ahamiyat kasb etadi;
- v) so'zni ko'chirishda bo'g'inga asoslaniladi.

Bo'g'in tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in*.

Unli bilan tugagan bo'g'in ochiq hisoblanadi: *ma-la-ka, ka-li-ma, o-na*.

Undosh bilan tugagan bo'g'in yopiq hisoblanadi: *mak-tab, kaj-raf-tor, tan-siq*.

Urg'u

Urg'u ikki xil bo'ladi: *so'z urg'usi va gap urg'usi*.

1. **So'z urg'usi.** So'zdagi ma'lum bir unlining (yoki bo'g'inning) cho'ziqroq, ajratib, ta'kidlab aytlishidir. O'zbek tilidagi so'z urg'usi ko'chuvchan xarakterga ega bo'lib, asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: gul-gulzor-gulzorlarimiz-gulzorlarimizni. So'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'u ko'chib boraveradi. Lekin barcha qo'shimchalar ham urg'u olavermaydi. Quyidagi qo'shimchalar urg'u olmaydi:

1. Birinchi darajali shaxs-son qo'shimchalari: *-man, -san, -dir, -miz, -siz*. Masalan, o'quvchiman, bolaman, yaxshisiz.
2. Sonlardagi *-ta, -tacha* qo'shimchalari, ravish yasovchi-*cha* qo'shimchasi urg'u olmaydi: o'nta, yigirmata, beshtacha, mardlarcha.
3. *-dek, -day* qo'shimchalari ham urg'u olmaydi: qordek, oydek, shishadek.
4. Fe'lning bo'lishsiz shakli *-ma* ham urg'u olmaydi: kelmadi, olmagan, aytmadni.
5. Qo'shimcha holidagi yuklamalar urg'u olmaydi: qizgina, keldi-yu.

Ba'zi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi: *ammo, doim, afsuski, hatto, xuddi, albatta, balki, hamma, texnika, hamisha, kofe*. Bunday holat o'zlashgan (boshqa tillardan kirgan) so'zlarda kuzatiladi.

So'z urg'usi ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan: *olma (meva)-olma (fe'l), etik (kiyim)-etik (fan), atlas (xarita)-atlas (ko'ylak), hozir (payt)-hozir (tayyor), yangi (kitob)-yangi (payt), qo'llar (ot)-qo'llar (fe'l), qishloqcha (ot)-qishloqcha (ravish), o'quvchimiz-o'quvchimiz*.

Demak, so'z urg'usi so'zdagi biror bo'g'inni ajratib, ta'kidlab aytish va ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

2. **Gap urg'usi** «mantiqiy urg'u», «logik urg'u», «ma'no urg'usi» kabi terminlar bilan yuritiladi. Gap urg'usi gapdag'i biror so'zning ta'kidlab, ajratib aytlishidir: *Biz kecha sayohatga bordik. Biz sayohatga kecha bordik. Kecha sayohatga biz bordik*.

Gap urg'usini olgan bo'lak kesimdan oldin (kesim oldida) keladi.

Tovush o'zgarishlari

O'zakka qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar *fonetik o'zgarishlar* yoki *tovush o'zgarishlari* deyiladi. Tovush o'zgarishlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud.

1. **Tovush almashuvi:** bunda qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir tovush boshqa tovushga almashadi: *qishloq-im-qishlog'im, etik-i-etigi, yosh-a-yasha, son-a-sana, bo'ya-q-bo'yoq, ong-la-angla, ot-a-ata*.

2. **Tovush tushishi:** a) unli tovush tushadi: *o'g'il-im-o'g'lim, shahar-ing-shahring, ulug'-ay-ulg'ay*. b) undosh tovush tushadi: *past-ay-pasay, sust-ay-susay, men-niki-meniki, sen-ning-senening*.

3. **Tovush ortishi:** shu-day-shunday, o'sha-da-o'shanda; isi-q-issiq.

13-§. ORFOEPIYA

Orfoepiya (grekcha "orfo- to'g'ri, epos-nutq") talaffuz me'yorlari haqidagi bo'lim. Talaffuz jarayonining o'ziga xos xususiyatlari orfoepiyada o'rganiladi. Orfoepiya me'yorlari tilning fonemalar tizimi, fonemalarning ma'lum o'zgarishlari bilan bog'liq. Orfoepik talaffuz me'yorlari adabiy til bilan birgalikda shakllanadi. Jonli so'zlashuv va mahalliy shevalar orfoepik me'yorning buzilishi hisoblanadi. O'zbek tilidagi asosiy orfoepik me'yorlar quydagilardan iborat.

Unlilar orfoepiyasi:

1. So'zning yopiq bo'g'inlarida *i* unlisi juda qisqa talaffuz etiladi: *biz, kir, tik, birikma, mis*.
2. *oi* unlilari yonma-yon kelgan so'zlarda ular orasiga y qo'shib talaffuz etiladi: *oid-oyid; qoida-qoyida; foiz-foyiz*.
3. Ko'p bo'g'inli arabcha so'zlarda *a* unlisi *i* tovushiga monand talaffuz etiladi: *mulohaza-mulohiza; muhokama-muhokima; muomala-momila*.
4. *a* unlisi *i* bilan yonma-yon kelgan so'zlarda qisqa y qo'shib talaffuz qilinadi: *zaif-zayif; maishat-mayishat*.
5. *a e* birikmasida *e* tovushi y tarzida talaffuz etiladi: *aeroport-ayraport; aeroflot-ayrofot*.
6. Unli tovushlar til oldi undoshlari bilan yonma-yon kelsa yumshoq (*malika*), chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelsa qattiq talaffuz etiladi (*qatiq*).

Undoshlar orfoepiyasi:

1. *b* undoshi so'z oxirida jarangsizlashib *p* tarzida talaffuz etiladi: *istirob-istirop*. So'z o'rtasida *v* bilan almashadi: *kabob-kavob; qabog-qovoq*.
2. *v* undoshi so'z oxirida va jarangsiz undoshlardan oldin *f* tarzida talaffuz etiladi: *avtobus-aftobus; Hakimov-Hakimof*.

Orfoepiya me'yorining buzilishi natijasida paronimlar yuzaga keladi. Aytilishi (talaffuzi) jihatidan o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lган so'zlar *paronimlar* deyiladi.

Sheva so'zlarining talaffuzi orfoepik me'yorga kirmaydi.

Orfoepiya me'yorlari asosidagi tovush o'zgarishlari

Assimilyasiya - nutq tovushlarining o'zaro ta'siri, birining ikkinchisini o'ziga moslashtirishi: *ket-di-ketti, aytti, uch-so'm-usso'm, tuz-sin-tussin*.

Dissimilyasiya- ikkita bir xil (o'xshash) tovushdan birining boshqa (noo'xshash) tovushga aylanishi: *zarar-zaral; zarur-zaril, birorta-bironta; kissa-kista; koridor-kolidor*.

Metateza -undosh tovushlarning o'rin almashish hodisasi: *daryo-dayro; yomg'ir-yog'mir; tebratmoq-terbatmoq; yamalamoq-yalmamoq; tuproq-turpoq; o'rganmoq-o'granmoq; to'g'ramoq-to'rg'amoq*.

Proteza- so'z boshida bir unlining orttirilishi: *ro'mol-o'ramol; stol-istol; shtraf-ishtara*f.

Epenteza-ikki undosh yonma-yon kelganda ular orasida talaffuzda *i* yoki *u* orttiriladi: *fikr-fikir; hukm-hukum*.

Prokopa-so'z boshida undoshning tushishi: *yiroq-iroq; yigina-igna; yag'och-ag'och*.

Sinkopa-unlilarning qisqa talaffuz etilishi: direktor-direktir.

Apakopa-o'zak oxiridagi tovush tushishi: do'st-do's; xursand-xursan.

Eliziya-unli bilan tugagan va unli bilan boshlangan ikki so'zning qo'shilishi natijasida tovushlardan birining tushishi: bora oladi-boroladi; qora ot-qorot; borar ekan-borarkan.

Tovush moslashuvi: bir tovush boshqa tovushni o'ziga moslashtiradi: *manba-mamba, shanba-shamba, yonbosh-yombosh, sunbula-sumbula, tanbur-tambur.*

14-§. ORFOGRAFIYA

Orfografiya (yunoncha orthos “to'g'ri”, grapo - “yozaman”) so'zlaridan olingan bo'lib, to'g'ri yozish yoki imlo qoidalari haqidagi bo'lim. Adabiy til ma'lum me'yorlarga ega ekanligi bilan shevalardan ajralib turadi. Orfografik me'yorlar yozma nutqning xususiyatlarini ochib beradi.

Orfografiya so'zlarning, qo'shma so'zlarning yozilishi, bosh harflar imlosi, bo'g'in ko'chirish haqidagi qoidalarni tizimidan iborat. Asosiy orfografik qoidalari (imlo qoidalari) quyidagilar:

1. a unlisi urg'usiz bo'g'indan i ga yaqin talaffuz etilsa ham a ning o'zi yoziladi: muomala, muhokama.

2. *Aql, rahm, ilm, asr, fikr...* so'zlaridagi yonma-yon kelgan undoshlar orasida bir unli qo'shib talaffuz etilsa ham yozilmaydi.

3. *Taqsim, maqtov, maqsad* so'zlaridagi q tovushi x tarzida talaffuz etilsa ham q ning o'zi yoziladi.

4. O'zak va qo'shimchalar morfologik qoida asosida yoziladi.

5. So'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozishda quyidagilarga amal qilinadi:

a) qo'shma so'zlar yaxlit bir ma'noni ifodalasa, qo'shib yoziladi; oshqozon, oybolta, boyo'g'li, gultojixo'roz, tuyaqush; joy nomlarini bildirgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi; Qoraqamish, Yangiyo'l, Oqtepa, Qizildaryo, Kuyganyor, Buloqboshi; ikkinchi qismi yo-lashgan unlilar bilan boshlangan qo'shma so'zlar ajratib yoziladi; qozon yuvg'ich, er yong'oq.

-qo'shma so'z qismlari bir-birini izohlasa, bunday qo'shma so'zlar ajratib yoziladi: *temir yo'l, jigar rang, tim qora, osma ko'pri*.

- qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *sotib olmoq*.

b) juft so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: yor-do'st; yaxshi-yomon, erta-kech. Agar juft so'zlar orasida -u, -yu yuklamalari qo'llansa, yuklama birinchi so'zga chiziqcha orqali qo'shiladi; er-u osmon, yaxshi-yu yomon, erta-yu kech.

Takroriy so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: katta-katta.

6. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.

a) bir unlidan iborat bo'g'in birinchi yo'lida qoldirilmaydi yoki o'zi alohida keyingi yo'lga o'tkazilmaydi: *u-ka* emas: *uka*; *mudofa-a* emas: *mudofaa*.

b) ng harfi bir tovushni ifodalagan o'rnlarda (so'zlarda) ajratilmaydi: *ko'-ngil, si-ngil, ing-ramoq, zang-lamoq*;

v) belgisi o'zidan oldingi bo'g'in tarkibida qoladi: *ma'-no, ta'-lim, san'-at*.

g) *IIV, 1991 yil, XX asr* kabi qisqartma so'zlar yoki ko'p xonali sonlar ikkinchi yo'lga ko'chirilmaydi.

d) rus tili orqali o'zlashgan so'zlar o'sha til qoidalariga amal qilgan holda bo'g'in asosida ko'chiriladi; in-gliz, kon-gress, trans-port, shtan-ga.

7. *gijda, mujda, ajdar* kabi arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarda j harfi *jurnal* so'zidagi kabi sirg'aluvchi tovush ifodasi uchun yoziladi.

8. *Qing'ir, qo'ng'ir, qorong'i, to'ng'ich*,.. so'zlarida ng ga o'xshash talaffuz etilsa ham n yoziladi.

9. *isi-q-issiq, achi-q-achchiq* so'zlarining yasalish jarayonida undosh takrorlanishi kuzatiladi.

10. So'z qismlari imlosi. So'zning asl ma'nosini anglatgan qism o'zak deyiladi. O'zak so'zning asl ma'nosini anglatib, qismlarga ajratilmaydi: gulchi: gul-o'zak. O'zakka yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan hosil bo'lgan yangi so'z negiz deyiladi. Qo'shimchalar asosan morfologik yozuv qoidasi asosida yoziladi.

O'zak negizida -u(-yu) tovushlari bo'lgan so'zlardan ot yasalganda -im qo'shimchasi -um tarzida aytildi va yoziladi: tuzum, unum, uyum-uyum.

11. Bosh harflar imlosi:

a) atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi: Naima, Yangyo'l.

b) hurmat ma'nosida qo'llangan Siz va O'zingiz olmoshlari bosh harfda yoziladi.

v) bayramlar va tarixiy kunni ifodalagan birikmalarning birinchi so'zi: 8 Mart, To'qqizinch may;

g) Oliy tashkilotlar va faxriy unvonlarning har bir so'zi bosh harfda yoziladi: O'zbekiston Oliy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, O'zbekiston Qahramoni.

d) Orden va medal nomlari bosh harf bilan, *orden* va *medal* so'zlarini kichik harfda yoziladi: "Mustaqillik" ordeni, "Do'stlik ordeni, "Shuhrat" medali.

e) atab qo'yilgan tashkilot, gazeta va jurnal, badiiy asar nomlari birikma holida bo'lsa, birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi hamda birikma (yoki so'z qo'shilmasi) qo'shtirnoqqa olinadi: "Yulduz tunlar" romani, "Farhod va Shirin" dostoni.

j) birikmaning ikkinchi (yoki uchinchi) so'zlarini atoqli ot bo'lsa, bosh harfda beriladi: *Markaziy Farg'ona, Katta Andijon kanali*.

z) umumiylilik, tur, belgi kabi ma'nolarni ifodalagan ayrim atoqli otlar kichik harf bilan yoziladi: *Faxrimizsiz, aziz farhodlar! Anjumanda beshta o'zbekistonlik ishtirok etdi*.

i) so'zlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar bosh harfda yoziladi: MDH, AQSh, BMT.

15-§. TILDAGI TARIXIY -FONETIK O'ZGARISHLAR VA FONETIK-FONOLOGIK QONUNIYATLAR

Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi.Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib,undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan.Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi.Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi.Fonetik – fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatları bilan bog'liq hodisadir.Tildagi tarixiy- fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetikadir.Qardosh tillardagi(slavyan,german, roman tillari, turkiy tillar)tarixiy fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatdan o'xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy –fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qardosh bo'lмаган tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy –tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandi.

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiylar qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiylar holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm(tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiylar qonuniyatdir.

2. Xususiy qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtai nazardan ikkiga bo'linadi.

1) tarixiy qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Til tarixining tarixiy tovush o'zgarishlarni o'rjanuvchi bo'limi tarixiy qonuniyatlar va fonologiya deb yuritiladi.

2) davriy qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan qonuniyatlar o'zgarishlarni izohlaydi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin. bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi.

Umuman, qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rjanish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

16-§. GRAFIKA

Grafika(yunoncha "chizuv", "yozma") yozuv va uning turlari haqidagi bo'lim.

Harf asosiy grafik vositadir. Har bir nutq tovushi uchun olingan shartli shakl harf deyiladi. Yozuvda ishlataladigan va qat'iy tartibda joylashtirilgan harflar yig'indisi alifbo deyiladi.

Hozirgi o'zbek tilida (rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida) 33 harf 2 belgi bo'lib, shulardan 6 tasi unli (a,i,e, u,o',o) 4 tasi yo-lashgan unli, 23 tasi undosh harf. O'zbek tilida 25 ta undosh tovush bo'lib, 23 ta harf bilan ifodalanadi. (ikki tovush yozma ifodasiga ega emas: j-juma, jurnal; ng-tong, senga).

x va h undoshlari alohida fonemalardir.

i bilan boshlanuvchi so'zlarning birinchi bo'g'inida x yoziladi: ix-tiyor, ix-cham, ix-los, ix-tisoslik; qolgan bo'g'inlarida kelsa h yoziladi: il-hom, i-ho-ta, is-loh;

e bilan boshlanuvchi so'zlar tarkibida asosan h yoziladi: ehson, ehtirom, ehrom, ehtiyot, ehtiyoj.

x va h ayrim so'zlarda ma'no farqlashga xizmat qiladi: xol (dog')-hol (ahvol); xam (egik)-ham (yuklama); shox (daraxt shoxi)-shoh (podshoh); rux (metall)-ruh (arvoh);

Ayrim so'zlarda yonma-yon kelgan ikkita bir xil undoshdan biri tushirilsa, so'z xato hisoblanmaydi, faqat so'z ma'nosi o'zgaradi; *qattiq-qatiq; sill-a-sila; tilla-tila; mashshoq-mashoq; cho'qqi-cho'qi; ushshoq-ushoq*:

Siyla, biyron, ziyrak so'zlarida y undoshi tushirilganda so'z xato hisoblanmaydi, ma'no o'zgaradi: sila, biron, zirak.

‘belgisi.

‘belgisi tovush ifodalamaydi:

a) ‘belgisi unli tovushdan keyin kelsa, unlini cho'zinqroq talaffuz etish uchun xizmat qiladi: ma'no, ma'rifat, ta'limot.

b) ‘ belgisi undoshdan keyin kelsa, keyingi bo’g’inni ajratish uchun xizmat qiladi: mas’ud, mas’ul, jur’at, sun’iy.

‘ belgisi ma’no farqlash uchun ham xizmat qiladi: *sher (hayvon)-she’r (ijod mahsuli); qala (ish harakat)-qal’a (qarorgoh); tana (vujud)- ta’na (minnat); nasha (o’simlik)- nash’a (zavq); sanat (fe’l)-san’at (ot); surat (tasvir)-sur’at (tezlik); tarif (toifa)- ta’rif (sifatlash);*

Hozirda ikki xil yozuvdan foydalanimoqda. O’zbek xalqi VII asrlargacha runik, uyg’ur, so’g’d, moniy, braxma yozuvlaridan foydalangan. XV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda uyg’ur yozuvi qo’llangan. VIII asrda 1929 yilgacha arab yozuvi; 1929-1940 yillarda lotin yozuvi; 1940 yildan hozirga qadar kirill yozuvidagi rus alifbosidan foydalanimoqda.

Lotin yozuviga o’tish to’g’risidagi qaror 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabrdagi qarorga muvofiq lotin alifbosi 31 ta harf va bitta tutuq belgisi (‘apostrof) dan iborat deb belgilandi. Keyinchalik, 1995 yil 6-7 may qaroriga muvofiq bu alifboga o’zgartirishlar kiritildi. Unga ko’ra alifbo 26 ta harf va 3 ta harf birikmasidan (Ch, Sh, Hg) iborat (jami: 29 ta harf) deb belgilandi. Lotin alifbosiga o’tish dastlab 2000 yilgacha bo’lgan muddatda belgilandi. O’zgartirish haqidagi qarorga asosan 2005 yilgacha, deb uzaytirildi.

Lotin alifbosi

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
10	11	12	13	14	15	16	17	18
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	O’o’	G’g’	Shsh
19	20	21	22	23	24	25	26	27
Chch	NGng							
28	29							

Lotin yozuvi asosidagi “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari” 1995 yil 24 avgustda qabul qilindi. Undagi asosiy qoidalalar quyidagilar:

1. Undoshlar (ayrim) so’z o’rtasi va oxirida qo’shaloq kelishi mumkin; grammatica, metall, kilogramm. Qo’shimcha qo’yliganda biri tushadi: metalni.

2. Ayrim so’zlarda I, II, III shaxs egalik qo’shimchasi qo’shilganda y (u) tovushi qo’shib aytildi va yoziladi: parvouim, mavqeying obro’yimiz, mavzuyingiz, parvoyi. Xudo, mavzu, dohiy so’zlari III shaxsda *xudosi, mavzusi, dohiysi* tarzida yoziladi. Orzu so’zi: *orzum, orzung, orzusi* tarzida bo’ladi.

3. g,g’ bilan tugagan so’zga jo’naliш kelishigi qo’shimchasi qo’shilganda quyidagicha yozish saqlanadi: barg-ga-bargga: cho’g’-ga-cho’g’ga: bog’-ga-bog’ga.

4. Qo’shimcha qisqartma otlarga qo’shib yoziladi: O’zMUNing. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O’zR FA

5. Birikmadan yuzaga kelgan qo’shma otlar qo’shib yoziladi: so’zboshi, mingboshi

6. Juft so’zlar orasida -u,-yu yuklamalari bog’lovchi vazifasida kelsa, yuklama chiziqcha bilan yoziladi: do’st-u dushman, yer-u osmon.

7. Yuzma-yuz, rang-barang (yuzma-yuz, rang-barang) tarzidagi so’zlar ham chiziqcha bilan yoziladi.

8. Kirill alifbosida 3 yuklama (-mi, -oq, -gina) qo’shib, qolgani ajratib yozilar edi. Lotin yozuvida esa 4 yuklama (-mi, -oq, -gina, -ov) qo’shib, qolgani ajratib yoziladi.

9. Arabcha raqamlardan keyin tartibni bildiruvchi chiziqcha qo’yiladi: 60-yillar: 1999- yilning 1-sentabri

10. Qo’shma fe’llar doimo ajratib yoziladi: sotib ol, tasdiq qil.

11. Yildan yilga, kundan kunga tipidagi so’zlarda chiziqcha qo’yilmaydi (kirill alifbosida qo’yiladi: kundan-kunga, yildan-yilga). ko’pdan ko’p, yangidan yangi: (ko’pdan ko’p, yangidan yangi)

12. *Birato’la, birvarakayiga, biroq, birmuncha, buyon* so’zlari qo’shib yoziladi

13. Joy nomlarida atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harfda yoziladi: shimoliy Kavkaz.

14. Xalqaro tashkilotlar, davlatlar, oliy tashkilotlar, mansab (oliy)lar tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

15. Ba'zi atoqli otlarning faqat birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi, Fanlar akademiyasi.

16. "She'rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi" , degan qoida lotin alifbosidagi imlo qoidalariiga kiritilmagan.

17. Tartib raqami qavsda berilsa (1) 2) a) b)), jumla kichik harfdagi so'z bilan boshlanadi.

18. Inisiallar, "Boing- 767", "5- A sinf" kabi birikmalar bo'g'in ko'chirishda bir satrda yoziladi (bo'g'inga ajratilmaydi).

19. s undoshi so'z boshida, so'z oxirida, old qo'shimchadan keyin, undoshdan keyin kelsa S yoziladi: sirk, shpris, antisiklon, kvars, konser; s undoshi unlidan keyin kelsa ts yoziladi: militsiya, litsey.

20. Rus tili orqali o'zlashgan ayrim so'zlarning yozilishi quyidagicha: oktabr, sentabr, budjet, lustra, flaga, dirijor, schotchkik, uchot, aluminiy, bo'ks, molekular, yubilar.

21. ь belgisi yozilmaydi: palto, albom, yanvar; -o, -i dan oldin kelsa u yoziladi: батальон- batalyon, Ильин-ilyin.

22. ' belgisi o'rniда asosan '_ (tutuq belgisi, apostrof) qo'yiladi: ma'no, da'vo, san'at.

' (tutuq belgisi) unlidan keyin kelsa, shu unlini cho'ziqroq talaffuz etishga, ta'kidlashga xizmat qiladi: ma'rifat, na'matak.

'(tutuq belgisi) undoshdan so'ng kelsa, o'zidan keyingi bo'g'inni ajratishga xizmat qiladi: sur'at, mas'uliyat, mas'ud, san'at.

'(tutuq belgisi) S va hni Sh harf birikmasidan farqlash uchun ham ishlatiladi: as'hov, Is'hoq.

Rus tilidan va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda ' belgisi yozilmaydi: razyezd, podyezd (raz'ezd, pod'ezd).

23. Ruscha h harfi o'miga o'zbek kirill alifbosida sh yoki shch harflari yozilar edi, o'zbek lotin alifbosida sh yoziladi (faqat meshshan so'zida ikkita sh yoziladi): obshina, yamshik.

1989 yil 21 oktyabrdan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995 yil dekabrdan bu qonun qayta ko'rilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Kirill alifbosi asosidagi o'zbek alfavitiga o'zbek tiliga xos bo'lган 4 ta harf (tovush) qo'shilgan: o', q, g', h. Bu tovushlar lotin alifbosida ham o'z ifodasini topgan.

GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA

O'bek tili alifbosidagi ba'zi tovushlar turli grafik formulalarga ega. Masalan, Т harfining bosma shakli bilan yozma shakllari orasida ancha farq bor.

Garchi fonografik yozuv hozirgi vaqtida keng tarqalgan bo'lsa ham, kundalik hayotda yozuvning boshqa turlari ham uchrab turadi, chunki har bir turning o'ziga xos afzalligi bor. Masalan, piktografik yozuv odatda reklama ehtiyojlari uchun qo'llaniladi.

Ideogrammalar ko'cha harakatini ta'minlashda, matematika (1,6,10), kimyoda (H_2O) keng qo'llaniladi.

Piktogramma va logogrammalarning hozirgi vaqtida ko'plab qo'llanilishiga sabab, ularning tushunchalarni aniq, qisqa va tejamli ifodalashidir. Masalan, $12+29=41$ deb so'zlar bilan yozsak, bizga ancha vaqt va masofa kerak bo'ladi.

Orfografiya so'zi ikkita grekcha so'zdan tashkil topgan, ya'ni **orthos** to'g'ri va **grapho** yozaman. Demak, orfografiya so'zining ma'nosi **to'g'ri yozishdir**. Shu sababli orfografiyaning asosiy vazifasi alifboning yozuvdagagi qo'llanish qoidalari, so'zlarning yozilishi va bo'g'in ko'chirishdir.

Tilshunoslik fanida harflarni ishlatishning bir necha usuli mavjud. Ular quyidagilar: **fonetik, fonematik, an'anaviy, morfologik va simvolik**.

Fonetik prinsip. Bunga asosan talaffuzda qanday tovush eshitilsa, shunga mos keladigan harf yozilishi lozim: *qorin-qornim, burun- burnim*. Bunda tovush tushishi kuzatiladi.

Fonematik prinsip. Bunga asosan tovushlar qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, bir xil yozilishini talab qiladi. Masalan, *olib ketdidagi b* harfi **p** deb talaffuz qilinadi. Lekin **b** yozilishi shart.

An'anaviy prinsipda so'zlar ularda mavjud, hozirgi vaqtida talaffuz qilinadigan tovushlarga asoslanib yozilmay, balki tarixda qanday yozilgan bo'lsa, hozir ham shunday yoziladi.

Morfologik va simvolik prinsipler so'zlarning yozilishida grammatika va leksikaning manfaatlarini nazarda tutadi.

17-§. TIL VA YOZUV

Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodasini topadi. Nutqning og'zaki va yozma shakli bo'lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo'ladi. Yozuv ma'lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo'lib shakllanadi. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgani.

1. Yozuv ma'lum tarixiy jarayon natijasida shaklanadi va kishilar orasidagi bavosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

2. Kishilik jamiyat erishgan barcha ma'naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.

3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.

4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiyligi ma'lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rghanib bo'lmaydi.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari dastlabki shakllarning takomillashib borishi natijasida paydo bo'ldi. Tadqiqotlardan ma'lumki, yozuvning dastlabki ko'rinishlari ramziy ifodalar tarzida yuzaga kelgan. Fanda piktografik, logografik, ieroglifik, fonografik kabi yozuv turlari bor.

Piktografik yozuv. Voqealari hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama "chizilgan" va "yozaman" degan ma'nolardagi so'zlardan tuzilgan. Yozuvning bu turi ma'lumotlarning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushinchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.

Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida *ideografik* (grekcha "idea-tushuncha", "grafo-yozaman") yozuv paydo bo'ldi. Yozuvning bu turi *logografik yozuv* deb ham yuritiladi. ("logos-so'z", "grafo-yozaman"). Negaki, bunday yozuvdagagi ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi so'zlarni ham ifodalaydi.

Ushbu yozuvda ma'lumot ma'nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo'lgan logogrammalar orqali yetkaziladi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan quyidagi afzalliklari bor.

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo'lgan mazmunni ancha mufassal aks ettiradi.

b) piktografik yozuvda so'z tartibi va so'zshakllari noaniq, logografik yozuvda esa aniq bo'ladi.

v)piktografik yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo'l qo'yadi, logografik yozuv esa barqaror logogrammalar dan tashkil topgan.

Logografik yozuvning bir oz mukammallahgan shakli *ieroglifik yozuv*dir. Ieroglyph grekcha "ierogliv" so'zidan olingan bo'lib, "muqaddas yozuv" degan tushunchani anglatadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan. Ushbu yozuvlar ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglifik yozuv mavhum tushunchalarni ifodalay olishi bilan o'zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi.

Yozuvning yuqorida qayd etilgan turlari ancha murakkab. Ularda fikr va ma'lumot ifodalash imkoniyati juda tor. Shuning

natijasi o'laroq, yozuvni oson, qulay shaklga keltirish ehtiyoji
tug'uladi. Yozuvni soddalashtirish quyidagi yo'llar orqali amalgam
oshirildi.

1.

Tushunchani yangi shakllar bilan berish o'rniغا, mavjud logogrammalar yoki ierogliflar majmuasi orqali ifodash.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo'li so'zlarning grammatik shakllariga taalluqlidir. Masalan, logogrammalarni o'zak sifatida qoldirib, grammatik ma'nolar uchun

yangi logogrammalar o'ylab topish, ularni o'zak logogrammalar
ma'nosiga qarab qo'shish.

3.

Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va ma'qul usuli
fonografik yozuvga o'tish edi. Bunday yozuv tilning grammatik

qurilishini ifodalab qolmay, uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettiradi.

Fonetik yozuv. Yozuvning bu turi bir necha

ko'rinishlarga ega. Shulardan biri **bo'g'in yozuv**idir. Bu yozuvda ierogliflar bo'g'inlarni ifodalaydi. Yozuv tarixida bo'g'inli yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'g'inli yozuvda bir bo'g'inni, bir so'zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo'llangan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblangan. Bu yozuvda ayrim belgilar bir tovushni, butun bir bo'g'inni, ba'zi belgilar esa butun bir so'zni ifodalagan. Eronliklar Vavilonni bosib olganlaridan keyin Ossuriya va Vavilon mix yozuvidan foydalanib, fonetik (tovushli) yozuvni, ya'ni har qaysi belgi bir tovushni ifodalaydigan yozuvni ixtiro etganlar.

Dunyodagi aksar tillarning fonetik yozuvini ifodalovchi alifbe ya'ni fonetik yozuvlar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

18-§. LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya so'z va uning lug'aviy ma'nosini haqidagi bo'lim. So'z va uning lug'aviy ma'nosini bilan bog'liq hodisalar: o'z ma'no va ko'chma ma'no, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim) leksikologiyada o'rganiladi. So'z lug'aviy ma'no va grammatik ma'noga ega bo'ladi. So'zning ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilalar haqidagi ma'lumoti *leksik* (*lug'aviy*) ma'no deyiladi. Lug'aviy ma'no so'z anglatgan tushunchadir. Grammatik ma'no grammatik shakllar (qo'shimchalar) orqali ifodalangan ma'nodir. Masalan, qalam: a) lug'aviy ma'nosini-o'quv quroli; b) grammatik ma'nosini: ot, turdosh ot, birlikda, turlanmagan.

So'zning lug'aviy ma'nosini leksikologiya, grammatik ma'nosini morfologiya o'rganadi.

Lug'aviy ma'no anglatuvchi til birliklari lug'aviy birliklar deyiladi. Lug'aviy birliklar 3 xil: 1) so'z 2) ibora 3) termin (atama).

Mustaqil so'zlar ham lug'aviy, ham grammatik ma'no ifodalaydi; yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'no bildiradi.

So'z ma'nosini ma'lum xususiyatlarga ko'ra ko'chadi. Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha:
metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), kinoya.

Metafora - “o’xshashlik” asosidagi ma’no ko’chishi. Bunda ma’no ko’chishi o’xshashlik asosida ro’y beradi. Metafora ikki usulda amalga oshadi: a) ma’no o’xshashlik asosida ko’chadi: oltin kuz, kumush choyshab, fan cho’qqlari, litsey qaldirg’ochlari...b) metafora -dek, -day, kabi, singari, yanglig’, xuddi, go’yo so’zlari yordamida hosil qilinadi, masalan: shishadek osmon, Adashgan it kabi Furqat, xuddi sherdek.

Metonimiya - “aloqadorlik” asosidagi ma’no ko’chishidir. Bunda narsa-buyum o’ziga aloqador boshqa nom bilan ataladi. Masalan: Qishloq chetida samovar ochildi (samovarchoyxona); Osmonga tikildi million juft ko’zlar (ko’z-odam); Fuzuliyni oldim qo’limga (Fuzuliyni-kitobini).

Sinekdoxa - butunning nomi bilan qismini atash, qismning nomini atash. masalan: Besh qo’l barobar emas (qo’l-barmoq); O’n qo’li hunar (qo’l barmoq).. Besh qo’lini og’ziga tiqdi (qo’l barmoq); Shu bitta tuyaq bilan olti bolani boqdim (tuyoq-sigir); Tirnoqqa zor o’tdi (tirnoq-farzand).

Vazifadoshlik (funksiyadoshlik) - vazifa asosida ma’no ko’chishi. Bunda so’z ma’nosini vazifaga ko’ra ko’chadi. Masalan: o’q qadimda kamon o’qi ma’nosida qo’llangan. Hozirda miltiq o’qi, pistolet o’qi ma’nolarida qo’llanadi; *kotib, pero, qalam* so’zlarida ham vazifaga ko’ra ma’no ko’chishi ro’y bergen.

Kinoya-qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan o’zgalar “gapi”, “so’zi”. Kinoya bilan aytilgan so’z qo’shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so’z teskarri ma’noda tushuniladi. Salima “a’lochi” qiz (ikkichi).

So’z ma’nosini ko’chishi natijasida o’z va ko’chma ma’no hosil bo’ladi. So’zning nutq tarkibi (gap)dan tashqarida ifodalaydigan ma’nosini o’z ma’no (asosiy ma’no, bosh ma’no) deyiladi. So’zning nutq tarkibidagi boshqa so’zlar yordamida ifodalagan ma’nosini ko’chma ma’no hisoblanadi.

<i>O’z ma’no</i>	<i>Ko’chma ma’no</i>
qora papka	qora sovuq
temir idish	temir intizom
oltin uzuk	oltin kuz

Bir ma’nolilik va ko’p ma’nolilik

So’zlar bir ma’noli yoki ko’p ma’noli bo’ladi. Bir ma’nolilik hodisasi *monosemiya* deyiladi. Bir ma’noli so’zlar *monosemantik* so’zlar deyiladi. *Odam, chumchuq, ravish, tuya..* kabi so’zlar bir ma’nolidir.

Birdan ortiq (bir necha) ma’nolarda keladigan so’zlar ko’p ma’noli so’zlar deyiladi. Ko’p ma’noli so’zlar *polisemantik* so’zlar deyiladi.

Ko’p ma’noli so’zlarda bosh (asosiy) va ko’chma ma’no bo’ladi.

ko’z	Odamning ko’zi uzuk ko’zi yog’och ko’zi oynaning ko’zi	yoqa	ko’ylak yoqasi yo’l yoqasi tog’ yoqasi daryo yoqasi
-------------	---	-------------	--

Ko’p ma’noli so’zlar omonim so’zlardan quyidagicha farqlanadi:

1. Ko’p ma’noli so’z bir so’zning bir necha ko’chma ma’noda kelishidir. Omonim esa bir xil shaklga ega bo’lgan birdan ortiq (bir necha) so’zdir. Masalan, o’t (olov), o’t (o’simlik), o’t (harakat), o’t (inson a’zosi).

2. Ko’p ma’noli so’zning ma’nolari o’rtasida bog’lanish seziladi. Omonim so’zlar ma’nolari o’rtasida yaqinlik sezilmaydi.

So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 4 xil: omonim, sinonim, antonim, paronim.

Omonim. Shakli bir xil, ma'nosini har xil bo'lgan so'zlar *omonim* deyiladi. Bir xil shaklga ega bo'lgan bir necha so'z omonim hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan so'zlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida:

üch (3)	uch (harakat)
uch	uch

2. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi so'zlar bilan bir shakl hosil qilishi natijasida: atlas-atlas, etik-etik, tok-tok.

3. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida: dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig'in).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatic shakllar qo'shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: Biz yoqqan o'tlarimizni o'chirdik. Biz ekkan o'tlarimizni o'rdik.

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar)

Shakli har xil bo'lsa ham ma'nosini bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Bir (xil) ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So'zlarning o'zaro sinonim munosabatda bo'lishi sinonimiya hodisasi deyiladi.

Bir umumiy ma'nosini bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir so'z asosiy so'z hisoblanadi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llana oladi, shuning uchun (bosh so'z), "neymal so'z", "betaraf so'z", "uslubiy neymal so'z", "dominanta" atamalari bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so'z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so'z yuzdir.

Bir so'z, ko'p ma'noli so'z birdan ortiq sinonimik qatorda ishtirok etishi mumkin. Masalan, bitirmoq.

- 1) bitirmoq-tugatmoq-tugallamoq-tamomlamoq-tamom qilmoq (maktabni shu yil bitirgan);
- 2) bitirmoq-bajarmoq-ado etmoq-o'rinalmoq-do'ndirmoq-o'tamoq (aytgan topshiriqni bajardi, bitirdi);
- 3) bitirmoq-tamomlamoq--yo'qotmoq (jinoyatchi to'da bitirildi).

Bir ma'noli so'z faqat bir sinonimik qatorda qatnashadi.

Sinonimlik faqat bir turkum doirasida sodir bo'ladi: odam-inson-kishi-bashar-kimsa (ot turkumida).

Sinonimlar ikki yo'l (usul) bilan hosil bo'ladi: 1. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi natijasida (yangi so'zlar a) so'z o'zlashtirish (boshqa tildan so'z olish); b) so'z yasash orqali paydo bo'ladi);

Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

1. Quyidagi sinonimlar boshqa (o'zga) tildan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: *sevgi* (*o'zbek*)- *muhabbat* (*arab*); *kuch* (*o'zbek*) - *qudrat* (*arab*); *buyruq* (*o'zbek*)-*amr* (*arab*)-*farmon* (*tojik*); *ot* (*o'zbek*)-*ism* (*arab*); *yozuvchi* (*o'zbek*)-*adib* (*arab*); *manglay* (*o'zbek*)-

peshana (*tojik*); *ko'klam* (*o'zbek*)-*bahor* (*tojik*); *qo'shin* (*o'zbek*)-*armiya* (*rus*); *aldamchi* (*o'zbek*)-*aferist* (*rus*); *yurak* (*o'zbek*)- *dil* (*tojik*)-*qalb* (*arab*).

O'zlashma so'zlar faqat o'zbekcha so'zlar bilangina emas, o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin, Masalan, hujum-ataka-hamla; josus-agent; mavzu-tema; muallif-avtor; sozanda-muzikant; muharrir-redaktor; aktyor-artist; shtraf-jarima.

2. Tilda bor so'zlar yangicha ma'no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa-topshiriq; xotira-yodgorlik-esdalik; farq- ayirma: maosh-moyana-oylik.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi: *chopqir-chopag'on*; Turli o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi; *yugurik-uchqur*; *esli-hushyor*. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan bir xil yasovchi qo'shimcha vositasida sinonimlar yuzaga keladi: *chidamli-bardoshli-to'zimli-sabrli-toqatli* (*chidam-bardosh-to'zim-sabr-toqat*).

Ba'zan, tub so'z yasama so'z bilan sinonim bo'ladi: *his-sezgi*; *savol-so'roq*.

So'z shaklidagi sinonimlar lug'aviy sinonimlar deb yuritiladi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil:

1. To'liq (mutlaq) sinonimlar.
2. Ma'noviy sinonimlar.

To'liq sinonimlar ma'nosida va ishlatalishida farq qilmaydi. Birining o'rnida boshqasini to'liq qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar to'liq sinonimlar deyiladi: *tilshunoslik-lingvistika*; *respublika-jumhuriyat*; *doston-poema*; *kosmos-fazo*.

Ma'noviy sinonimlarda sinonimik qatordagi so'zlar nozik ma'nosini bilan farqlanadi. Ma'noviy sinonimlarni (har doim ham) birining o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi; *ho'l-shalabbo*; *tiqillatdi-taqillatdi*, *dukillatdi-gursillatdi*; *kulmoq-jilmaymoq-irshaymoq-tirjaymoq*. Ma'noviy sinonimlar quyidagi jihatlari bilan o'zaro farqlanadi:

a) emotsional-ekspresiv bo'yoq nuqtai nazaridan. Bu jihatdan so'zlar bo'yoqsiz (neytral) yoki bo'yoq dor bo'lishi mumkin. Emosional-ekspresiv bo'yoq dor so'zlarda so'zlovchining munosabati seziladi. Bo'yoq dor so'zlar ijobjiy bo'yoqli (*chehra, jamol*) yoki salbiy bo'yoqli (*bashara, turq*) bo'ladi.

b) Ma'noviy sinonimlar uslublarda qo'llanishi jihatidan farq qiladi. Masalan: *bashar, siyna* poetik (badiiy) uslubda: *bahor, quyosh* so'zлari ilmiy uslubda qo'llanadi. Bunday sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

d) sinonimik qatordagi so'zlar ma'noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *qiziq-g'alati-ajoyib-alomat-antiqa* sinonimik qatorida qiziq belgini neytral holda; *ajoyib-alomat-antiqa* so'zлari belgini kuchli darajada; *yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatorida *durust, tuzuk* so'zлari belgini kuchsiz darajada ifodalaydi.

Sinonimlar uch xil bo'ladi:

- 1) lug'aviy sinonimlar;
- 2) frazeologik sinonimlar;
- 3) grammatik sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar- so'z holidagi sinonimlar; frazeologik sinonimlar- sinonim iboralar. Grammatik sinonimlar morfologik va sintaktik sinonimlardan iborat. Grammatik sinonimlar: *kuz shamoli-kuzgi shamol, xat yozdi-xat yozildi, ukamga oldim-ukam uchun oldim*.

Antonimlar

O'zaro qarama-qarshi(zid) ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi. Antonimlar 3 xil belgiga ega: 1) shakli(fonetik strukturası) jihatidan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Uchinchi belgi antonimlarni o'zaro birlashtiradi, zid ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosini bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin. Masalan, qattiq so'zi bir ma'nosida yumshoq so'ziga, boshqa bir ma'nosida saxiy so'ziga antonim bo'ladi. Boy o'lqidek *qattiq* edi.

Bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan yoki o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonimlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi: xursand-xushvaqt-shod-xurram-xushnud-xafa.

Sinonimiyada so'zlarning bir xil ma'nosi asosidagi birligi sinonimlik qatorini hosil qilsa, so'zlarning o'zaro zid ma'nosi asosidagi birligi antonimik juftlikni yuzaga keltiradi.

Antonimlik faqat bir turkumdag'i so'zlar orasida sodir bo'ladi: do'st-dushman.

Qarama-qarshi ma'noli affikslar ham antonim bo'ladi: odobli-bedob, kuchli-kuchsiz.

Keldi-kelmadi kabi so'zlar antonim bo'lmaydi, ular fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shaklidir.

Paronimlar

Aytish (talaffuzi) bir-biriga o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronimlar deyiladi; *yuvindi-yuvundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug', quyulmoq-quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq*.

Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi

Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi 3 xil:

- 1) zamonaviy qatlam.
- 2) eski qatlam.
- 3) yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Yangilik va eskilik buyog'iga ega bo'lmanan so'zlar zamonaviy qatlam so'zlarini tashkil etadi. Tilda faol qo'llanuvchi so'zlar zamonaviy qatlam so'zlaridir. Zamonaviy qatlam so'zlarini lug'at boyligining asosini tashkil etadi.

Eski qatlam. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil etadi. Eske qatlam so'zlarini ikki xil bo'ladi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar); 2) arxaik so'zlar (arxaizmlar).

1. Istorizmlar (tarixiy so'zlar) tarixga oid (hozirgi kunda yo'q) narsa-hodisalarning atamalaridir; Istorizm hisoblangan so'z ham, shu so'z ifodalagan narsa-hodisa ham hozirgi davrda qo'llanmaydi: cho'ri, kanizak, jallod, zindon, sovut, sodoq, paranji.

Ayrim tarixiy so'zlar "tirilgan", ya'ni hozirda ishlatilmoqda: hokim, madrasa, mufti, dorilfunun, ro'za fitr, dorulmuallimun.

2. Arxaizmlar (eskiran so'zlar) hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskiran so'zlarini tashkil etadi: zavraq(kema), ulus(xalq), lang(cho'loq), firqa(partiya), tilmoch(tarjimon), budun(xalq), bitik(kitob), irn (lab), dudoq(lab), hamshira (singil), meng (xol), eng(yonoq), ilik (qo'l).

Istorizmlar va arxaizmlar quyidagicha farqlanadi.

1. Arxaizmlar hozirda bor narsa-hodisalarning, istorizmlar o'tmishtagi narsa-hodisalar atamasidir.

2. Arxaizmning zamonaviy qatlamga oid sinonimi bo'ladi; istorizmning bunday sinonimi bo'lmaydi.

3. Arxaizm tilda bor narsa-hodisani atovchi birdan ortiq so'zning bor ekanligi sababli paydo bo'ladi. Istorizm narsa-hodisaning hozirgi voqelikdan yo'qolishi sababli yuzaga keladi.

4. Arxaizm o'z sinonimi bo'lgan zamonaviy so'zga nisbatan belgilanadi; Istorizm esa so'z ataydigan narsa-hodisaning o'tmishtagi oidligi bilan belgilanadi.

5. Arxaizm nomlash va uslub jihatdan farqlash vazifasini bajaradi. Istorizm faqat nomlash vazifasini bajaradi.

Yangi qatlam. Tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik belgisi (bo'yog'i) sezilib turadigan so'zlar neologizmlar deyiladi: bakalavr, magistr, litsey, kollej.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi eski va yangi so'zlar nofaol so'zlar deb, zamonaviy qatlam so'zlarini esa faol so'zlar deb nomlanadi.

19-§. LUG'AT SATHIDAGI O'Z QATLAM VA O'ZLASHGAN QATLAM

Tildagi barcha so'zlar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Tilning lug'at boyligi ikki manba-ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Tilning ichki imkoniyatlari orqali so'z yasash (qo'shimcha qo'shish va so'zlarni qo'shish orqali); shevalardan so'z olish ichki manba, boshqa tildan so'z olish tashqi manba hisoblanadi.

Boshqa tillardan so'z olish natijasida o'z qatlam va o'zlashgan qatlam farqlanadi. O'zbekcha, turkiycha so'zlar o'z qatlam nomi bilan, boshqa tildan olingan so'zlar o'zlashgan qatlam atamasi bilan yuritiladi.

O'z qatlam

O'z qatlamga o'zbek tiliga oid bo'lган, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiyoq bo'lган so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiyoq bo'lган so'zlar anchagini: tosh, tog', er, bosh, suv, til, qo'l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, etti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lган so'zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lган so'zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

- 1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tildagi affiks (qo'shimcha)lar yordamida yasalgan so'zlar: *qatnashchi, terimchi, og'machi, birlashma*;
- 2) boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil bo'lган so'zlar o'zbekcha hisoblanadi;
 - a) arabcha so'zlardan: *rahbarlik, mehrli*;
 - b) tojikcha so'zlardan: *mardlik, go'shtli*;
 - v) ruscha so'zlardan: *limonli, sportchi*;
- 3) boshqa tildan o'zlashgan so'zga o'zlashgan qo'shimchani qo'shish natijasida hosil bo'lган so'z o'zbekcha hisoblanadi:
kitobxon, doimiy, adabiyotshunos.

Demak, yasama so'zlar asosan o'zbekcha (o'z qatlam so'zlari) hisoblanadi.

O'z qatlam so'zları (o'zbekcha so'zlar) quyidagi xususiyatlarga ega.

- 1) v,z,l,g, tovushlari bilan boshlanadigan so'zlar o'zbekcha emas: lab.
- 2) f, h, ' ishtirot etgan so'zlar o'zbekcha hisoblanmaydi:
bahor, fikr.
- 3) o'zbekcha so'zlarda unlilar yonma-yon kelmaydi: (soat).
- 4) o'zbekcha so'zlar omonim xarakterda bo'ladi: soch-soch, tut-tut.
- 5) o'zbekcha so'zlarda tarixiy tovush o'zgarishlari sezilib turadi: yig'och-og'och, jil-yil: jilon-yilon-ilon.
- 6) o'zbekcha (turkiy) so'zlarda bir bo'g'in tarkibida undoshlar yonma-yon kelmaydi; g'isht, daraxt.

O'zlashgan qatlam

Arabcha, forscha-tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, grekcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi.

O'zbek tilidagi o'zlashgan qatlamning asosini arab, fors-tojik, rus tillaridan o'tgan so'zlar tashkil etadi.

Arabcha so'zlar: kitob, mакtab, xalq, maорif, shoир, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa.

Arabcha so'zlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. O'zbek xalqi vakillariga qo'yiladigan ismlarning ko'pi arabcha. Arabcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega.

1. (v) f,h,' harflari ishtirot etgan so'zlar, asosan, arabcha: *ma'no, ta'limot, na'ra, sinf*

2. Arabcha so'zlar siniq ko'pligiga ega, ya'ni ko'plik so'z tarkibini o'zgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she'r-ash'or*.

3. Arabcha so'zlarda o'zakdosh so'z tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm- hokim,-hakam-mahkama-hokimiyat-mahkuma; fikr-tafakkur-mutafakkir; kitob-maktab-kutubxona-maktub; sinf-tasnif; hurmat-ehtirom-marhamat-muhtaram;*

Forscha-tojikcha so'zlar

Forscha-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega. a) tojikcha so'zlar o'zbek tili lug'ati tarkibida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. b) toj ch,l,g,z undoshlari bilan boshlanadigan so'zlar asosan tojikcha hisoblanadi: lola, gul,chaman. v) -xo'r,-noma,-do'z,-xon,-namo,-shunos,-boz,-bon,-dor, no-, ser- qo'shimchalari forscha-tojikchadir.

Tojikcha so'zlar: osmon,oftob, bahor, baho, barg, daraxt,gul, xona, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonardon,shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, go'sht, non, sozanda, sabzavot, reja, dard, ombur, tesha, bobo, dugona, do'st, xonardon, peshona, kaft.

20-§. LUG'AT SATHINING QO'LLANISH DOIRASIGA KO'RA TASNIFI

Til-umumiyl, nutq esa xususiy hodisadir. Nutq ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki nutq bevosita, yozma nutq bavosita amalga oshiriladi.

Xalq tili o'zbek xalqining so'zlashuv nutqidir. Xalq tili tarkibiga adabiy til ham kiradi. Xalqning asosiy til boyligi adabiy til hisoblanadi. Adabiy til xalq tilining fonetik, talaffuz, lug'aviy va grammatic jihatidan me'yorlashtirilgan eng yuqori shaklidir. Adabiy til me'yorlari va qoidalari shu xalq tilida so'zlovchilar uchun umumiyl bo'ladi.

Adabiy tilning ham ikki ko'rinishi mavjud: og'zaki adabiy til (radio, televide niye); yozma adabiy til (matbuot tili).

O'zbek tiliga oid dastlabki yozma yodnomalar (O'rxun-Enasoy yozuvlari) V- VIII asrlarga oiddir.

Tildagi so'zlarning qo'llanishi bir xil darajada emas. Qo'llanish doirasi jihatidan o'zbek tili leksikasi ikki xil bo'ladi: 1.Umumiste'mol leksikasi (iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika) 2. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.

I. Umumiste'mol leksikasi

O'zbek tili lug'at tarkibini asosan shu tilda so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lgan va barcha o'rinnlarda qo'llanadigan so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlar umumiste'mol leksikasi yoki qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Masalan: ota,ona, shirin, uch, to'rt, men, kelmoq, bormoq, aytmoq, son, kun, ish, payt, tun, bugun, erta va h.k.

II. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika

Iste'mol (qo'llanish) doirasi chegaralangan leksika uch xil bo'ladi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar.

1. Dialektal leksika

Ma'lum hududda qo'llanilib, shu hudud (territoriya) aholisi (vakillari) uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar *sheva so'zları* yoki *dialektal leksika* deyiladi. Bunday so'zlar *dialektizmlar* ham deb yuritiladi.

Sheva so'zları adabiy tildan uch xususiyatiga ko'ra farqlanadi:

a) fonetik xususiyatiga ko'ra: *aka-oka, bola-bala, dada-doda, kovush-govush, edi-jedi*. b) leksik xususiyatiga ko'ra: *kartoshka-barang, yong'oq-g'o'z, g'isht-karvich, buzoq-o'jak, narvon-shoti*. v) grammatic xususiyatiga ko'ra: *oshni-oshti, kelyapti-kevotti, boramiz-boravuz, bobomga-boboma*.

Ba'zi so'zlar adabiy til va dialekt(sheva) da qo'llangani holda, adabiy tilda shevadagidan o'zgacha ma'noda ishlatiladi. Masalan, *irkit*; adabiy tilda: "kir, iflos"; shevada: "ayron xalta"

ma’nosini bildiradi. *Tavoq*: adabiy tilda ichi chuqur idish; Farg’ona shevasida “lagan” ma’nosida qo’llanadi.

Bir-biriga yaqin bo’lgan shevalar yig’indisi *lahja* deyiladi. O’zbek xalq shevalari uchta lahjaga birlashadi.

Qarluq lahjası. Bu lahjaga Farg’ona, Toshkent tipidagi shahar shevalari kiradi. Bu lahjaga kiruvchi shevalar “y-lashgan” deb ham yuritiladi.

Qipchoq lahjası. Bu lahjaga kiruvchi shevalar “j- lashgan” ham deyiladi. Negaki, so’z boshidagi y o’rnida asosan j qo’llanadi; *yo ’ldosh-jo ’ldosh, yil-jil, etti-jetti*.

O’g’uz lahjası. Bu lahjaga Xorazm, turkman shevalari kiradi. Bu shevalarda so’z boshidagi jarangsiz undosh jaranglilashadi: *tovush-dovush, kuch-guch*.

O’zbek adabiy tiliga qarluq lahjası: fonetik jihatdan Toshkent, morfologik jihatdan Farg’ona shevasi asos bo’lgan.

Dialekt va shevalarning o’ziga xos jihatlari dialektologiya bo’limida o’rganiladi.

Label1

2. Terminologik leksika

Professional va ilmiy terminlar terminologik leksikani tashkil etadi. Ilm-fan, texnika,qishloq xo’jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo’lgan so’z yoki birikma *termin* deyiladi. Terminlar ikki xil bo’ladi:

a) professional terminlar. Ma’lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so’zlar professional terminlar hisoblanadi: *masalan, charm, rezgi, shirach (etikdo’zlik), angob, loya, taqsir, gulbo’ta, bargi bodom (kulolchilik); zehdo’zlik, piltakach, yo’rmado’zlik, bichiqliki, tarhkash(kashtachilik)* kabi.

b) ilmiy terminlar. Har bir fan o’ziga xos terminga ega. Tilshunoslikda: *fonema, fonetika, ega, kesim; matematikada: kub, kvadrat, plyus.*

3. Jargon va argolar

Ma’lum tabaqa (sinf) vakillari nutqida qo’llanadigan so’zlar *jargonlar* deyiladi. Masalan, *shoe’ qiling*-bildiring, *tanzil*-foyda.

Argolar qiziqishlari, mashg’ulotlari, yoshlari bir xil bo’lgan ma’lum tor doiradagi guruh vakillari qo’llaydigan so’zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so’zlarni boshqa ma’noda qo’llashadi. Otarchilar, o’g’rilar, savdogarlarning o’z argolari mavjud. Masalan, a) otarchilar argosidan; *yakan (pul), joyi (yo’q), dah (yaxshi); b) o’g’rilar argosidan: loy(pul), ligavi (milisiya), harif (pul egasi, o’g’rilik ob’ekti); d) savdogarlar argosidan: sar yoki sarpiyoz (ming so’m), kapara (olti ming so’m); e) bezorilar argosidan: zamri (jim tur), hamka (non), deshevka (chaqimchi). Bu kabi sinflar, uyushma va to’dalar yo’qolishi bilan argo va jargonlar ham yo’qoladi.*

Emotsional-ekspressivlik jihatdan o’zbek tili leksikasi

Emotsional-ekspressivlik his-tuyg’u, munosabat ifodalash demakdir. O’zbek tilidagi ba’zi so’zlar so’zlovchining munosabatini ham ifodalaydi, ba’zilarida munosabat sezilmaydi. Shu jihatdan so’zlar ikki xil bo’ladi:

1) emotsional-ekspressiv bo’yoqsiz so’zlar; 2)emotsional-ekspressiv buyoqdar so’zlar. Bo’yoqsiz so’zlarda faqat tushuncha, ma’no ifodalanadi. So’zlovchining munosabati sezilmaydi. Bunday so’zlar *bo’yoqsiz* yoki *neytral* so’zlar deb yuritiladi. Bo’yoqdar so’zlarda so’zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Munosabatning xarakteriga ko’ra bo’yoqdar so’zlar ikki xil bo’ladi: a) *ijobiy bo’yoqdar so’zlar*: chehra, jamol. b) *salbiy bo’yoqdar so’zlar*: badbashara, badburush, naynov, qiltiriq, kampirdahan.

Noadabiy qatlamlar

Jonli (so’zlashuv) tilda uchraydigan, keng iste’molda qo’llanmay, ayrim shaxslarning xulq-atvorini, tabiatini ko’rsatib turadigan so’z va iboralar noadabiy qatlamlar hisoblanadi. O’rinsiz

iboralar, qarg'ash, so'kish, argo, jargon, varvarizmlar noadabiy qatlam hisoblanadi. Masalan: "Xo'jayinimizning tusini el esin...", "Boshqa vaqtida zvonit qiling..."

Varvarizm (lat. "ajnabiy")-boshqa tillardan olingen so'z va iboralarni o'rinsiz qo'llash. Masalan: *momoy, babulya, bratishka, gardkam, mersi, danke...*

Vulgarizm (lat. "dag'al")-adabiy tilda ishlatilmaydigan yoqimsiz, qo'pol so'zlar, noto'g'ri jumlalar: *Ey, sharmanda, benomus, bebosh.*

Vulgarizm ham noadabiy qatlamga kiradi.

Tasviriy ifodalar

Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llanadigan ifodalar *tasviriy ifodalar* deyiladi. Tasviriy ifodalar asosan ot turkumidagi so'zlar bilan ifodalanadi: *matematika, shaxmat-aql gimnastikasi; yozuvchi, shoir- qalam ahli; rassom-mo'yqalam sohibi; archa-o'rmon malikasi; makkajo'xori-dala malikasi; paxta-oq oltin; ko'mir, neft-qora oltin; paxta terish mashinasizangori kema; osmon-moviy gumbaz.*

21-§. FRAZELOGIYA

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi **frazeologik birlik** yoki **frazeologizm** deyiladi. Iboralar tilda tayyor holda mavjud bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq so'zning birikib, yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashiga frazeologik birikma deyiladi.

Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma'no imkoniyatlari) frazeologik ma'no va qo'shimcha ma'no bo'yoqdorligi (ottenka)dan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot *frazeologik ma'no* deyiladi. Frazeologik ma'no obrazliligi bilan leksik ma'nodan farq qiladi.

Iboralar lug'aviy birlik bo'lganidan, xuddi so'zlar kabi, gapda bir bo'lak vazifasida keladi: *Aka-ukalar (ega) bir yoqadan bosh chiqarishdi (kesim).*

Iboralar ham, xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega.

Ko'p ma'noli iboralar (iboralarda polisemiya)

Iboralarning asosiy qismi bir ma'noli. Iboralarda ko'p ma'nolilik kam uchraydi: *Eskin yamaguncha esing ketadi. Uni maqtab esi ketdi. Jangchi goh-goh o'ziga kelib yotdi. Endi o'zinga kelding.*

Omonim iboralar

Bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalaydigan iboralar omonim iboralar deyiladi. Omonim so'zlar tilda ko'p bo'lishiga qaramay, omonim iboralar kam uchraydi.

1. *Boshiga ko'tarmoq.* Uyni *boshiga ko'targan* bolalar tinchib qolishdi ("shovqin solmoq" ma'nosida);

2. *Boshiga ko'tarmoq.* Har doim sizni *boshiga ko'taradi*. ("e'zozlamoq" ma'nosida);

3. *Og'ziga olmoq (ichmoq):* Ilgari bir qatra *og'ziga olmas* edi.

Og'ziga olmoq (gapirmoq); Ammo hech kim meni qaytarishni *og'ziga olmas* edi.

Sinonim iboralar

Ma'nodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatib kelishi sinonim iboralar deyiladi:

Kayfi buzuq-ta'bi tirriq;

Toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq.

Yaxshi ko'rmoq-ko'ngil bermoq;

Lug'aviy birlik sifatida iboralar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'ladi: *tomdan tarasha tushganday-kutilmaganda; og'zi qulog'ida-xursand, joni chiqmoq-g'azablanmoq; ta'bi xira-xafa; quling o'rgilsin-ajoyib.*

Antonim iboralar

Qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar antonim iboralar deyiladi: *ko’kka ko’tarmoq-erga urmoq; yuzi yorug’-yuzi shuvut; ko’ngli joyiga tushmoq-yuragiga g’ulg’ula tushmoq.* Ibolar so’zlashuv va badiiy uslubda keng qo’llanadi.

22-§. USLUBIYAT (Stistik)

Uslub- so’zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqeа, hodisaga shaxsiy munosabatidir. Shu yo’l bilan ayni bir jumlada qo’shimcha sub’ektiv (modal) mazmun ham ifodalanadi. Nutq uslublari besh xil: so’zlashuv, rasmiy, ilmiy, ommaviy, badiiy uslub.

1. **So’zlashuv uslubi-** ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanadi.
2. **Rasmiy-idoraviy** (ish qog’ozlari uslubi)- shaxslar bilan shaxslar orasidagi, shaxslar bilan davlat idoralari orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi: ariza, tilxat, adres, xat, telegramma, farmoyish, tarjimai hol rasmiy uslub ko’rinishlaridir.

Qisqalik, aniqlik, soddalik rasmiy ish qog’ozlari uslubining asosiy belgilaridir. Ibora va jumlalar bir qolipda bo’ladi. So’zlar ko’chma ma’noda ishlatilmaydi.

3. **Ilmiy uslub-fan-texnika tilidi**. Ilmiy uslubning asosini atama, ta’rif, qoida, qonun va shartli belgilar tashkil etadi. Bu uslub termin (atama) lar bilan ish ko’radi.

4. **Ommaviy (ommabop, publisistik) uslub** - matbuot, radio, teleko’rsatuvga xos bo’lgan tildir.

5. **Badiiy uslub-** badiiy tasvir vositalari ibora va asosan ko’chma ma’nodagi so’zlar asosida ish yurituvchi uslub.

Nutq uslublari stilistika (uslubiyat) da o’rganiladi. **Stistik** “ stil” (“ yozish quroli”, “ ruchka”, “ pat”) ma’nosidagi so’zdan olingan.

Gapda, so’z qo’llashda ayrim xatolar mavjud bo’ladiki, ular uslubiy xato sifatida qaraladi. Masalan, *g’o’za, paxta* so’zları juda yaqin tushunchani bildiradi. Shunga qaramay, “g’o’za terildi”, “paxta gulladi” deyish xatodir.

23-§. LEKSIKOGRAFIYA

Tildagi barcha so’zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi masalalar lug’atshunoslik (leksikografiya)da o’rganiladi. Lug’atlar ilmiy maqsadlarda tuziladi. Lug’atlarning, dastavval, *ensiklopedik* va *lingvistik* turi farqlanadi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug’atlar ijtimoiy turmushning barcha sohasiga oid so’zlarni qamrab oladi. Ensiklopedik lug’atlarda so’zlar, birikmalar, ma’lum bir voqeа-hodisalar izohlanadi. Lingvistik lug’atlarda esa faqat so’zlar beriladi.

Lug’atlar qo’llanish doirasiga ko’ra ikki xil bo’ladi: *umumiylug’atlar* va *maxsus lug’atlar*. Umumiylug’atlar barchaga mo’ljallangan bo’lib, ulardan turli soha vakillari foydalanishi mumkin. Masalan: “Imlo lug’ati”, “Izohli lug’at”, “Ruscha-o’zbekcha lug’at”. Maxsus lug’atlar esa ma’lum bir soha vakillari uchun mo’ljallangan bo’ladi: “Sinonimlar lug’ati”, “Matematik terminlar lug’ati”.

So’zligining bir til yoki bir necha tildan iborat bo’lishiga ko’ra *tarjima lug’atlari* va *bir tilli lug’atlar* farqlanadi.

I.Tarjima lug’atlarida bir tilning lug’aviy birligiga boshqa tildagi mos birlik beriladi. Masalan, “O’zbekcha-ruscha lug’at”.

II. Bir tilli lug’atlar (o’z til lug’atlari) ning so’zligi bir tilda bo’ladi. Bir tilli lug’atlarning quyidagi turlari bor.

1. **Izohli lug’atda** lug’aviy birliklarning (so’z yoki iboralarning) ma’nosи izohlanadi. Lug’aviy birlik ko’p ma’noli bo’lsa, uning barcha ma’nolari beriladi va izohlanadi. “O’zbek

tilining izohli lug'ati” 1981 yilda 2 jild holida nashr etilgan bo'lib, oltmis besh mingga yaqin so'z izohlangan.

2.. **Imlo lug'ati** so'zlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lug'ati (orfografik lug'at) so'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatadi. Katta hajmli imlo lug'ati 1976 yilda nashr etilgan, unda 65 ming so'zning to'g'ri yozilishi qayd qilingan. O'quvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lug'atida 17 ming so'zning to'g'ri yozilishi berilgan.

3. Orfoepik lug'atda so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.

4. Morfem lug'atda so'zlarning morfem tuzilishi, ma'noli qismlari beriladi. Ular lingistik maqsadlarda tuziladi.

5. Chastotali lug'at so'zlarning qo'llanish miqdori va foizi haqida ma'lumot beradi.

6. Ters (chappa, teskari) lug'atda so'zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladi.

7. O'zlashma so'zlar lug'atida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar izohlanadi.

8. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadi. Sh.Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” 1978 yilda tuzilgan.

9. Sinonimlar lug'atida sinonimlar izohlanadi.

10. Omonimlar lug'atida omonimlar izohlanadi.

11. Antonimlar lug'atida antonimlar (qarama-qarshi ma'noli so'zlar) beriladi.

12. Dialektal lug'atda o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan so'zlar qayd etiladi.

13. Terminologik lug'atda terminlar izohlanadi.

14. Etimologik lug'atda so'zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladi. «O'zbek tilining etimologik lug'ati» 2000 yilda prof. Sh. Rahmatullayev tomonidan yaratildi.

“O'zbek tilining izohli etnografik lug'ati”, “Qo'shma so'zlar lug'ati” hali yaratilmagan.

24-§. ETIMOLOGIYA

Etimologiya so'zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixini o'rganuvchi bo'lim. So'zlarning kelib chiqishini o'rganish quyidagilarda ahamiyatlari:

1) so'zlarning lug'aviy ma'no ko'lamenti yoritishda.

2) so'z o'zagini aniqlashda.

3) tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi o'zgarishlarni tahlil qilishda.

Masalan: *dehqon* so'zi yer ochib, ekin o'stiruvchi qishloq odamini bildiradi. Bu so'z asli tojikcha bo'lib, *deh-* “*qishloq*”, *qon-* *xon-hokim* degan ma'nolarni bildiradi. Qadimda mayda yer egalarini dehqon deyishgan. Hozirda ”*ekin-tikin* ishlari bilan shug'ullanadigan odam” tushunchasini beradi. Mehnat so'zi mumtoz adabiyotda “mashaqqat”, “zahmat”, “azob-uqubat” ma'nolarida qo'llangan:

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,

Shod etmas emish ko'ngulni *mehnatda* kishi.

Mehnat hozirda jismoniy va aqliy ko'rinishdagi faoliyatni anglatadi: *Mehnat-mehnatning tagi rohat*.

Vatan so'zi aslida “*tug'ilgan joy*” ma'nosini anglatadi. Keyinchalik, *vatan* so'zining ma'no doirasi kengaya borib, “mamlakat”, “yurt” tushunchasiga teng kelib qolgan.

Etimologik kuzatishlar, turkiy tillar etimologiyasiga bog'liq fikrlar muayyan til, jumladan, o'zbek tili tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy so'zlar etimologiyasiga oid quyidagi xulosalar o'quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

1. O'zbek tilidagi turkiy so'zlar asosan ikki bo'g'inli, qisman bir va uch bo'g'inli bo'lib, to'rt va undan ortiq bo'g'inli so'zlar juda kam.
2. Bir bo'g'inli so'zlar qadimgi turkiy tilga mansub bo'lib, hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan tub deb qaraladi. Qadim turkiy so'zlar undosh- unli- undosh (sus) shaklida bo'lgan o'zaklarga asoslangan.

3. Turkiy tillarga, jumladan o'zbek tiliga bir bo'g'in tarkibida ikki undoshning ketma-ket kelishi xos emas. O'zbek tilida uchraydigan berk, bo'rk, art burch, bo'rt so'zlari oxiridagi undosh aslida qo'shimcha sifatida keyin qo'shilgan: ber-ik-berk, bo'ru-k-bo'rk; ari-t-art, bur-uch-burch, bo'r-ut-bo'rt.
4. Qadimgi turkiy tilda (o'zbek tilining dastlabki taraqqiyot bosqichida) so'z yasovchi qo'shimchalar hozirdagiga nisbatan ko'p va xilma-xil ko'rinishlarda mavjud bo'lган. Bugungi kunda ma'noli qismlarga ajratiladigan so'zlarning ko'pi qadimgi turkiy til davrida yasalgan.

Ayrim so'zlar etimologiyasiga e'tibor bering. Qo'shiq- "ashula". *Ko'cha tomonda childirma va qo'shiq eshitildi* (Parda Tursun). *Qo'shiq*¹ so'zi qadimgi turkiy tilda "bir lashtirish" ma'nosidagi *qo'sh fe'liga-(u-g'* ot yasovchisini qo'shish bilan yasalgan (bu haqda "Devonu lug"atit turk"da-1 jild, (357-bet); "Drevneturkskiy slovar"da(460-bet), ma'lumot berilgan). Bu so'z dastlab "she'r", "qasida" ma'nosini anglatgan; ma'no taraqqiyoti natijasida "ashula" tushunchasi shakllangan. So'zning qadimiyo ko'rinishi keyingi davrlarda fonetik o'zgarishga uchragan: *qo'sh-ug'-qo'shug'-qo'shuq-qo'shiq*.

Burungi "ilgari", "oldin", "avval". Ko'chatlarning holati burun qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Bu so'z "hid bilish a'zosi" ma'nosidagi burun otining "oldin", "ilgari" ma'nosini asosida yuzaga kelgan (burun ham yuz sathidan oldin, ilgari turgani uchun shunday nomlangan).

25-§. LUG'AT SATHI TARAQQIYOTIDAGI ICHKI OMILLAR. SO'Z YASALISHI

So'z yasash yo'llari, usullari so'z yasalishi bahsida o'rganiladi. So'z yasalishi asosan ikki usul bilan amalga oshadi: *affiksatsiya usuli* va *kompozitsiya usuli*.

1. **Affiksatsiya usuli** mustaqil ma'noli morfemaga, so'zning o'zak-negiziga so'z yasovchi qo'shimchalarni (affikslarni) qo'shish orqali yangi so'z yasashdir. So'zning o'zak-negiziga yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan hosil bo'lgan yangi so'z *yasama* so'z deyiladi (sodda so'zlar tuzilishi jihatdan ikki xil bo'ladi; *tub* va *yasama* so'z. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha ishtirot etmagan so'z tub so'z deyiladi.)

Ot, sifat, fe'l, ravish yasovchi qo'shimchalar so'z yasovchi hisoblanadi. Affiksatsiya so'z yasashda unumli usuldir: *chiroy-li-chiroyli*; *mulk-dor-mulkdor*; *qahramon-ona-qahramonona*, *qahramon-larcha-qahramonlarcha*.

2. **Kompozitsiya usuli** (so'zlarni qo'shish) orqali qo'shma so'zlar hosil qilinadi. Birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemaning (mustaqil so'zning) birikib, yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalashi qo'shma so'z deyiladi: *oqqush*, *toq qaychi*, *molboqar*, *temir yo'l*, *asalari*, *oshqozon*, *tomorqa*, *qizilishton*, *bo'rikalla*, *karnaygul*.

Ko'rpacha, *qattiq*, *suyuq*, *silliq*, *quyuq*, *tirik*, *tiril*, *moddiy*, *siyosiy*, *maishiy*, *emakla*, *g'ovla*, *o'dag'ayla*, *tarashla*, *ko'chmanchi*, *tiqmachoq*, *bo'g'iz*, *bosqich*, *zarurat*, *po'stloq*, *qulogchin*, *qoldiq*, *shodiyona*, *biror (biron)*, *bezor*, *oqliq*, *sholcha*, *qishloq*, *qizg'in*, *chirkin*... kabi so'zlar hozirda yasama deb emas, tub so'z sifatida qaraladi. Bularidan tashqari so'z yasashning quyidagi usullari ham uchraydi.

3. **Fonetik usul:** *ko'r-ko'z*, *bo'r-bo'z*. So'z urg'usini ko'chirish orqali so'z hosil qilish ham fonetik usul hisoblanadi: *yangi (sifat)-yangi(ravish)*.
4. **Semantik usul;** so'z ma'nosining o'zgarishi asosida yangi so'zning hosil bo'lishi: *to'garak-aylana*, *to'garak-mashg'ulot*, *uloq (hayyon)* *uloq(sport turi)*. *ko'k-rang*, *ko'k-osmon*, *yupqa-qalin emas*, *yupqa-taom nomi*; *kun(sutkaning yorug' qismi)-kun(quyosh)*.
5. **Abbreviatsiya usuli** (so'zlarni qisqartirish) rus tilidan qabul qilingan: Tosh MI, MDH, BMT. Qisqartirib yangi so'z hosil qilishning bir necha ko'rinishlari bor: bosh

¹ Mazkur so'z etimologiyasi haqida Sh. Rahmatullayev, M. Qodirovlarning «O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati» (-T."Universitet", 1997-1998)da fikr bildirilgan.

harflarni qisqartirib olish (AQSh); birinchi so'zning dastlabki bo'g'ini va keyingi so'zlarning bosh harfini olish (SamDU) kabi.

26-§. MORFEMIKA

Morfemika-so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'lilot. Morfemika-morfemalar haqidagi bo'lim. So'zning ma'noli qismlari *morfemalar* deyiladi. Morfema so'zning bo'linmas, eng kichik ma'noli qismidir. Morfemalar ikki xil bo'ladi: *o'zak morfema* va *affiksal morfema*.

1. **O'zak morfema**: so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik (lug'aviy) ma'no ifodalay oladigan morfemadir. O'zak morfema so'z yasalishi uchun ham, shakl (forma) yasalishi uchun ham asos bo'ladi: *gulchilarimizni*: *o'zak morfema-gul*

2. **Affiksal morfema**: (qo'shimcha morfema) mustaqil leksik (lug'aviy) ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolari shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir. Affiksal morfema so'z tarkibida hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi. Affiksal morfemalar (qo'shimchalar) vazifasiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

1. *So'z yasovchi affikslar* yangi so'z hosil qiladi, so'zning leksik (lug'aviy) ma'nosini shakllanishida ishtirok etadi. Ot, sifat, fe'l, ravish yasovchi barcha affikslar so'z yasovchi hisoblanadi: *gulla*

2. *So'z shaklini hosil qiluvchi* (forma yasovchi) affikslar so'z ma'nosiga ta'sir etib, uni bir oz o'zgartiradigan, ammo yangi so'z hosil qilmaydigan qo'shimchalardir. Sonlardagi -ta, -tacha, otlardagi kichraytish-erkalash qo'shimchalari (-cha, -jon, -xon, -loq...); qarashlilikni bildiruvchi qo'shimcha (-niki); -dek, -day qo'shimchalari, ko'plik qo'shimchasi (-lar), fe'l nisbatlari, fe'l mayllari qo'shimchalari, sifat darajalari qo'shimchalari shakl yasovchi hisoblanadi.

3. *So'z o'zgartiruvchi* qo'shimchalar so'zning ma'nosiga umuman ta'sir etmaydi. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar sintaktik munosabat (so'zlarni o'zaro biriktirish) uchun xizmat qiladi. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga *kelishik, egalik, shaxs-son* qo'shimchalari kiradi.

Ba'zi adabiyotlarda qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlari ikki xil deb ko'rsatiladi. Bunda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar shakl yasovchi qo'shimchalar guruvida beriladi.

Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab (qo'shma) bo'ladi.

1. *Sodda affikslar*: -chi,-la,-lik,-lar...

2. *Murakkab (qo'shma) affikslar*: -chilik,-garchilik,-lan,-lash, larcha: *yo'qchilik, yog'ingarchilik, otlan, salomlash, o'rtoqlarcha*.

Qulogchin, yuksal, yuksak, qattiq, kunda, chindan so'zlari ma'noli qismlarga ajralmaydi.

Demak, o'zak va qo'shimchalar so'zning ma'noli qismlari hisoblanadi.

27-§. MORFEMALARING AGGLYUTINATIV TABIATI

Affiksal morfemalar o'zak morfemaga birikish xususiyatiga ko'ra muayyan tilning o'ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O'zak morfemalarning tabiatiga ko'ra tillar asosan *agglyutinativ va flektiv* tillarga bo'linadi¹.

Turkiy tillar, jumladan o'zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko'ra agglyutinativ hisoblanadi. Agglyutinatsiya «ketma-ketlik» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarning o'zakka ma'lum tartib va ketma-ketlikda qo'shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglyutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo'shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatiq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

¹ Agglyutinatsiya-lotincha «yopishtirish» ma'nosini; fleksiya «bukilish» ma'nosini anglatadi.

Turkiy tillarda (o'zbek tilida) o'zakka dastavval, so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar), keyin shakl yasovchi va oxirida so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar birikadi: *tila-klar-imiz-ni*. Bu qat'iy qoida morfem tahlilda, ya'ni so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o'rtoqlarcha, mardlarcha* so'zlari *o'rtoq-lar-cha, mard-lar-cha* ko'rinishida emas, *balki o'rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma'noli qismlarga ajratiladi.

O'zbek tilidagi affiksal morfemalar o'zak morfemadan keyin qo'shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo'shimchalar o'zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat).. kabi old qo'shimchalar fors-tojik tiliga xos bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashib ketgan. Old qo'shimchalar rus-baynalmilal so'zlarida ham uchraydi.

Flektiv tillarda o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: *videt-viju; xodit-xoju; hukm-mahkama-hokim-hakam-mahkum; fikr-tafakkur-mutafakkir; zulm-zolim-mazlum; hol-ahvol; xulq-axloq; she'r-ash'or*.

28-§. GRAMMATIKA

Grammatika (yunoncha o'qish va yozish haqidagi bilim) tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib , nutqda so'zlarning o'zgarishi, o'zaro birikib gap hosil qilishi haqidagi bilimdir.

Tilning grammatik vositalari:

1.**Affiksatsiya** olimlar fikricha tillarda ebg ko'p tarqalgan vositadir. Ma'no anglatuvchi affaikslarni ikki turga ajratamiz. Shakl yasovchi affiksal morfemalarning keyingi turi **fleksiya** deyiladi.

2.**Ohang** o'z ichiga tilda grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan melodika bilan urg'uni qamrab oladi, lekin melodika va urg'unining roli hamma tillarda bir xil emas.

3.**Melodika** deganda ton balandligining o'zgarishi tushuniladi. U asosan hitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir. Hitoy tilida to'rtta ton mavjud bo'lib so'zning ma'nosini shu tonlardan qaysi biri ishlatalayotganligiga ko'ra o'zgaradi. Masalan, **da** so'zi nutqda talaffuz qilinishiga ko'ra ot, sifat, fe'l va ravish bo'lib kelishi mumkin.

4.**Takror** (reduplikatsiya) deganda grammatik ma'noni ifodalash maqsadlarida so'z yoki uning biror qismini ikki marta qaytarish tushuniladi. Takrorlar ko'p tillarda uchraydi, lekin u bir xil maqsadga xizmat qilmaydi. Masalan, u malay tilida grammatik vosita sifatida ishlataladi va ko'plik ma'nosini ifodalashda foydalilanildi.

orang-odam, orang-orang - odamlar

5.**Ichki fleksiya** deganda turli grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarni o'gartirish tushunilib bu vosita hind-ovropa va semit tillarida ko'p qo'llaniladi.

Arab tilida undosh tovushlar leksik ma'noni anglatsa, unlilar grammatik ma'noni ifodalaydi.

6.**Suppletivizm** deganda bir so'zning grammatik shakllarini har xil so'z o'zaklaridan yasalishi tushuniladi. So'zlarning suppletiv shakli hind-ovropa tillarida ko'plab uchraydi. Grammatik ma'noni bu yo'l bilan ifodalash asosan kishilik olmoshlari hamda sifatlarga xosdir. Masalan,

я – меня; men –meni-menga;

мы - нас; biz – bizni – bizga;

Grammatika tilning ichki qurilishi haqidagi bo'lim hisoblanib, ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis.

MORFOLOGIYA

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlari, so'zning grammatik shakli, grammatik ma'no, morfologik kategoriya (tushunchalarni o'rganuvchi bo'lim.

Morfologiya so'zni grammaatik birlik sifatida tekshiradi. So'z grammaatik birlik sifatida grammaatik ma'nosi va grammaatik shakliga ega bo'ladi.

Grammatik ma'no

So'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum bir grammaatik shakl orqali ifodalananadigan ma'nosi grammaatik ma'no hisoblanadi; *qalam, suv, tosh, olma, bog', uy* so'zlar bir grammaatik ma'noga mansub so'zlar hisoblanadi.

Grammatik forma (shakl) yoki so'z formasi

So'zning ma'lum bir grammaatik ma'no ifodalovchi shakli so'zning *grammatik formasi* (*shakli*) deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi morfema *grammatik* (*morfologik*) ko'rsatkich ham deyiladi. Masalan, ko'plikning grammaatik ko'rsatkichi-lar; bosh kelishik va bo'lishlilik ko'rsatkichi yo'q (nol ko'rsatkichli). Grammaatik shakl (so'z formasi) ning uch xil turi mavjud:

1. **Affikslar (qo'shimchalar):** *uyni, uydan, uyga; o'qiyapman, o'qiyapsan, o'qiyapti.* Affikslar yordamida yasaluvchi forma sintetik forma deyiladi.
2. **Yordamchi so'zlar** orqali hosil bo'lувchi forma; *ukam uchun, park tomon, o'qib ko'r, o'qib chiq.* Yordamchi so'z vositasida yasaluvchi forma analitik forma deyiladi.
3. **Juft va takroriy shakl:** *qozon-tovoq, yaxshi-yomon* juft formalari umumlashtirish ma'nosini; *baland-balad, qator-qator*, kula-kula kabilalar ko'plik, takror, ta'kid ma'nosini ifodalaydi.

So'z turkumlari

So'zlarning o'ziga xos belgi-xususiyatlari ko'ra ma'lum guruhga ajratilishi *so'z turkumlari* deyiladi. So'zlar konkret narsa, belgi, harakat, holat kabilarni bildirishi yoki bildirmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi: *mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar*.

So'z turkumlari jami 12 ta. Ular, asosan, ikki guruhga bo'linadi.

I.Mustaqil so'zlar turkumi

1. Ot
2. Sifat
3. Son
4. Olmosh
5. Fe'l
6. Ravish

II.Yordamchi so'zlar turkumi

7. Ko'makchi.
 8. Bog'lovchi.
 9. Yuklama
- Bulardan tashqari **alohida so'zlar turkumi** ham mavjud: modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar. Bu so'z turkumlari o'ziga xos jihatlari bilan yuqoridagi so'z turkumlaridan ajralib turadi.

Ot

Narsa-buyum, mavhumlik ma'nosini bildiruvchi so'zlar *ot* deyiladi. Ot quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Ot turkumi son, egalik, kelishik kabi grammatic kategoriyalarga, turli ma’no hamda vazifa uchun xizmat qiluvchi vazifaviy shakllarga (funksional forma), shuningdek o’ziga xos yasalish tizimiga ega.
2. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish (barcha mustaqil so'zlar) bilan birika oladi.
3. Ot barcha gap bo'laklari vazifasida kela oladi (ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar, undalma).

Otlarda son tushunchasi

Otlarda son tushunchasi birlik va ko'plik orqali namoyon bo'ladi. Ko'plikning grammatic ko'rsatkichi:-lar; birlik esa nol ko'rsatkichli formadir (shakldir). Otlarda ko'plik 3 xil usulda ifodalanadi:

- a) morfologik usul:-lar orqali: *bolalar*;
- b) leksik usul: *bir qancha do'kon, bir to'da bola*;
- c) semantik usul: *xalq, armiya, to'da, olomon, poda*.

Ba'zi takrorlar ham (grammatic usul) ko'plikni ifodalaydi: *Kim-kim keldi? Nima-nima berdi?*

Dadamlar keldilar kabi o'rirlarda -lar ko'plik qo'shimchasi hisoblanmaydi.

Ayrim otlar -lar affiksini olmaydi:

1. Planeta, yulduz nomlari (Quyosh, Mars..). Atoqli otlarga -lar affiksi qo'shilganda grammatic ko'plik ifodalanmaydi.

2. Ayrim so'zlar ma'nosiga ko'ra -lar qo'shimchasini olmaydi: *xaloyiq, dada, ona*.

Ba'zan otlarga -lar qo'shimchasi qo'shilsa ham ko'plik ifodalanmaydi, balki turliche modal ma'nolar anglashiladi.

1. Atoqli otlarga: *Muhayyo, Nodira, Akmal* kabilarga -lar qo'shilganda kishilar guruhi tushuniladi.

2. Mavhum otlarga -lar qo'shilganda uslubiy ma'no ifodalanadi, ma'no kuchaytiriladi: *sevgi, uyqu, aql, kambag'al, ko'ngil. Uyqularim qochdi*.

3. O'zi bir dona bo'ladijan narsa-buyumlarga -lar qo'shilganda ham ma'no kuchaytiriladi: *bosh, til, burun*.

4. Donalab sanalmaydigan otlarga -lar qo'shilsa, shu predmetning turi, navi, xili anglashiladi: *unlar, yog'lar, suvlar*.

5. Ma'lum kasb-hunar, fan, shu kasb-hunarga, fanga oid sohani bildiruvchi otlar ko'plik shaklida qo'llanmaydi: *o'qituvchilik, dehqonchilik, olimlik, matematika, ximiya, tilshunoslik*.

Quyidagi hollarda otlar doimo birlik shaklida bo'ladi:

1. Izohlovchi-izohlanmissi munosabatidagi birinchi so'z: *qiz bola, oshpaz kampir, injener Qodirov*.

2. Sifatlovchi son bilan ifodalansa, har ikki qism ham birlikda bo'ladi: *beshta kitob, o'ntacha sayyoh, uchala bola, bir-ikkita gap, besh kun*.

Otlar nutqda har doim birlik yoki ko'plik shaklida bo'ladi. O'zbek tilida otning son shakli (birlik va ko'plik) sintaktik munosabat bildirmaydi.

Egalik tushunchasi

	Birlik	Ko'plik
1.	-(i)m:	-(i)miz axloqim, axloqimiz
2	-(i)ng	-(i)ngiz axloqing, axloqingiz
3	-i (si)	-I axloqi, axloqlari

Singlisi, birisi so'zlarida ikkita egalik qo'shimchasi mavjud. Egalik affikslaridan II shaxs ko'plik shakli bir necha ko'rinishga ega: *kitobingiz, kitobinglar, kitoblarining*.

Egalik affiksining III shaxs formasi birlik va ko'plik uchun umumiydir.

I va II shaxs egalik affikslari o'zakdan anglashilgan predmet yoki belgini insonga nisbatlaydi, III shaxs affiksi esa insondan boshqa narsalarga ham nisbatlaydi: *kitobning varag'i; oynaning ko'zi*.

Otlarga egalik affikslari qo'shilganda o'zakda tovush almashuvi va tovush tushishi ro'y beradi: *etik-ing-etiging; singil-im-singlim*.

Ba'zan egalik affiksi o'z grammatik ma'nosini yo'qotib, o'zak bilan birgalikda boshqa so'z turkumiga-ravishga o'tadi: *ertasi, kechasi; modal so'zga o'tadi: chamasi, yaxshisi*.

Narsa-buyumning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini anglatuvchi umumiylar ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi formalar tizimi egalik tushunchasini tashkil etadi. Narsa-buyumning uch shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema *egalik affiksi* deyiladi.

Kelishik tushunchasi

Otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarni ifodalovchi formalar tizimi kelishik tushunchasini hosil qiladi.

Ot turkumidagi so'zning kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishi *turlanish* deyiladi. Kelishik qo'shimchalarini turlovchi qo'shimcha hisoblanadi. Kelishiklar quyidagicha:

1. Bosh kelishik: *kim? nima? qaer?*
2. Qaratqich kelishigi: *kimning? nimaning? qaerning?*
3. Tushum kelishigi: *kimni? nimani? qaerni?*
4. Jo'nalish kelishigi: *kimga? nimaga? qaerga?*
5. O'rinn-payt kelishigi: *kimda? nimada? qaerda?*
6. Chiqish kelishigi: *kimdan? nimadan? qaerdan?*

Kelishik qo'shimchalarini olmoshlar, harakat nomi, jamlovchi songa ham qo'shilishi mumkin. Otlashgan so'zlar (otlashgan sifat, otlashgan sifatdosh) hamda olmoshlar ham kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi.

Otning vazifaviy shakllari

Otning vazifaviy shakllari quyidagilar:

- 1) kichraytirish shakli; -cha, -choq (-chak);
- 2) erkalash shakli: -jon, -xon, -oy.
- 3) hurmat shakli: -lar. Hurmat ma'nosini ifodalash uchun -lar dan oldin egalik qo'shimchalarining bo'lishi shart: dadamlar.
- 4) qarashlilik shakli: -niki;
- 5) o'rinn belgisi shakli: -dagi;
- 6) chegara shakli: -gacha (-kacha, -qacha);
- 7) O'xshatish shakli: -dek (-day).

Otlarning ma'no turlari

Otlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bir turdag'i predmetlardan birining nomini yoki shu turdag'i predmetlarning umumiylar nomini bildirishiga ko'ra: *atoqli* va *turdosh* bo'ladi.

Bir xildagi predmet yoki hodisalardan birini ajratib ko'rsatuvchi otlar *atoqli* otlar deyiladi. Bir turdag'i predmetlarning umumiylar nomini bildiruvchi otlar *turdosh* otlar deyiladi. Atoqli otlar faqat birlikda qo'llanadi.

Asal, Arslon, Ra'no, Rayhon, Anor, Lola, Bahri, Juma,...kabi atoqli otlar turdosh otlar asosida; O'lmas, Tursun, Turdi kabi atoqli otlar fe'l asosida paydo bo'lgan. O'z navbatida rentgen, xosiyatxon, nyuton, amper kabilar atoqli otlar asosida yuzaga kelgan.

2. Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra *aniq* va *mavhum* otlarga bo'linadi.

Sanash, ko'rish, ushslash mumkin bo'lган otlar aniq otlardir: *gilam, gul, ro'mol*. Ko'z bilan ko'rib, ushlab bo'lmaydigan, sanalmaydigan otlar mavhum otlar hisoblanadi: *g'am, alam, baxt, shodlik*. Mavhum otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda uslubiy ma'no anglashiladi.

3. *Yakka va jamlovchi* otlar. Yakka otlar alohida predmetni bildiradi: *ro'mol, ko'zoynak, kitob*. Bir turdag'i predmetlarni jamlab ko'rsatuvchi otlar jamlovchi deyiladi: *xalq, armiya, meva*.

Otlar ikki usul bilan yasaladi: *affiksatsiya* (qo'shimcha qo'shish) va *kompozitsiya* (so'zlarni qo'shish)

Ot yasovchi qo'shimchalar quyidagicha:

1) Shaxs oti yasovchi: -chi, -gar, -kor, -kash, -shunos, -(u) vchi, -(o)vchi, -dosh, -bon, -dor, -furush, -boz, -xo'r, -paz, -soz, -do'z, -xon, -go'y, -ham, -iy, -vachcha.

2) narsa-buyum oti yasovchi: -gich (-g'ich,-kich,-qich), -ma, -m (-im,um), -gi (-g'i,-ki,-qi,-g'u), -k,-q (-ik,-iq,-uq,-oq),-g'in,-qin,-v,-uv,-don.

3) o'rin-joy oti yasovchi: -loq,-zor,-iston,-poya,-goh,-obod.

4) mavhum ot yasovchi: -lik,-chilik,-garchilik,-liq,-lashtirish.

noma,-xona,-ch,-inch (*quvon-ch, sevin-ch, ishon-ch, suyun-ch, yupan-ch, qo'rq-inch*).

indi: yig'-indi,qir-indi; yuv-undi, oq-indi, supur-indi, chiq-indi.

in,-un: ekin, yig'in, yog'in, tugun, bo'g'in, quyun (quy-un).

mak,-moq: emak, chertmak, topishmoq, quymoq, chaqmoq, ilmoq.

dak,-doq: kekir-dak, yugur-dak, qovur-doq, qo'ndoq.

ildoq: shaqildoq, chirildoq, shilpildoq, xiqaldoq.

sh: uylanish, qurilish, o'pirilish, yig'ilish; o'tirish.

it,-at: chiq-it, qur-it, ko'ch-at.

chiq: yopin-chiq, suyan-chiq:

diq: xordiq, qoldiq, topildiq.

a: quyq-a, jizz-a, qahqah-a, sharshar-a, do'mbir-a, dag'dag'-a.

ak; xurr-ak, qars-ak, varr-ak, bizbiz-ak, dardar-ak.

So'zlarni qo'shib ot yasash

So'zlarni qo'shish yoki ularni qisqartib qo'shish bilan qo'shma otlar yasaladi. Qo'shma otlarning tarkibi quyidagicha bo'ladi:

1. Ot bilan otdan: otqulok, qo'larra.

2. Sifat bilan otdan: ko'ksulton

3. Ot bilan sifatdan: gulbeor

4. Son bilan otdan: mingoyoq

5. Ot bilan fe'lidan: o'rnbosar

Quyidagi qo'shma otlar qo'shib yoziladi:

a) qismlari turdosh otlardan iborat bo'lib, bir urg'u bilan aytildigan narsa-buyum nomlari (*gulko'rpa, o'qilon, tutmayiz, oshqozon, oshko'k*);

c) ot bilan -ar qo'shimchali fe'lidan yasalgan qo'shma otlar
(beshiktebratar, otboqar);

v) ikkinchi qismi turdosh ot bo'lган joy nomlari (Yangiyo'l).

Ikkinchi qismi e, yo, yu, ya harfi bilan boshlangan qo'shma otlar ajratib yoziladi: *er yong'oq, eshak emi, qozon yuvg'ich*.

Juft otlar quyidagicha hosil qilinadi:

a) bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *uy-joy, oyoq-qo'l, daftar-kitob*;

b) sinonim so'zlardan; *kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat, or-nomus*:

v) antonimlardan: *yosh-qari, ost-ust*.

Takror otlar: *kosa-kosa* . Tildagi *choy-poy, bug'doy-mug'doy, osh- posh, ot- pot* kabi so'zlar ham takror hisoblanadi.

Otlar qisqartirish yo'li bilan ham hosil qilinadi. Qisqartirish orqali ot yasalishi *abbreviatsiya usuli* deyiladi: SamDU, BMT, MDH, ATS, GES, filfak, avtomashina, dramteatr, texnikum.

Sifat

Sifat quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Predmet, narsa-buyumning belgisini bildiradi, **qanday, qanaqa** so'roqlariga javob bo'ladi.
2. Sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni qabul qiladi, lekin sifat o'zgarmaydi: ulug'vor tabiatni. Ko'rindiki, sifat otga bog'langanda hech qanday o'zgarishga uchramaydi, ya'ni o'zgartuvchi qo'shimchalarni olmaydi.

3. Sifatlar darajalanadi. Belgining me'yordidan, ortiq yoki kam darajada ekanligini ko'rsatish **sifat darajalari** deyiladi. Sifat darajalari 3 xil: **oddiy, qiyosiy, orttirma daraja**.

- 1) **oddiy darajada** belgining ortiq yoki kamligi ko'rsatilmaydi: *go'zal, katta*.
- 2) **qiyosiy daraja: -roq:** *go'zalroq, kattaroq*. Qiyosiy daraja ozaytirma daraja deb ham yuritiladi. Ozaytirma daraja -(i) **mtir, -ish; sal, bir oz** kabi vositalar orqali hosil qilinadi: *ko'kimir, sal yaxshi, qizg'ish*.
- 3) **orttirma daraja.** Belgining me'yordidan ortiqligini bildiradi: *qip-qizil, yam-yashil, oppoq, g'oyatda baland*.

Sifat darajalari 3 xil usul(vosita) yordamida hosil qilinadi:

a) **fonetik usul (vosita):** *yap-yapaloq, qip-qizil*. Urg'u yordamida ham daraja ifodalanadi: *baland, achchiq, nordon. Qip-qizil, sap-sariq, yum-yumaloq* so'zlarida ham urg'u birinchi bo'g'inga tushadi.

b) **morfologik usul:** -roq, -ish, -(i)mtir: *ko'kroq*.

v) **leksik usul;** *sal, xiyol, bir oz, juda, g'oyatda, nihoyatda, behad eng.*

4. Sifatlarning ma'no turlari quyidagicha:

1) **belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar:** kamtarin, mug'ambir, sodda, quvnoq, mehribon, sho'x, ziqna, yo'rg'a, chopag'on;

2) **holat bildiruvchi sifatlar:** badavlat, xursand, ma'yus, keksa, durkun, sovuq, iliq, ochiq, salqin, jimjit, tinch;

3) **shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar:** gavdali, novcha, uzunchoq, yassi;

4) **rang-tus bildiruvchi sifatlar:** oq, qora, qizil;

5) **hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar:** keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir, engil;

6) **maza-ta'm bildiruvchi sifatlar:** shirin, bemaza, nordon, achchiq.

7) **hid bildiruvchi sifatlar:** xushbo'y, badbo'y, qo'lansa.

5. **Tuzilish** jihatidan sifatlar *tub (asliy)* yoki *yasama (nisbiy)* bo'ladi. **Tub sifatlar:** *oq, katta, uzun, qora, yosh, keng, og'ir*. Tub sifatlar morfemalarga ajralmaydi.

So'z yasashning biror usuli bilan hosil bo'lgan sifatlar **yasama sifatlar** deyiladi. Yasama sifatlar sodda yoki qo'shma bo'ladi: kuchli, iliq, aqli, xushsiz, havo rang, ishyoqmas, qiziqqon.

6. Sifat ikki usul bilan yasaladi: **affiksatsiya** (qo'shimcha qo'shish bilan) va **kompozitsiya** (so'zlarni qo'shish orqali).

1. **Affiksatsiya usuli:** bu usulda asosan otdan, fe'ldan, ba'zan ravishdan sifat yasaladi.

a) otdan sifat yasovchi qo'shimchalar: **-li; ser- dor, ba-, siz, -gi (-ki, -qi), -y (- viy), -i** (qishloqi, chapani, zardo'zi, kashmiri, xitoyi,) - **chan, -simon, -chil, -parvar, -kor, -gar, -mand, ildoq** (liqaldoq, qaqlaldoq, shaqaldoq, bijaldoq, so'lqaldoq, chiyaldoq, likaldoq, bo'rsaldoq. Bu affiks taqlid so'zlardan sifat yasaydi) - **vor, -parast, be-, -don, -bad, xush-, -namo, -cha** (buxorocha, o'zbekcha).

b) fe'ldan sifat yasovchi: **-gin (-g'in, -kin, -g'un, -qin, -qun)**

gir(-g'in,-kir,-qir,-qur),-choq(-chiq,-chak,) -k(-ik,-uk,-ak), -q(-iq,-uq,-oq), -ma, -qoq, -g'oq, -ag'on, -ong'ich, -ovuch (tepong'ich, qulong'ich, hurkovuch, iskovuch), -in,-no -bar, -bop,- kash,- shumul, -loq.

2. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma sifatlar hosil qilinadi: Qo'shma sifatlar tarkibi quyidagicha bo'ladi:

- a) sifat-sifat: xomsemiz, olachipor, qorasovuq;
- b) sifat-ot: qiziqqon, balandparvoz, qimmatbaho;
- v) ot-ot: otashqalb, jigar rang, bodomqovoq;
- g) ravish-ot: kamqon, kamgap, hozirjavob;
- d) ravish-ar qo'shimchali sifatdosh: tezyurar, tezotar;
- e) ot-ar qo'shimchali sifatdosh: tinchliksevar;
- j) son-ot ; (-lama): beshkokil, ikkiqat, ikkiyuzlama;
- z) ot-aro: xalqaro, millatlararo, qit'alararo;

Umum-so'zi qo'shilgan so'zlar ham qo'shma hisoblanadi; umumjahon, umumxalq.

Son

Otga bog'lanib, uning miqdorini, sanog'ini, tartibini; otga bog'lanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini bildirgan so'zlar turkumi *son* deyiladi.

Sonlar harf bilan yoziladi (besh, etti) yoki arab raqami (2, 7, 8), rim raqami (V, VII, XXI) bilan ko'rsatiladi. Son quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi. Son yasovchi qo'shimchalar ham mavjud emas. Sonda so'z yasalishi yo'q.
2. Sonning ma'no turlari va modal shakllari maxsus affikslar qo'shish bilan yasaladi: uchta, oltov.
3. Son o'zicha turlovchi affikslarni qabul qilmaydi, sifatlovchi olmaydi, o'zi otning sifatlovchisi bo'lib keladi.
4. Son miqdor tushunchasining nomini anglatganda va otlashganda kelishik, egalik affikslarini qabul qiladi, ot bajargan vazifada keladi: Sakkiz ikkiga teng bo'linadi.
5. Son hisob so'zlari-numerativlar bilan ham qo'llanadi. Son gapda aniqlovchi bo'lib keladi. Sonlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra dastlab ikkiga bo'linadi: 1) miqdor son; 2) tartib son.

Miqdor sonlar narsa-buyumni sanash, donalash, taqsimlash yoki taxminlab ko'rsatish uchun qo'llanadi. Miqdor sonlar quyidagi xususiyatlari bilan tartib sonlardan farqlanadi:

- miqdor sonlar o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlarga ega. Tartib sonlar -(i)nchi orqali yasaladi;
- miqdor sonlar hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanadi. Tartib sonlar numerativlar bilan qo'llanmaydi;
- miqdor sonlar juftlashib keladi, tartib sonlar juft holda kelmaydi;
- miqdor sonlar birikma holda (uchdan bir) ishlataladi; tartib sonlar birikma holda kelmaydi.
- miqdor sonlar -lar affiksini olib, taxminiy miqdorni bildiradi, tartib sonlar, -lar affiksini olib otlashadi: *Birinchilarga mukofot beriladi*.

Miqdor sonlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) **sanoq son**: donalab ko'rsatish, sanash, taqsimlab ko'rsatish ma'nolarini ifodalaydi: uch, ikki, besh, etti.

Dona son: -ta: o'nta, yigirmata, uchta. **Taqsim son**: -tadan: beshtadan, uchtadan. Dona sonni takrorlash orqali ham taqsim son hosil bo'ladi: beshta-beshta. Dona va taqsim sonlar sanoq son hisoblanadi;

- b) **jamlovchi son**: -ov, -ala, -ovlab, -ovlashib, -ovlan: uchov, ikkala, ikkovlab, uchovlashib, oltovlon. Jamlovchi son jamlikni bildiradi.

v) **chama son**: -cha (-ta bilan yasalgan sanoq songa qo'shiladi: uchtacha), -larcha, -lab: beshtacha, o'nlaracha, yuzlab. Sanoq sonlar juft holda kelganda, sanoq songa -lar qo'shilganda ham chama son hosil bo'ladi: uch-to'rt, beshlar. Chama son noaniq, taxminiy miqdorni ko'rsatadi.

g) **kasr son**: butunning qismlarini ifodalaydi: to'rtdan ikki, uchdan bir.

Yarim (yorti), chorak, nimchorak so'zлari ham kasr son hisoblanadi.

a) **aralash son**: kasr sonlar butun sonlar bilan birgalikda aralash sonni hosil qiladi: uch butun o'ndan besh, besh yarim.

b) **tartib son** narsa buyumning aniq, konkret miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi: - (i)nchi: beshinchi. Tartib sonlar predmetning miqdoriga ko'ra belgisini bildiradi.

Sonlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *sodda son va qo'shma son*.

Sodda sonlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: bir, besh, sakkiz. Qo'shma son ikki va undan ortiq sonlardan iborat bo'ladi: o'n besh, o'n to'rt.

Aslida ikki o'zakdan tuzilib, hozirgi kunda bir o'zak tarzida qaraladigan *oltmish* (olti-mish), *sakson* (sakkiz o'n), *to'qson* (to'qqiz o'n) sonlari sodda hisoblanadi.

Sonlarning otlashuvi. Sonlar otlashib, otlar bajaradigan sintaktik vazifalarni bajaradi. *Ikkinchisini olib chiqishdi. Birniki-mingga, mingniki-tumanga.*

Taqsim son egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olmaydi.

Dona, taqsim sonlar ko'plik qo'shimchalarini olmaydi.

Nutqimizda 23 ta tub son bor (0-9, 10-1000, million, milliard).

Hisob so'zлari (numerativlar)

Hisob so'zлari narsa-buyumning aniq miqdorini ko'rsatmay, shu narsani hisoblashda uning qaysi guruhga oidligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Hisob so'zлari asosan ot turkumidagi so'zlardan iborat bo'ladi: *dona, nusxa, tup*.

Qadimda ishlatilgan hisob so'zлari: qadoq, jon, tanob, gaz, savjin, paysa, taxta, enlik, so'lkavoy, tosh, pud, mahal (vaqt), yumaloq.

Keyingi davrlarda kirib kelgan (boshqa tillardan) hisob so'zлari: mehnat kuni, hektar, kubometr, kilovatt-soat, sotix, pachka, metr, kilo minut, gradus, sentr, par, ekzemplyar.

O'zbek tilidagi hisob so'zлari qo'llanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan so'zlar: *dona, nusxa, bosh, tub, nafar*.

2. Butunning, guruhning yoki to'danining qismini hisoblash uchun ishlatiladigan so'zlar: *burda, parcha, varaq (sahifa), og'iz, luqma, siqim, tilim, (karch), chimdim, qultum, tomchi, qatra, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, bo'lak, shingil*.

3. To'dalar, guruhlarni ko'rsatuvchi hisob so'zlar: *gala, to'p, guruhi, to'da, dasta, bog' (bog'lam), quchoq, shoda, nafar, gruppa, hovuch*.

4. Juft narsa-buyumlar hisobini ko'rsatuvchi so'zlar: *juft, par (a)*.

5. Og'irlilikni o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar: *gramm, kilogramm, metr, pud, sentr, tonna, misqol, qadoq, botmon*.

Hisob so'zi vazifasini bajaruvchi so'zlar miqdor o'lchovini ifodalash uchun ishlatiladi: *piyola, qoshiq, kosa, choynak, qop (xalta), quti, chamardon*.

6. Uzunlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlar: *quloch, qadam, qarich*.

7. Yosh hisobi uchun qo'llanadigan so'zlar: *yosh, yashar, yoshdag, yoshli*.

8. Vaqt o'lchovi uchun ishlatiladigan so'zlar: *asr, yil, oy, hafta*.

9. Qiymat (pul) hisobi uchun ishlatiladigan so'zlar: *so'm, tiyin, tanga, chaqa, tilla*.

Sonlarning hisob so'zлari bilan birgalikda qo'llanishi o'zbek tili tabiatiga xos jihatlardan biridir.

Olmosh

Ot, sifat, son, ravish o'rnida qo'llanib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi **olmosh** deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni ko'rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmosh quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Olmoshda yasalish yo'q, ya'ni olmosh yasalmaydi. Ammo olmoshlardan sanoqli affiksler orqali ot, ravish, fe'l yasalishi mumkin: *kamlik*, *manmanlik*, *sensiramoq*, *mensimoq* (*mensimaslik*), *shunday*.

2. Olmoshlar ba'zi so'zlarga qo'shilib, boshqa so'z turkumiga ko'chishi mumkin: *qaerda*, *ozmuncha*, *o'zboshimcha*, *manmanlik qilmoq*.

3. Olmoshlar otlarga xos so'z o'zgartiruvchilar bilan o'zgaradi, ya'ni olmoshlar turlanadi. Olmoshlar kelishik affikslarini oladi va ular belgili qo'llanadi.

4. I, III shaxs kelishik olmoshlari egalik affiksini (qo'shimchasini) olmaydi.

Unisi, *shunisi*, *qaysisi* olmoshlari tarkibida ikkitadan egalik qo'shimchasi mavjud.

5. Olmoshlar gapda bajargan vazifasiga ko'ra to'rt xil bo'ladi:

a) *ot xarakteridagi olmoshlar* (ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar): men, sen, biz, siz, ular, kim, nima, hech kim, hech nima, allakim, kimdir;

b) *sifat xarakteridagi olmoshlar*: qanday, qaysi, bu, shu, shunday, ba'zi, butun, qancha, hech qanday, hech qaysi, allaqaysi, allaqanday;

v) *son xarakteridagi olmoshlar*: necha, nechanchi, qancha, shuncha, o'shancha;

g) *ravish xarakteridagi olmoshlar*: nega, qalay, qani, hech qachon, qachon.

Olmosh gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib keladi. Kishilik olmoshlari, o'zlik olmoshlari kelishik qo'shimchalarini oladi. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari juft holda ham keladi. Ko'rsatish, so'roq, o'zlik, belgilash olmoshlari takror holda ham qo'llanadi.

6. Olmoshlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: sodda va qo'shma olmoshlar.

Sodda olmoshlar bir o'zakdan tuzilib, tub yoki yasama bo'ladi: *men*, *sen*, *u*, *biz*, *o'sha*, *bunday*, *shunday*. Yasovchi qo'shimchani olgan olmoshlar boshqa turkumga ko'chadi: *o'z-o'zicha* (*ravish*), *sizsiramoq* (*fe'l*).

Qo'shma olmoshlar birdan ortiq o'zakning birikishidan hosil bo'ladi:

a) olmosh-boshqa turkumdagi so'z: mana bu, mana shu, qay vaqt, ana shu, allaqaysi:

b) olmosh-olmosh: har kim, har qanday, har nima, hech kim, hech qaysi.

Olmoshlar takrorlanib, juftlanib kelganda ko'proq boshqa turkumga-ravishga (o'zidan-o'zi, o'sha-o'sha), fe'lga (sansanlamoq) ko'chadi.

Boshqa turkumga oid so'zlarning olmoshga ko'chishi *pronominalizatsiya* deyiladi. Masalan, *odam*, *kishi*, *inson*, *nafas*, *ish kabi otlar ba'zi*, *boshqa*, *ayrim*, *tubandagi*, *quyidagi* kabi sifatlar, *bir* soni olmoshga yaqinlashadi. Ko'nglimni so'ragani bir inson topilmadi (hech kim). Sizni bir odam chaqiryapti (kimdir). Odam ketgisi kelyapti (men). Shularni ko'rib, diling yayraydi kishi (men).

Olmosh turlari

Olmosh ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra yetti turga bo'linadi:

1. *Kishilik olmoshlari*: men, sen, u, biz, siz, ular. Kishilik olmoshlari egalik affiksini olmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshi otlashib, egalik affiksini olishi mumkin: *Unisi 10 ga kirdi*.

2. *O'zlik olmoshi*: o'zlik olmoshi egalik affiksini olib, har uchala shaxs kishilik olmoshini ko'rsata oladi. O'zlik olmoshi kelishiklar bilan turlanishi uchun avval egalik affiksini qabul qiladi: O'zimning o'zingni, o'zining. O'zlik olmoshi aniqlovchi, kesim, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

3. *Ko'rsatish olmoshlari*: bu, shu, o'sha, mana shu, mana bu, ana shu, ushbu, ana u. Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsa buyum yoki ularning belgisini ko'rsatish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Ko'rsatish olmoshi asosan, aniqlovchi, kesim vazifasida keladi.

4. *So'roq olmoshlari*: kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qachon?, qaysi?, qancha?, necha?, qaer?, nega?, qalay?. So'roq olmoshlari shaxsga (kim?), narsa buyumga (nima?), belgiga (qanday?, qanaqa?, qaysi?), miqdorga (necha?, qancha?), vaqtga (qachon?), maqsad va sababga (nega?, nimaga?), o'ringa (qani?) munosabat bildiradi.

Badiiy asarlarda *nechuk, ne, na* so'roq olmoshlari ishlataladi.

So'roq olmoshlari kelishik, egalik affikslari bilan turlana oladi.

5. *Belgilash-jamlash olmoshlari*: har kim, har, har nima, har qanday, har qaysi, har bir; hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi. Belgilash olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo'lib keladi.

6. *Bo'lismesizlik olmoshlari*: hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi. Bu olmoshlar ot, sifat, son kabi so'z turkumlari anglatgan ma'no haqidagi inkorni bildiradi. Ma'no jihatdan belgilash olmoshlariga zid. Bo'lismesizlik olmoshi ot vazifasida keladi.

7. *Gumon olmoshlari*: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima, allaqachon, allaqanaqa. Gumon olmoshlari predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiyy va taxminli ishora qiladi. Gumon olmoshlari ot, sifat xarakterida bo'ladi.

Belgilash, bo'lismesizlik, gumon olmoshlari sodda yoki qo'shma holda bo'ladi.

Fe'l

Ish-harakatni bildirgan so'zlar turkumi *fe'l* deyiladi. Fe'l quyidagi xususiyatlarga ega.

Fe'l tuslanadi. Fe'l turkumidagi so'zlarning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi *tuslanish* deyiladi. Shaxs-son qo'shimchalarini *tuslovchi qo'shimchalar* deyiladi. Tuslanish fe'lning mayl, zamon va shaxs-son formalarini olib o'zgarishidir.

Shaxs-son tushunchasi (kategoriyasi)

Shaxs-son tushunchasi fe'l anglatgan harakat-holatning bajaruvchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. I shaxs-so'zlovchi;

II shaxs-tinglovchi, III shaxs-nutq jarayonida ishtirok etmayotgan shaxs.

I shaxs: bordim bordik, boryapmiz

II shaxs: boarding, boryapsan boardingiz, boryapsiz

III shaxs: bordi, boryapti bordilar, boryapti(lar)

Zamon tushunchasi

Zamon tushunchasi harakat-holatning nutq vaziyatiga munasabatini ifodalaydi. Fe'lning uch zamoni farqlanadi: o'tgan zamon(nutq jarayonigacha bo'lgan harakat); hozirgi zamon (nutq jarayonida sodir bo'layotgan harakat), kelasi zamon (nutq jarayonidan keyin sodir bo'ladigan harakat).

1. *O'tgan zamon fe'llari* quyidagicha:

a) aniq o'tgan zamon shakli-di: yozdik, ko'rdik.

b) uzoq o'tgan zamon shakli -gan: yozgandingiz, ko'rgandingiz.

v) o'tgan zamon hikoya shakli-(i)b: yozibsiz, ko'ribmiz; yozib edik, ko'rib edik.

g) o'tgan zamon davom fe'li-a(r)-edi, (-mas-edi): ko'rinar edi, ko'rinnmas edi.

2. *Hozirgi zamon fe'llari* quyidagicha:

a) aniq hozirgi zamon shakli -yap-shaxs-son affiksi: -yotir,-yotib; boryapman, borayotirman, borayotibman; -moqda: bormoqda.

b) hozirgi- kelasi zamon shakli: kelasi zamon aniq shakli:-a, -y; yozadi; ishlaymiz; kelasi zamon gumon shakli; -(a)r, (-mas); yozarman, yozmasman.

3. Kelasi zamon shakllari quyidagicha:

- a) aniq kelasi zamon shakli -ajak(-yajak): borajakmiz, o'qiyajakmiz; -gu(-g'u,-ku,-qu): kelgum(dir), kelgumiz, kelgusi;
- b) kelasi zamon maqsad shakli-moqchi: kelmoqchiman, aytmoqchisan;
- v) kelasi zamon guman shakli:-r,-ar: o'qirman, boraman.

Ba'zi hollarda bir zamon shaklining boshqasi o'rnida qo'llanishi uchrab turadi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiyl holatdan anglashilib turadi. Masalan: *Hozir qorong'ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik*-kelasi zamon. *Shundan so'ng bilmadim, qancha vaqt shirin xayollar osmonida qanot qoqib yurdim-hozirgi zamon. Bugun kechqurungi poezd bilan jo'nab ketyapmiz*-kelasi zamon.

Fe'llar ma'no va leksik- grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

1. **Mustaqil fe'llar** mustaqil, lug'aviy ma'no bildiradi, gapning biror bo'lagi vazifasida keladi: keldi, aytди, o'qidi.

2. **Yordamchi fe'llar** harakat bildirmaydi (mustaqil ma'noga ega emas). Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi fe'llar uch xil:

- a) bog'lama vazifasida keluvchi, so'z yasalishida ham ishtirok etuvchi yordamchi fe'llar: *bo'l, qil, ayla, et*;
- b) fe'llarga birikib, turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi fe'llar yoki ko'makchi fe'llar: *o'qib, chiqmoq, aytib bermoq*. Ko'makchi fe'llar turli modal ma'nolarni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida butunlay ko'makchiga aylangan (mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat ko'makchi sifatida qo'llanadigan) fe'l yo'q. Mustaqil fe'llar ko'makchi vazifasida ham qo'llanadi. Ko'makchi fe'l bog'lanib kelgan fe'l etakchi fe'l deyiladi: gapirib (etakchi) bermoq (ko'makchi). Ko'makchi fe'llar etakchi fe'lga asosan -i (b), -a, -y ravishdosh qo'shimchalari yordamida birikadi. Ko'makchi fe'l etakchi fe'lga ravishdosh orqali birikkanda, tuslovchi qo'shimchalar ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *yozib oldik*. Etakchi fe'lga ko'makchi fe'l grammatik shaklsiz (qo'shimchasiz) birikishi ham mumkin: *yozdi-oldi, aytди-qo'ydi*.

Boshla ko'makchi fe'li deyarli barcha fe'llar bilan qo'llana oladi.

v) fe'l va fe'l bo'lмаган so'zlar bilan qo'llanib, turli ma'nolar ifodalovchi, yordamchi vazifalarda qo'llanuvchi *edi, ekan, emish* (*emas, esa*) yordamchi fe'llari *to'liqsiz fe'l* hisoblanadi.

Fe'llar *o'timli* va *o'timsiz* bo'ladi. O'timli (ob'ektli) fe'llar ish-harakatning biror ob'ektga o'tganligini bildiradi va tushum kelishigidagi so'zni boshqaradi: ber (qalamni), o'rgan (hunarni), yoz (qoidani). O'timsiz (ob'ektsiz) fe'llar bunday xususiyatga ega bo'lmaydi: *kul, yugur, qayt*. Orttirma nisbat qo'shimchalari o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: *kuldir, yugurtir, qaytar*.

Fe'l nisbatlari (darajalari). Ish-harakatning sub'ekt (bajaruvchi) va ob'ekt (bajarilayotgan narsa)ga munosabati *fe'l nisbatlari* deyiladi. Bu munosabat maxsus shakllar orqali ifodalanadi. Fe'l nisbatlari 5 xil.

1. *Bosh* (aniq) nisbat-munosabat ifodalanmaydi: bildi, ko'rди, yuvdi, osdi, kiydi.
2. *O'zlik nisbat*-(i)n, -(i) l: yuvindi, kiyindi. Ish-harakatning bajaruvchida (bajaruvchining o'zida, o'z ustida) amalga oshirilishini ko'rsatuvchi nisbat.
3. *Majhul nisbat* -(i) n, (i) l: yuvildi, kiyildi. Majhul nisbatda bajaruvchi noma'lum bo'ladi.
4. *Orttirma nisbat*-dir (-tir), -gaz (giz, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz); -t, -iz, qir, -ar, -sat. Orttirma daraja ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilganini bildiradi. Orttirma nisbat so'zga birdan ortiq qo'shilishi mumkin: jo'nattirdi, yuvdirtirdi.
5. *Birgalik nisbat*-(i) sh. Ish-harakatning birgalikda bajarilishini ko'rsatadi: yuvishdi.

So'zga birdan ortiq nisbat qo'shimchasi qo'shilganda shu so'zning qaysi nisbatdaligi nisbat hosil qiluvchi oxirgi qo'shimchaga qarab belgilanadi: yuvintirishdi (birgalik nis.)

Fe'llar *bo'lishli* yoki *bo'lishsiz* bo'ladi. Bo'lishlilik harakatning tasdig'ini, bo'lishsizlik inkorni bildiradi. Bo'lishlilikning maxsus ko'rsatkichi yo'q. Bo'lishsizlik ko'rsatkichi-*ma*. Maqsad ravishdoshidan boshqa barcha fe'llar bo'lishsizlik ko'rsatkichini qabul qiladi. Harakat nomining bo'lishsiz shakli-*maslik*: ko'rmaslik.

Etakchi-ko'makchi fe'lidan tashkil topgan birikuvlarda-ma affiksi uch xil qo'llanadi: 1) etakchi fe'lga qo'shiladi: aytmay tur; 2) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: ayta ko'rma; 3) har ikkalasiga qo'shiladi: aytmay qo'yma.

Fe'l mayllari: Harakat bilan sub'ekt orasidagi bog'liqlikning voqelikka munosabati *fe'l mayllari* deyiladi. Fe'l mayllari 4 xil:

- 1) *aniq mayl* (xabar mayli, ijro mayli). Aniq maylning maxsus grammatik ko'rsatkichi yo'q: keldi, aytди, yozdi;

2) *buyruq-istak mayli* buyruq, xohish-istik, maslahat ma'nolarini ifodalaydi.

I-ay(ayin): boray(lik)

I-aylik: boraylik

II-(gin): bor(gin)

II-ing(iz): boringiz

III-sin: borsin

III-sinlar: borsin(lar)

3) *shart mayli* ish-harakatning bajarilish shartini bildiradi: -sa.

I- borsam

I- borsak

II- borsang

II- borsangiz

III- borsa

III- borsalar

- 4) *maqsad mayli* -moqchi bajaruvchining maqsadini bildiradi: bormoqchiman, bormoqchisan.

Fe'lning vazifaviy shakllari fe'lning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan shakllaridir. Ular uch xil: harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh.

1) **harakat nomi** fe'lning otga yondosh shaklidir. Harakat va holatning nomini bildiradi. Harakat nomi -(i)sh, -(u)v, -moq qo'shimchalari bilan hosil bo'ladi: kelish, borish, yozuv, saylov; kelmoq, bormoq. Harakat nomining uchala shakli ham bo'lishsizlik ko'rsatkichi -ma ni qabul qilmaydi. Harakat nomining bo'lishsiz shakli -maslik qo'shimchasi yordamida yasaladi; Aytish-aytmaslik-mening ishim. *Dildor Nizomjonga ko'rinnmaslikka harakat qilardi.*

-moq affiksi mumtoz asarlarda -mak shaklida qo'llangan: *yashamak siri*. -moq affiksi bilan yasalgan harakat nomi fe'lga yaqin turadi. Harakat nomi tuslanmaydi;

2) **sifatdosh** fe'lning sifatga yondosh (yaqin) shaklidir. Sifatdosh qo'shimchalari: -gan(-kan,-qan), -digan, -yotgan,-r(ar), -ajak, -gusi, -g'usi, -(u)vchi, kelgan (qiz), kulayotgan (odam), kelgusi (avlod), kutuvchi.

O'tgan zamon sifatdoshi: kutgan kishi.

Hozirgi zamon sifatdoshi: kutayotgan kishi.

Kelasi zamon sifatdoshi: kutadigan kishi.

-ajak,-gusi, -g'usi qo'shimchali sifatdoshlar qadimiy hisoblanadi.

Sifatdosh otlashadi: *Bilgan bilmagan ishlar, bilmagan barmog'in tishlar*.

Sifatdoshning bo'lishsiz shakli: -mas. *Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt*.

3) **ravishdosh** fe'lning ravishga yondosh shakli. Ish-harakatning belgisini bildirgan fe'l shakli *ravishdosh* deyiladi.

Ravishdosh qo'shimchalari; -(i)b, -a,-y,-gach(-kach,-qach),

guncha(-kuncha,-quncha); ko'rib, yoza olmoq, kelgach, borguncha.

-a, -y, -b(ib) yakka yoki takror holda qo'llanadi; o'ynab-o'ynab, aytta-ayta, o'ynay-o'ynay. -b(-ib), -a, -y qo'shimchali ravishdoshlar tuslanadi, ya'ni shaxs-son qo'shimchalarini oladi: yuboribdi, kutaman, o'qiyman. -gani(-kani,-qani), -gali, -guncha(-kuncha, quncha), -gach(-kach,-qach) qo'shimchali ravishdoshlar tuslanmaydi. -i(b) qo'shimchali ravishdoshning bo'lishsiz shakli-may,(-masdan) orqali hosil qilinadi. She'riyatda-mayin shakli ham uchraydi: *Qanotini qush qoqmayin uyg'onar el polvonlari*.

-gani orqali maqsad ravishdoshi yasaladi: Ko'rgani keldim. Maqsad ravishdoshining bo'lishsiz shakli yo'q.

Fe'l yasalishi. Fe'llar affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

1. **Affiksatsiya.** Bu usul yordamida fe'l bo'limgan so'z (ot, sifat, son, ravish, taqlidiy so'z, olmosh, undov)lardan fe'l yasaladi; fe'lidan fe'l yasalmaydi. Fe'l yasovchi affikslar quyidagicha:

-la; ishla, gulla, oqla. Eng faol affiks bo'lib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasay oladi.

-lan, -lash; zavqlanmoq, bahslashmoq.-lan bir vaqtning o'zida ham fe'l, ham o'zlik nisbatni; -lash esa fe'l va uning birgalik nisbatini hosil qiladi. Shunga qaramay rivojlanmoq, og'irlashmoq fe'llari bosh (aniq) nisbatda, deb qaraladi.

-(a)r; sifatdan fe'l yasaydi; ko'karmoq, yoshar.

-(a)y; sifat, ravish, otdan fe'l yasaydi; kengaymoq, ko'paymoq, qoraymoq, kuchaymoq.

-a; ot, sifatdan fe'l yasaydi; sanamoq, o'ynamoq, oshamoq, qonamoq, atamoq, qiynamoq.

-sira; ot va olmoshdan fe'l yasaydi; suvsiramoq, uyqusiramoq, sensiramoq, yotsiramoq.

-k(-ik), -q(-iq); kechikmoq, birikmoq, zo'riqmoq.

-ira yaltiramoq, qaltiramoq, miltiramoq, yarqira.

-i ot va sifatdan fe'l yasaydi; changimoq, boyimoq, tinchimoq.

2.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma fe'llar yasaladi. Qo'shma fe'llar qismlari qaysi so'z turkumlaridan iboratligiga ko'ra ikki xil yo'l bilan hosil bo'ladi: a) fe'l bo'Imagan so'zning fe'l bilan birikuvidan: *taklif qilmoq, qarshi olmoq, bayon bermoq*.

b) birdan ortiq yetakchi fe'lning birikuvidan: *sotib olmoq, olib kelmoq*.

Ravish

Ish-harakatning, holatning belgisini, belgining belgisini bildiruvchi so'z turkumi *ravish* deyiladi. Ravish morfologik jihatdan o'zgarmas bo'lib, asosan fe'llarga bog'lanib keladi, hol vazifasini bajaradi.

I. **Ravishlarning ma'no turlari** olti xil: holat ravishi, miqdor-daraja ravishi, o'ravishi, payt ravishi.

1. **Holat ravishi:** ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildiradi; qanday? qay holda?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'ladi. Holat (tarz) ravishlari: tez, sekin, yayov, piyoda, bekorga to'satdan, qo'qqisdan, astoydil, do'stona, qahramonlarga, yuzma-yuz, ochiqdan-ochiq, zo'rg'a.

2. **Miqdor-daraja ravishi:** harakat-holatning miqdoriy belgisini yoki belgining ortiqligini bildiradi: qancha? qanday? so'roqlariga javob bo'ladi: ko'p, mo'l, ancha, kam, bir oz, picha, hiyla, sal, juda, eng, g'oyat, nihoyat, o'ta.

3. **O'ravishi:** harakat va holatning bajarilish o'mini, harakat yo'nalgan tomonni bildiradi; qaerga? qaerda? so'roqlariga javob bo'ladi: uzoqda, pastda, tubanda, oldinda, undabunda, yuqorida, quyidan, yaqindan, orqadan, to'g'riga, to'g'ridan, yuqoriga, ilgari, olg'a.

4. **Payt ravishi** harakat va holatning bajarilish paytini bildiradi; qachon? qanchadan beri? so'roqlariga javob bo'ladi: hozir, boyta, bugun, kecha, avval, oldin, endi, erta, indin, saharlab, ertalab, doim, hali-beri.

5. **Maqsad ravishi** ataylab, jo'rttaga, qasddan.

6. **Sabab ravishi** noiloj, noilojlikdan, atayin.

II. Ravishlar belgini darajalab ko'rsata oladi; qiyosiy daraja:-*roq*. Biz nariroq surildik; *eng*: Bahorda eng avval bodom gullaydi.

-gina (-kina,-qina) affikslari orqali hosil qilingan shakllar harakat-holatning kuchsizlanganini yoki ta'kidlanganligini anglatadi: U sekingina shivirladi.

III. Ravish yasalishi quyidagicha:

1) *affiksatsiya usuli* bilan ot, sifat, olmosh kabi turkum so'zlaridan ravish yasaladi.

-cha: qisqacha, yangicha, o'zicha, boshqacha, eskicha, shoshgancha, bolacha, yigitcha, yashirinchcha, atroflicha, o'zimcha.

-larcha; qahramonlarcha, o'rtacha, qardoshlarcha.

-chasiga; yangichasiga, toshkentchasiga, eskichasiga.

-ligicha; xomligicha, tirikligicha, butunligicha.

-lab; ertalab, saharlab, ko'plab, yaxshilab, kilolab, tonnalab.

-ona; do'stona, fidokorona, g'olibona, xolisona.

-an: taxminan, umuman, majburan, asosan...

-lay: (-layin); butunlay, tiriklay, xomlayin.
 -in; yashirin, oldin.
 -inch; ko'pincha, aksincha
 -chang; ko'ylakchang, kovushchang.
 -dek, -day; tog'dek, otday, lochinday, avvalgidek.
 -iga (-siga); baravariga, qatorasiga, yoppasiga.
 -aki; yuzaki, yodaki, og'zaki.

2) *kompozitsiya usuli* bilan qo'shma ravishlar yasaladi. Quyidagi qo'shma ravishlar qo'shib yoziladi: *birpas, birmuncha*. Quyidagi qo'shma ravishlar ajratib yoziladi: *har doim, har vaqt, har qachon, har kuni, har zamon (da), hech vaqt, hech qachon, bir oz, bir nafas, bir vaqt, bir talay, bir qancha*.

Yuzma-yuz, so'zma-so'z, uchma-uch, dam-badam, qo'lma-qo'l, birma-bir, quruqdan-quruq, to'g'ridan-to'g'ri, kundan-kunga, o'z-o'zidan kabi so'zlar ham ravish hisoblanadi.

YORDAMCHI SOZLAR

Yordamchi so'zlar turkumiga *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* kiradi. Yordamchi so'zlar mustaqil (leksik) ma'no bildirmaydi, faqat grammatik ma'no iodalash uchun xizmat qiladi.

Ko'makchi

Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar *ko'makchilar* deb ataladi. Ko'makchi o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ko'makchi ikki xil bo'ladi: 1. Sof ko'makchi 2. Ko'makchi vazifasidagi so'z (funksional ko'makchi).

1. *Sof ko'makchi* mustaqil ma'no anglatmaydi, kelishik affikslariga yaqin turadi. Sof ko'makchilar quyidagicha: a) asl ko'makchilar: bilan, uchun, qadar, sari, sayin; b) ot ko'makchilar: burun, ilgari, keyin, boshqa, tashqari; v) fe'l ko'makchilar: qarab, ko'ra, qaraganda, yarasha, boshlab.

Bosh kelishikdagi so'zlar (ba'zan qaratqich kelishikdagi olmosh) bilan qo'llanadigan so'zlar (ko'makchilar): bilan, uchun, kabi, singari, yanglig' (poetik uslubga xos), sayin, orqali, sari, uzra, sababli, bo'yli, orqali, tufayli, chog'li, osha, bo'ylab, bo'yicha, ichra, degan, chamasi, haqda (to'g'rida, xususda), haqida, to'g'risida, holda, yo'sinda.

Jo'naliш kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: tomon, qadar, ko'ra, dovur, qarshi, qarab, yarasha, qaraganda, muvofiq. binoan, qaramasdan, qaramay, doir, asosan, qarata.

Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: so'ng, keyin, boshqa, tashqari, bo'lak, ilgari, burun, avval, beri, buyon, ko'ra.

2. Ko'makchi vazifasidagi so'zlar: old, o'rta, yon, orqa, tomon, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, yoqa, qosh.

Bog'lovchi

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo'laklarini bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar *bog'lovchi* deyiladi. *Bog'lovchilar* qo'llanishiga qarab yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilarga ajratiladi.

Yakka bog'lovchilar: va, hamda, lekin, ammo, biroq. -ki (-kim), chunki, agar, toki, balki, go'yo, basharti, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar.

Takroriy bog'lovchilar: dam.., dam..., ba'zan..., ba'zan, ham.., ham, bir.., bir, yoki..., yoki, yo.., yo, goh.., goh, xoh.., xoh.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) teng bog'lovchilar;
- 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

I. *Teng bog'lovchilar* grammatik jihatdan teng bo'lган gap bo'laklarini, teng munosabatlι sodda gaplarni bog'laydi. Teng bog'lovchilar a) uyushiq bo'laklarni b) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Teng bog'lovchilar quyidagicha:

1. Biriktiruv bog'lovchilari: va, hamda (bilan, ham, -u,-yu,-da).
2. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki (-u,-yu).
3. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoxud, yoki, yoinki, goh..., goh, ba'zan...,ba'zan, xoh..., goh..goh, dam..., dam, bir..., bir.

II. *Ergashtiruvchi bog'lovchilar* ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi, tobelik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagicha:

1. Aniqlov bog'lovchilari: ya'ni,-ki,-kim
2. Sabab bog'dlovchilari: chunki, shuning uchun, negaki, zeroiki, nainki.
3. Shart (va to'siqsizlik) bog'lovchilari: agar, agarda,basharti, agarchi (garchi), garchand, modomiki.
4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki.

Yuklama

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z *yuklama* deyiladi. Yuklama tuzilishi jiihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar:-mi,-chi,-a (-ya),-da,-u (-yu),-oq (-yoq)-gina (-kina,-qina); b) so'z holidagi yuklamalar: axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki.

Affiks holidagi yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi; faqat -mi,-oq (yoq),-gina yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi: borasanmi?

Yuklama turlari

1. So'roq va taajjub yuklamalari:-mi,-chi,-a,-ya, nahot, nahotki.
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari:-da,-u (-yu),-ku,-oq (yoq), hatto, hattoki, axir.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina,-gina (-kina,-qina).
4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq.
5. Guman yuklamasi: -dir.
6. Inkor yuklamasi: -na..., na

Faqat yuklamasi o'mrida *yolg'iz* so'zi qo'llanishi mumkin: *Yolg'iz o'zi aytmaganiga achindi*.

MODAL SO'ZLAR

Fikrning voqelikka munosabatini bildirgan so'zlar modal so'zlar deyiladi. Modal so'zlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Fikrning aniqligini, realligini tasdiqlovchi modal so'zlar: albatta, shubhasiz, so'zsiz, shaksiz, haqiqatdan, darhaqiqat.
2. Fikrning taxminligini, gumanligini, noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog'i.
3. Fikrning o'zaro munosabatini va tartibini bildiradi(yoki fikrning oldingi fikrga bog'liqligini bildiradi): demak, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo. Demak, xullas, masalan, jumladan, umuman, chunonchi kabi modal so'zlar fikrni umumlashtirish, xulosa bildirish, dalil keltirish ma'nolarini bildiradi. Avvalo, dastlab,.. kabilar fikrning tartibini bildiradi.

4. Modallikni ifodalarydi: lozim, mumkin, shart, zarur.
5. Tasdiqni bildiradi: bor, mayli, xo'p, ha.
6. Inkorni bildiradi: yo'q, aksincha.
7. Afsuslanish, ajablanishni bildiradi: afsuski, attang, ajabo.

Modal so'zlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

- a) diologlarda so'z-gap vazifasida(-ha); b) kirish so'z vazifasida. Kirish so'z vazifasida turli so'z turkumlari, jumladan modal so'z kelishi mumkin. Modal so'zlar quyidagi so'z turkumlari bilan bog'langan; shular asosida shakllangan.
- a) ot bilan : xaqiqatdan, darxaqiqat, chamasi, aftidan, afsus.
- b) sifat bilan: shubhasiz, so'zsiz, shekilli.
- v) fe'l bilan: demak, demoqchi.
- g) ravish bilan: albatta, avvalo, ayniqsa.
- d) yordamchi so'zlar bilan: balki, koshki, haytovur.

UNDOV SO'ZLAR

His-hayajonni, xitobni bildirishga xizmat qiladigan so'zlar **undov so'zlar** deyiladi: undovlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) leksik (lug'aviy) ma'no anglatmaydi; 2) gap bo'lagi vazifasida kelmaydi va gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi; 3) undovda ohang muhim o'rinn tutadi; 4) kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik ma'nolarni bildirmaydi.

Undovlar tuzilishiga ko'ra: a) sodda: (oh, uh); b) tarkibli: (evo, bay-bay, eh, uh, hay-hay) bo'ladi.

Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1.His-hayajon undovlari: oh, uh, e, be, voy, o'hu, ehe, a, o, obbo. 2.Buyruq-xitob undovlari: a) chaqiriq undovlari: hey, hoy, hay, ey. hayvon-parrandalarni haydash-chaqirish undovlari: qurey-quarey, xo'sh-xo'sh. b) buyruq undovlari: ts, sh-sh-sh, tiss..s. v) tabrik, tashakkur, xayrashuv undovlari: rahmat, marhamat, hormang, balli, ofarin, qulluq.

Undov otlashadi: *Oh-voyingni hech kim eshitmaydi.*

TAQLID SO'ZLAR

Taqlid so'zlar ikki xil:

1. Holatga (obrazga) taqlidni bildiruvchi so'zlar: yalt, yarq, milt-milt, bilq, dir-dir.
2. Tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar: tars, turs, chars, gumbur-gumbur.

Taqlidiy so'zlar tuzilishiga ko'ra yakka, takror, juft holda bo'ladi (yalt,qars-qars, chars-churs, taka-tum-tak).

Taqlid va undov so'zlari nomlash xususiyatiga ega emas. Taqlid so'zlardan ot, fe'l va boshqa turkum so'zlari yasaladi: shaq-ildoq, hiq-ildoq, yaltira-q, yiltira-q, miltira-q.

Taqlid so'zlar gapda asosan, aniqlovchi, hol vazifasida keladi. Otlashganda esa quyidagi vazifalarni bajaradi: a) ega vazifasida: *Qo'yning "ba-a"si eshtildi. Musichaning g'uv-g'uv eshitildi.* b) to'ldiruvchi: *O'z g'uv-g'uviga o'zi shaydo bo'lgan guzarga yaqin goldi.*

SINTAKSIS

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi bo'lib, morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'z turkumlari, sintaksisda so'z birikmalari, gap turlari o'rganiladi, Grammatika grekcha so'zdan olingan bo'lib, "o'qish va yozish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Sintaksis ham grekcha so'z bo'lib, "tuzish" demakdir.

So'z birikmasi

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan tobe munosabat asosida bog'lanishi *so'z birikmasi* deyiladi. So'z birikmasi gapdan quyidagicha farqlanadi.

1. So'z birikmasi kengaygan ma'no ifodalaydi. Gap esa fikr bildiradi. Shu bois, so'z birikmasi tugallanmagan ohang bilan, gap tugallangan ohang bilan aytildi.
2. So'z birikmasi ergash so'z va bosh so'zdan iborat bo'ladi. Gapda esa bosh va ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etadi.

Mustaqil so'zlar ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib, so'z qo'shilmasi hosil qiladi. So'z qo'shilmasidagi so'zlar bog'lanishi ikki xil bo'ladi a) teng bog'lanish b) tobe bog'lanish.

Teng bog'lanishli so'z qo'shilmasida so'zlar o'zaro teng munosabatda bo'ladi: ezgulik va yaxshilik. Tobe bog'lanishli so'z qo'shilmasi (so'z birikmasi)da bir so'z boshqasiga tobe bo'ladi: bebaaho xazina, umidvor nigoh.

Ega va kesimning bir-biriga bog'lanishi so'z birikmasi hisoblanmaydi.

So'z birikmasida bosh so'z va ergash so'z quyidagicha farqlanadi: a) bosh so'zning ma'nosini izohlab, ravshanlashtirib kelgan so'z ergash so'z, ma'nosini izohlanayotgan so'z esa bosh so'z hisoblanadi. b) oldin kelgan so'z ergash so'z, keyin kelgan so'z bosh so'z bo'ladi; v) bosh so'zdan ergash so'zga so'roq beriladi: ko'rkar xiyobon-qanday xiyobon? g) kelishik qo'shimchalari ergash so'z tarkibida, egalik qo'shimchasi bosh so'z tarkibida bo'ladi: mening maqsadim.

Bosh so'z qaysi so'z turkumiga mansubligiga qarab, so'z birikmasi ikki xil bo'ladi: 1. Otli birikma 2. Fe'lli birikma.

1. Bosh so'z ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: nordon anor, asalday shirin, fidokorlikda birinchi, yig'ilganlarning barchasi, topshiriqni bajarish.

2. Bosh so'z fe'l va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, fe'lli birikma hisoblanadi: kecha kelding, kelajakni o'yab, erta kelgan.

Ergash so'zning bosh so'zga birikish usullari

Ergash so'z bosh so'zga quyidagi usullar orqali birikadi: boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

1. *Boshqaruv*. Bosh so'zning talabi bilan ergash so'zning ma'lum grammatik vositani olishi *boshqaruv* deyiladi. Boshqaruv ikki xil bo'ladi: a) kelishik yordamidagi boshqaruv:

Bosh kelishik - (bitishuv)

Qaratqich kelishik -ning (moslashuv)

Tushum kelishik -ni (boshqaruv)

Jo'nalish kelishigi -ga-ka,-qa (boshqaruv)

O'rinn-payt kelishigi -da (boshqaruv)

Chiqish kelishigi -dan (boshqaruv)

Boshqaruv: olmani terish, ko'chaga chiqmoq, maktabda o'qimoq, ishdan qaytmoq; b) ko'makchi yordamidagi boshqaruvda ergash so'z bosh so'zga ko'makchi yordamida birikadi: kasb haqida insho, ko'prik orqali o'tish. Boshqaruvda ayrim hollarda grammatik vosita ifodalanmasligi mumkin: kitob o'qish.

2. *Moslashuv*. Bosh so'z bilan ergash so'zning shaxs-sonda mosligi *moslashuv* deyiladi. Moslashuvda bosh so'z bilan ergash so'z qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida birikadi: dalaning fayzi.

3. *Bitishuv*. Ergash so'zning bosh so'z bilan grammatik vositasiz, faqat ma'no jihatdan birikishi *bitishuv* deyiladi. Bitishuvda so'zlar tartib va ohang yordamida birikadi. Bunda ergash so'z avval, bosh so'z keyin keladi; go'zal bog'lar. Bitishuvli birikmada so'zlar o'rni o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi: *go'zal bog'lar-bog'lar go'zal*.

Birga ishlamoq, tezda kelmoq, to'satdan baqirmoq, zimdan kuzatmoq, qo'qqisidan boshlamoq kabi birikmalar ham bitishuv munosabatiga asoslangan. Ulardagi qo'shimchalar kelishik ma'nosini yo'qotgan.

GAP

So'zlar vositasida anglatilgan fikr *gap* deyiladi. Muomala vositasining eng kichik birligi gap hisoblanadi. Gap nisbiy tugallangan fikrni bildiradi. Gap quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Gap muomala vositasining eng kichik, asosiy birligidir.
2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi.
3. Grammatik shakllangan bo'ladi (bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat).
4. Tugallangan ohang bilan aytildi.

Gap quyidagicha tasniflanadi.

I. Ifoda maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: darak gap, so'roq gap, buyruq gap.

1. **Darak gap** xabar, darak mazmunini bildiradi. Yozuvda darak gapning oxiriga nuqta qo'yiladi: Majlislar zaliga talabalar yig'ilishdi.
2. **So'roq gap** so'zlovchi o'zi bayon qilgan fikriga suhbatsoshining munosabatini bilishga qaratilgan bo'ladi. So'roq gaplar quyidagicha shakllanadi; a) so'roq olmoshlari yordamida: O'sha vaqtida necha yoshda eding? b) -mi, -chi, -a, -ya (so'roq yuklamalari) ishtirokida: Manzura kelmadimi? v) so'roq ohangi yordami bilan; -Uyga mehmon keldi. -Mehmon keldi?

So'roq gaplar asosan dialoglarda (birdan ortiq kishining o'zaro muloqotida) qo'llanadi. So'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. So'roq gaplarning ba'zi ko'rinishlari javob talab qilmaydi; bunday gaplarning o'zida yashirin tarzda javobi bo'ladi. Bunday so'roq gaplar *ritorik so'roq gaplar* deyiladi. Ritorik so'roq gaplar mazmuniga ko'ra ikki xil:

a) tasdiq mazmunidagi ritorik so'roq gaplar. Bunday gaplarning berilishi inkor shaklida bo'ladi: Onani kim sevmaydi? (Onani hamma sevadi);

b) inkor mazmunidagi ritorik so'roq gaplar. Bunday gaplar tasdiq shaklida bo'ladi: Tinch uyda janjal bo'lishini kim istaydi? (Tinch uyda janjal bo'lishini hech kim istamaydi).

3. **Buyruq gap** buyruq, undash, taklif, maslahat, chaqiriq, iltimos, yalinish mazmunida bo'ladi: Yomon kunga qo'yma, o'rtoqjon, Toki yig'ib olayin darmon.

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Buyruq gaplarning kesimi asosan buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi. Buyruq gaplarning oxiriga ko'pincha undov, ba'zan nuqta qo'yiladi.

II. Gap emosionallikka ko'ra (his-tuyg'uni ifodalashiga ko'ra) his-hayajon gap (undov gap), his-hayajonsiz gaplarga ajraladi. His-hayajonsiz gaplar darak, so'roq, buyruq ohangi bilan aytildi. His-hayajon gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. His-hayajon gaplar eh, oh, e, uh, o, uf, obbo, ey kabi undov so'zleri orqali hosil qilinadi. *Eh, tabiat qanday go'zal!*

III. Gap modallikka ko'ra yoki voqelikka munosabatiga ko'ra tasdiq va inkor mazmunida bo'ladi. Tasdiq va inkor tilda turli vositalar yordami bilan ifodalanadi (leksik, morfologik, sintaktik, intonasion vositalar). Gapning barcha turi tasdiq yoki inkor xarakteriga ega bo'ladi; Bodom gulladi.-Yomg'ir yog'madi. Qo'shiq aytasizmi?-Qo'shiq aytmaysizmi?

IV. **Gaplar tuzilishiga ko'ra** ikki xil bo'ladi: sodda gaplar va qo'shma gaplar.

GAP BO'LAKLARI

Sodda gaplar grammatik asosiga(ega va kesim ishtirokiga) ko'ra ikki xil bo'ladi; ikki bosh bo'lakli gap va bir bosh bo'lakli gap.

1.*Ikki bosh bo'lakli gap.* Gapning grammatik asosida ikki xil bosh bo'lak, ya'ni ega va kesim ishtirok etsa, bunday sodda gap ikki bosh bo'lakli hisoblanadi.

Gap bo'laklari gapdagi vazifasi, o'rniga qarab *bosh bo'laklar* (ega va kesim) va *ikkinchi darajali bo'laklar* (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ga ajratiladi. Ega va kesim ikki bosh bo'lakli gapning grammatik asosini tashkil etadi.

Ega. Gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, boshqa bo'laklarga grammatik tobe bo'limgan bo'lak egadir. Ega kim?, nima?, qaer? so'roqlarini oladi. Ega bosh kelishikda bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

a) ot bilan: Daraxt shoxlari egildi.

- b) olmosh bilan: U menga yoqmaydi.
- v) otlashgan so'zlar bilan: To'g'ri o'zadi, egri to'zadi.
- g) ibora bilan: Qildan qiyiq axtarish uning odati bo'lib kelgan.

Kesim. Ega haqidagi xabarni bildirib, unga grammatik tobe bo'lган bo'lак kesim deyiladi. Kesim quyidagicha ifodalanadi:

- a) fe'l bilan: Mehnat insonni ulug'laydi.
- b) sifat bilan: Voqeadan hamma xabardor.
- v) ot, son, olmosh, ravish bilan: Mening akam student; Ikki o'n besh-bir o'ttiz. Bularning bari sizniki. Dangasaning vaji ko'p.

Kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab ikki xil bo'ladi: fe'l-kesim, ot-kesim.

Fe'l-kesim fe'l yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi, fe'l-kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *sodda fe'l-kesim*, *murakkab fe'l-kesim*. Sodda fe'l-kesimlar sof fe'l shakllari bilan ifodalanadi: Maktabni tugatdik. Murakkab fe'l-kesim ikki so'zdan iborat bo'ladi: xatni yoza oladi. Mevalar pisha boshladi. Bu fikrni hammaning oldida aytdi-qo'ydi.

Ot-kesim fe'l bo'lмаган so'zning kesim vazifasida kelishidir. Ot-kesim ham sodda va murakkabga ajratiladi. Bir so'z bilan ifodalangan kesim sodda ot-kesim deyiladi: *Yoshlik-inson umrining oltin davri*.

Murakkab ot-kesim quyidagicha tuziladi: a) ot,sifat, son, olmosh, ravish hamda bo'lmoq fe'l yoki to'liqsiz fe'lдан iborat bo'ladi: Mehnatning noni shirin bo'ladi. Uning maqsadi shu edi.

b) *yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, lozim, kerak* kabi so'zlar hamda bo'lmoq fe'l yoki to'liqsiz fe'lдан iborat bo'ladi: Sharpa bir zumda yo'q bo'ldi. Suyanadigan hech kimi yo'q edi.

v) Harakat nomi hamda kerak, zarur kabi so'zlardan iborat bo'ladi: O'quvchi intizomli bo'lishi kerak.

Ot-kesimlar tarkibida **bog'lama** ishtirok etadi. Fe'l bo'lмаган kesimni ega bilan bog'lashda ishtirok etuvchi so'zlar *bog'lama* deyiladi. *Bo'l, qil, edi, ekan, emish, -dir*(kesimlik qo'shimchasi) bog'lama deyiladi. Birovlarni qarg'ash yoki so'kish gunohdir. Odam mehnat bilan odam bo'ladi. (odamdir). Sanamoq, hisoblamoq so'zlari ham ba'zan bog'lama sifatida qo'llanadi: O'g'lim a'lochi hisoblanadi. 8 dekabr Konstitutsiya kuni hisoblanadi.

Ega va kesim shaxsda hamma vaqt o'zaro mos bo'ladi. Juda kam hollarda " Shularni ko'rib hayron qolasan kishi" tarzidagi ega va kesim shaxsda moslashmagan gaplar uchraydi: ega (kishi) III shaxsda, kesim esa II shaxsda.

Fe'l - kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi: men bordim, biz keldik. Fe'l kesim III shaxsdagi ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi:

a) shaxsni bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: Nodir o'rnidan turdi. Dehqonlar chigit ekdilar.

b) ko'plikdagi ega shaxs (kimsa) ni emas, jonsiz voqelikni, narsa-buyumni bildirsa, fe'l-kesim ega bilan sonda moslashmaydi: O't-o'lanlar bahor kelishi bilan ko'karadi;

v) ot-kesim ko'pincha ko'plikdagi ega bilan moslashmaydi: Majlisda Nazira aya, Salima opa va Alijon akalar bor edi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bosh bo'laklarga tobe bo'lib, ularni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi.

Gapdag'i biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi. To'ldiruvchi asosan kesimga bog'lanadi. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalaniб, kimni?, nimani?, qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchi ish-harakatga aloqador bo'lган narsa-buyum, kimsani bildiradi (ish-harakatni to'g'ridan to'g'ri o'tgan narsa-buyum yoki kimsani bildiradi). Kechagi yig'inda Abdullani ko'rdim. To'ldiruvchi turdosh ot bilan ifodalanganda kelishik qo'shimchasi ba'zan tushib qoladi. Talabalar paxta terishdi.

Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, o'rн-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olib, kimga?, nimaga?, kimdan?, nimadan?, kimda?, nimada?; ko'makchilar bilan kelib, kim bilan?, nima

bilan?, kim haqda?, nima haqda? so'roqlariga javob bo'ladi. Farzandidan umidi katta edi. Yaxshiga yondash, yomondan och. Do'stlik haqida insho yozdik.

Gapdag'i biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak *aniqlovchi* deyiladi: Qattiq sovuq, mayda qor yog'ib turgan edi. (A.Q), Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. (A.Q.).

Aniqlovchi ikki xil bo'ladi: 1. Sifatlovchi-aniqlovchi. 2. Qaratqich aniqlovchi.

Sifatlovchi-aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerdagi? so'roqlariga javob bo'ladi. Sifatlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak *sifatlanmish* deyiladi: qizil olma. Sifatlovchi va sifatlanmish bitishuv yo'li bilan bog'lanadi: Notanish kishi boshini ko'tarib unga qaradi. (S. A.).

Ba'zan sifatlovchi birikma holida kelishi mumkin: Erta bahorda sepilgan bug'doy ham maysa bo'ldi. *Erta bahorda sepilgan* sifatdoshli birikmasi sifatlovchi vazifasida kelgan.

Qaratqich-aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich tomonidan aniqlangan bo'lak *qaralmish* deyiladi. qaralmish qaratqich bilan moslashuv yo'li orqali birikadi. Uyning ichi bo'm-bo'sh edi. Qaratqich ba'zan belgisiz(kelishik qo'shimchasisiz) kelishi mumkin: mакtab kutubxonasi. Qaratqich-aniqlovchi qo'llanmasligi ham mumkin: Bizning maqsadimiz ulug'dir. *Maqsadimiz ulug'dir*.

Izohlovchi aniqlovchining bir ko'rinishi bo'lib, bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlaydi. Ya'ni izohlovchi ot bilan ifodalanadi. Izohlovchi izohlagan ot *izohlanmish* deyiladi.

Izohlovchi-izohlanmish ko'pincha chiziqcha bilan yoziladi: mexanik-haydovchi, xipchin-soch, ona-Vatan. Ayrim hollarda chiziqcha qo'yilmaydi: shifokor Muslimov, "Turkiston" gazetasi, "Farhod va Shirin" dostoni. Bunday izohlovchi shaxs oti bilan ifodalansa, qo'shtirnoqqa olinmay, *nomidagi, nomli* so'zlari bilan birga qo'llanadi: Oybek nomidagi jamoa xo'jaligi.

Kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak *hol* deyiladi. Hol ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

1. **O'rın holi** qaerda? qayoqqa? qaerdan? so'roqlariga javob bo'ladi. Ot turkumidagi so'z, o'rın ravishi ko'p hollarda gapda o'rın holi vazifasida keladi: Sakson ota orqadan qarab qoldi. (O.)

2. **Payt holi** qachon?, qachongacha?, qachondan beri?, qachondan buyon?, qayvaqt? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Payt holi asosan ot, payt ravishi, payt ravishdoshi bilan ifodalanadi. Bugun konsertga boramiz. Bir ozdan keyin dahliz eshigi ochildi. (M.Sh)

3. **Miqdor holi** qancha?, qanchalab?, nechalab?, necha marta? so'roqlariga javob bo'ladi: Oz-oz o'rganib dono bo'lur.

Miqdor holi asosan miqdor-daraja ravishi, son hamda hisob so'zlari bilan ifodalanadi. Onasi ishdan ancha kech qaytdi. Choydan bir qultum ho'pladi. (O)

4. **Vaziyat (tarz, ravish) holi** qanday?, qay holda?, qay vaziyatda?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'ladi. Vaziyat holi asosan ravish, ravishdosh, ot, sifat, taqlid so'zlar, ibora bilan ifodalanadi: Saida xayrashib, orqasiga qaramay jo'nab ketdi. (A.Q). Vaziyat holi ba'zan ish-harakatning bajarilishini o'xshatish yo'li bilan anglatib,-dek,-day,-larcha qo'shimchalarini olgan so'zlar bilan ifodalanadi. Shaftolilar egilgan, go'yo salom berganday. (P.M)

Ba'zan vaziyat holi yoyiq holda keladi. To'la singlisining shartiga rioya qilib, to'g'ri uysa jo'nadi. (M.Sh). Bu gapda **singlisining shartiga rioya qilib** ravishdoshli so'z birikmasi yoyiq vaziyat holi vazifasida kelgan.

5. **Sabab holi** nima sababdan?, nima sababli?, nima uchun?, nimaga?, nega? so'roqlariga javob bo'ladi. Odil uyaganidan qizarib ketdi. (O.). Sabab holi -lik,-sizlik,-ganlik qo'shimchali chiqish kelishigidagi otlar, shuningdek, sifatdoshdan keyin -dan qo'shimchasini keltirish bilan;

-gani, -ganligi qo'shimchali so'zlardan keyin sababli, tufayli, uchun so'zlaridan birini keltirish bilan ifodalanadi: Shodligidan qul Tarlon, To'xtamadi yig'idan. (H.O); Majolsizlikdan kiyimlari joylangan sumkani ham tashlab, yuqori qavatga ko'tarildi. Qizi kelmaganidan ancha ranjidi.

6. **Maqsad holi** jo'nalish kelishikdagi so'z yoki harakat nomidan keyin *uchun* ko'makchisini keltirish bilan; fe'lidan so'ng *uchun,deb* so'zlarini keltirish bilan, maqsad ravishdoshi bilan ifodalanadi.

Gap bo'laklari tartibi ikki xil bo'ladi: *odatdag'i tartib, o'zgargan tartib*. Odatdag'i tartibda gap bo'laklari tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Ega (aniqlovchisi bilan) avval, kesim gap oxirida keladi; Ilg'or yoshlar to'plandilar.
2. Payt holi egadan oldin keladi: Kecha yosh havaskorlar to'plandilar.
3. To'ldiruvchilar (aniqlovchisi bilan) egadan keyin keladi. Jamoa a'zolari xorijiy mehmonlarga bayram chiqishlarini namoyish etdi.
4. Vaziyat holi kesimdan avval keladi: Uzoqdan daryo mavjlanib ko'rinar edi.

Gap bo'laklari tartibining o'zgarishi *inversiya* deyiladi. Inversiya ma'lum maqsadlarda amalga oshiriladi: O'zgargan tartib-inversiya asosan she'riyatda uchraydi: Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbegim.

Ma'no urg'usi gap bo'laklari tartibining o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Biz konsertga kecha bordik. Ma'no urg'usini olgan bo'lak kesimdan oldin joylashadi.

Ikki bosh bo'lakli gaplar ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokiga ko'ra yig'iq va yoyiq gaplarga ajratiladi. Faqat bosh bo'laklar (ega va kesim)dan iborat gap yig'iq gap deyiladi. Talabalar qatnashdilar. Ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gap deyiladi.

To'liq gap va to'liqsiz gap

To'liq gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar to'liq holda ishtirok etadi. To'liqsiz gap esa nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan, ayrim bo'laklari, tushirilgan gapdir.

-Siddiqjon nimalar haqida so'zladi?

-Maktab tajriba uchastkasi haqida.

Birinchi gap to'liq gap, ikkinchi gap to'liqsiz gapdir. Ikkinchi gapda ega va kesim tushirilgan. To'liqsiz gaplar suhabatda, so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ko'p qo'llanadi. Xalq maqollarining ba'zilari to'liqsiz gap shaklida bo'ladi: Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod.

Gapning uyushiq bo'laklari

Gapning uyushiq bo'laklari bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapdagi bir bo'lakka bog'langan bo'laklardir. Uyushiq bo'laklar teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanadi. Yo'lida yosh, keksa, yupun odamlar ketib borardi. Nodir va Salomat biznikiga kelishdi. Uyushiq bo'laklar asosan bir so'z turkumiga oid so'zlar bilan ifodalanadi. Gap bo'laklarining ta'kidlash-kuchaytirish maqsadidagi takrori uyushiq bo'lak hisoblanmaydi. Bunda hamma, hamma narsa bor.

Gapning uyushiq bo'laklarida son, egalik, kelishik, qo'shimchalari, uyushiq bo'laklarning oxirgisiga yoki uyushiq bo'laklarning har biriga qo'shilishi mumkin.

Uyushiq bo'lakli gaplarda so'zlarni jamlovchi, umumlashtiruvchi bo'lak ham ishtirok etishi mumkin. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklar bilan bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari, ayrim otlar umumlashtiruvchi bo'lak vazifasida keladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Insonda hamma narsa: yuzi ham, kiyimi ham, odobi ham go'zal bo'lmog'i kerak*.

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan oldin tire qo'yiladi. Insonda yuzi ham, kiyimi ham, odobi ham-hamma narsa go'zal bo'lmog'i kerak.

Uyushiq bo'laklar orasida vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire ishlatiladi.

Sanash ohangi bilan aytigan, zidlov bog'lovchilar, takrorlanib qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar bilan bog'langan uyushiq bo'laklar orasiga

vergul qo'yiladi. Uyushiq bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Uyushiq va uyushmagan aniqllovchilar

Aniqllovchilar uyushiq va uyushmagan bo'lishi mumkin. Uyushgan: *Yo'lda ba'zan oq, pushti, sariq va qizil gullar uchraydi. (Yo.Sh.)*

Uyushmagan sifatlovchi aniqllovchilar sifatlanmishning turli jihatlariga oid belgilarini anglatadi: *Mart oyidan mayin yoqimli shabada esa boshlaydi.*

Gapning ajratilgan izoh bo'laklari

O'zidan oldingi gap bo'lagini izohlagan bo'lak ajratilgan *izoh bo'lak* deyiladi. Ajratilgan bo'laklar vergul va tire bilan ajratib ko'rsatiladi. Izoh bo'laklari, asosan, ikki tomondan vergul bilan ajratiladi. Navbatchi hamshira, sochi oq semiz xotin, Sadbarning kechasi ham kelganini eslatdi. (As.M.) Izoh bo'laklarning o'zida vergul bo'lsa, bunday bo'laklar ikki tomondan tire bilan ajiratiladi: Endi odamlar-otliq, piyoda, yosh-qari-uchray boshladi.(O).

Bosh kelishikdagi kishilik olmoshini izohlagan bo'laklardan avval tire, keyin vergul qo'yiladi: Men-Fozilova Fotima, Farg'ona viloyati maktabalaridan birida o'qiymen.

Yozma nutqda izoh bo'lakning oldiga tire, izoh bo'lakdan keyin vergul qo'yiladi: Otam-Ilyos Tohirov, zavodda ishchi.

Ajratilgan to'ldiruvchi: o'zidan oldingi to'ldiruvchini izohlaydi. Izoh to'ldiruvchilar o'zidan oldingi to'ldiruvchi bilan bog'lovchi vazifasida qo'llanadigan ya'ni, shu jumladan, xususan, ayniqsa kabi so'zlar bilan ham qo'llanadi: Agar oyim, ya'ni Sarvinoz Madumarova, rozi bo'lsa, meni, ya'ni Akrom Madumarovni, milisiya kapitani o'rtoq Ergashov o'ziga ishga olmoqchi ekan (X.T) ;

Maktabimizda, bichuv-tikuv to'garagidan tashqari, musiqa va ijodkorlar to'garagi ham ishlab turibdi gapidagi ajratilgan bo'lak ham to'ldiruvchi hisoblanadi.

Ajratilgan aniqllovchi o'zidan oldingi qaratqich-aniqllovchini yoki sifatlovchi-aniqllovchini izohlab kelgan bo'lakdir. Oshpazning, Mamatqulovning, qo'li gul ekan (gazet). Ajratilgan izoh sifatlovchi aniqlanmishdan keyin keladi: Kamzul kiydim, tirinka. Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, eshik oldida dag'-dag' titrardi. (A.Q)

Ajratilgan hol o'zidan oldingi holni izohlab keladi. Yozda, qovun pishig'ida, havo kechasi ham dim bo'ladi. (gazet) Asosan payt va o'r'in hollari ajratiladi. Uning qo'lidan ushlab ichkariga, devonga, boshladi (A.Q)

Nutqimizda *Nima eksang shuni o'rasan; Bu kitobni qaytarish sharti bilan beraman* kabi shart holi ishtirokidagi gaplar; *Nigora darsga qatnashmagan bo'lsa ham vazifani bajarib keldi* gapidagi kabi to'siqsiz hollar ham qo'llanadi. Bunday gaplarda holdan keyin to'xtalish bo'lsa ham vergul qo'yilmaydi. Dehqon bo'lsang shudgor qil. (Maqol) O'ynab aytsang ham o'ylab ayt. (Maqol) Hurmat qilsang hurmat ko'rasan.(Maqol) Topsam aytaman. Ishlasang tishlaysan (Maqol) Izlasang imkon topasan.

Undalma

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'z *undalma* deyiladi. Undalma, odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Bahor, ketma bizning bog'lardan! (O) Karim Sodiqovich, majlis ertaga bo'ladi.

Bir so'z bilan ifodalangan undalma yig'iq undalma hisoblanadi. Uyga kir, Homid. So'z birikmasi bilan ifodalangan undalma yoyiq hisoblanadi: O'g'lim Ko'kan, senga aytar bir so'zim bor. (G'.G')

Undalma uyushib kelishi ham mumkin: Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar!

Kirish so'z

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z *kirish so'z* deyiladi. Kirish so'z ma'no jihatidan quyidagilarni bildiradi:

1. Ishonch va tasdiqni: albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan (ham), darhaqiqat.
2. Guman ni bildiradi: ehtimol, shekilli, balki.
3. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanini bildiradi: menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha.
4. Shodlik yoki achinishni bildiradi: baxtimga, baxtga qarshi, attang, afsuski, esiz.
5. Bayon qilingan fikrning tartibini bildiradi: birinchidan, ikkinchidan, avval, oxiri, nihoyat.
6. Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini bildiradi: demak, shunday qilib, umuman, aksincha, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan.
7. Tasdiq yoki inkorni bildiradi: ha, yo'q, mayli, to'g'ri.

Kirish birikma. So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabati birikma orqali ifodalansa, kirish birikma hisoblanadi; Tabibning ta'biricha, tuzalmaydigan kasal yo'q.

Kirish gap so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gapdir. Yalpiz(cho'l yalpizini aytayotganim yo'q) oshga solinadi. Akam, keksa tabib aytdi, tuzalib ketar ekanlar.

Kirish gap odatda vergul bilan ajratiladi. Agar kirish gap yoyiq bo'lsa, tire qo'yiladi yoki qavsga olinadi.

Ko'chirma gap va o'zlashtirma gap

O'zgalarning hech o'zgarishsiz, ayni shaklda berilgan gapi ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gapda muallif gapining kesimi *dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zлади, айтган* kabi fe'llar bilan ifodalananadi.

Ko'chirma gap so'zlashuv, badiiy uslubda keng qo'llanadi. Ko'chirma gap (ko'chirilgan gap) muallif gapidan avval, keyin, muallif gapining ichida kelishi mumkin. O'z navbatida muallif gapi ko'chirma gap orasida berilishi mumkin:

Nasiba dedi: "Sovuqdan oyoqlarim zirqirab og'riyapti". Ko'chirma gapda tinish belgilari quyidagicha ishlataladi:

1. Ko'chirilgan (ko'chirma) gap qo'shtirnoq ichiga olinadi: badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi. "Darslarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qil", - dedilar dadam. - Ko'p martalab mehmon bo'ldim, - dedi Qutidor, -ul vaqtida bobongiz tirik edilar.(A.Qodiriy)
2. Ko'chirilgan gap darak mazmunida bo'lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo'yiladi. Ko'chirilgan gap so'roq mazmunidagi yoki his-hayajon gap bo'lsa, so'roq yoki undov belgisi qo'shtirnoqdan oldin qo'yiladi (keyin vergul qo'yilmaydi). "Aytilganlarni nega olib kelmading ?"- dedilar jahl bilan oyim.
3. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi.
4. Agar muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha bo'ladi:

a) muallif gapi har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: "Bizning qishlog'imizda,-dedi Fazliddin,-kishi zerikmaydi;

b) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng nuqta qo'yiladi. Ko'chirma gap tire qo'yib davom ettiriladi: "Shoira bilan o'tkaziladigan uchrashuvda barcha bitiruvchi sinf o'quvchilari bo'lishlari shart"-dedi direktor.- Negaki, ular orasida ijod qila boshlaganlari ko'p.

v) ko'chirma gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, muallif gapidan oldin so'roq yoki undov belgisi va tire qo'yiladi.

5. Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha bo'ladi: a) muallif gapining uzilgan qismi oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, muallif gapi davom ettiriladi:

Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.

O'zlashtirma gap. Shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan o'zgalarning gapi o'zlashtirma gap deyiladi:

Nasiba sovuqdan oyoqlari zirqirab og'riyotganini aytdi.

So'roq, buyruq mazmunidagi ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda darak gap shaklida bayon qilinadi. O'zlashtirma gapga aylantirilganda undov, undalma, kirish so'z tushirib qoldiriladi.

Ko'chirma. Biror matndan ko'chirilgan gaplar ko'chirma (sitata) deyiladi. She'riy parchalar ko'chirma tarzida keltirilsa, qo'shtirnoq ichiga olinmaydi. Ko'chirma muallif gapisiz qo'llansa, qo'shtirnoqqa olinmaydi:

Yor o'lung bir-biringizgaki erur yorlig'. Navoiy.

Epigraf qo'shtirnoqqa olinmaydi.

29-§. PUNKTUA TSINYA

Punktuatsiya tinish belgilaringning ishlatalishi haqidagi bo'limdir. *Punktuatsiya* lotincha so'z bo'lib, "nuqta", "joy"ma'nolarini anglatadi. Tinish belgilari me'yori-punktuasion me'yor yozma nutqqa xosdir. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmasa, gapning mazmuni ham, sintaktik tuzilishi ham o'zgaradi. *Masalan*, *Siz yomon odam emassiz.-Siz yomon, odam emassiz.*

Qadimgi lotin, grek va got yozuvlarida so'zlar ba'zan bo'sh joy, ba'zan esa nuqtalar vositasida bir- biridan ajratilgan. Yozuvda so'zlarni (nuqta) bilan ajratish O'rta Osiyo xalqlarning oromiy, turkiy runik yozuv yodnomalarida ham qisman uchraydi. Qadimgi yozuvlardagi bu usul, so'zlarni yozuv ishorasi vositasida ajratish usuli-hozirda punktuatsion usul deb ataladi. Yozuv taraqqiyotiga bog'liq holda nuqtalar vositasida ajratish usulining rivojlanishi hozirgi punktuasiyaning kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Punktuasiyaning termini uch ma'noda qo'llaniladi:

- 1)tinish belgilari sistemasi va qo'llanilish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim;
- 2)punktuasion qonun-qoidalar-normalar yig'indisi to'plami;
- 3)tinish belgilari.

Punktuatsiya sistemasi. *Bu sistema* yozma nutqqa xos bo'lib, har bir milliy til tabiatiga, yozuv sistemasiga bog'liq holda o'rganiladi.

Punktuasiya yozma nutq vahsuli. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma'no turlari va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlarni aniqlashda punktuasiyaning o'rni katta.

Punktuasiya ijtimoiy hodisa. Yozuvda dastlabki qo'llanilgan tinish belgilaringning qo'yilish o'rni, usuli, vazifasi hozirgi holatidan boshqacha bo'lган, ularning vazifasi hozirgidek aniq va murakkab bo'lмаган. *Masalan:* dastlab yulduzcha va rumba tipidagi o'ntadan ortiq ishoralar nuqta vazifasida ishlatalgan.

Punktuasiyaning asosiy vazifalari:

- 1)o'quvchi o'qigan so'zining ma'nosini tinish belgisiga qarab bilib oladi. *Masalan:* "O'qidi". "O'qidi?", "O'qidi!" ;
- 2)yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'no turlarini aniqlashtirish, farqlash uchun;
- 3)gap(yozma nutq) strukturasini aniq belgilash, gapni tashkil etuvchi qismlar, gap bo'laklari va gaplarning tuzilishiga xos turli munosabatlari ko'rsatish uchun;
- 4)yozma nutqni ixcham va ravon ifodalash, stilistik qulaylik uchun. *Masalan:* Toshkentdan Buxoroga qatnaydigan poezd –“ Toshkent”-“Buxoro” poezdi;
- 5)ba'zan yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun punktuasiya zarur bo'ladi.

Nuqta

1. Xabar mazmunidagi darak, buyruq, undov gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.
2. Qisqartirilgan ism-familiyalarning birinchi harfidan (yoki ma'lum qismidan) keyin nuqta qo'yiladi: *A.Q., A. Qod.*
3. Sanash yoki oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llangan raqam yoki harflardan keyin nuqta qo'yiladi: 1. 2. 3.; 5.03.99 yil.

Nuqta- eng qadimgi va eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta gap oxirida qo'llaniladi. Uning qo'llanishi logik-grammatik prinsipga asoslanadi. Bunda stilistik yoki differensiasiya prinsiplariga asoslanadi. Nuqtaning shartli qisqartmalaridan so'ng qo'llanishi uning qo'shimcha funksiyasiga kiradi. *Masalan: Alisher Navoiy-ulug' shoir! A. Navoiy-ulug' shoir!*

So'roq belgisi quyidagi o'rnlarda qo'yiladi:

1. So'roq mazmunidagi gaplardan so'ng qo'yiladi.
2. So'z yoki ibora noaniq bo'lsa yoki unda gumon ifodalansa: *Ovqatga tajovuz (?) qilingandan so'ng, mehmonlar qo'llarini dasturxonga (?) artdilar.*

Undov belgisi quyidagi o'rnlarda qo'yiladi:

1. His-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng qo'yiladi.
2. Buyurish, tilak, orzu-umid mazmunidagi buyruq gaplardan so'ng: *Tur, ko'zimdan yo'qol!*
3. Gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytildigan undalma, undov so'zlar hamda *ha, yo'q* modal so'zlaridan keyin undov belgisi qo'yiladi.

Ko'p nuqta quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligini ko'rsatish uchun: *Yana shuni aytgan edingizki...*
2. Ba'zan ko'p nuqta so'z zlovchining fikr-mulohazasini o'y -tasavvurini, xohish-istagini bildiradi: *Uydagi ishlarning hammasini o'zi qilsa, o'zi tartibga solib, o'zi bezasa...* (A. M.)

Ko'p nuqta, undov va so'roq belgilari so'roq va his-hayajon birgalikda, yaxlit ifodalanganda, so'roq va undov gaplar tugallanmay qolganda birgalikda qo'llanadi. Ko'p nuqta biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun ham qo'yiladi.

Vergul o'zbek yozuvida XX asrdan qo'llana boshladi

Vergul quyidagi o'rnlarda qo'yiladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida: *Muhayyo, Lazokat, Xurshidalar shu erga kelishadi.*
2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot* (E. J.)
3. Kirish so'z, kirish birikma va sodda tuzilishdagi kirish gaplar vergul bilan ajratiladi: *Albatta, maqsadga erishamiz. Tabibning ta'biricha, tuzalmaydigan kasal yo'q.*
4. *Ha* va *yo'q* so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun qo'yiladi: *-Ha, ertaga shahar tashqarisiga chiqamiz.*
5. Undov so'zlarni ajratish uchun ham vergul qo'yiladi: *Ey, go'zal Farg'ona, qadim maskanim!*
6. Ajratilgan bo'laklarni ayirishda vergul ishlatiladi: *Biz, o'quvchilar, intizomli bo'lishimiz kerak.*
7. Bog'langan qo'shma gaplarning ba'zilari, ergashgan qo'shma gaplar vergul bilan ajratiladi (va, ham, hamda, yoki bog'lovchilari ishtirot etsa, vergul qo'yilmaydi).

Nuqtali vergul quyidagicha qo'llanadi:

1. O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug'i, hayot quvonchi... (S.Nazar)

2. O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqil bo'lgan sodda gaplar orasida.
3. Yordamchi vositalarsiz bog'lanadigan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmuni u qadar yaqin bo'lмаган voqeа-hodisalarни ifodalasa, shuningdek, sodda gaplarning

o'zida vergul ishlatilgan bo'lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Shinel jiqla ho'l; Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.*

Tire quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:

1. Fe'l bo'limgan kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega o'tasida: *Yurgan-daryo, o'tirgan-bo'yra.*
2. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Hayo, odob, insof, diyonat- bular inson siyratini bezaydigan fazilatlardir*
3. Kirish gap bilan gap bo'laklari o'tasida: *Muhayyo va Lazokat ikkovlari-o'shanda hali tong yorishmagan edi- paxtazor tomon ketishdi.*
4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida.
5. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda.
6. Kutilmagan voqeа-hodisalarни ifodalagan gaplардан oldin: *Men darrov idoraga yugurdim-yo'qsiz.* (O)
7. Zid ma'noli gaplar orasida: *Jismimiz yo'qolur-o'chmas nomimiz.* (G'.G')
8. Ajratilgan bo'lak bilan izohlan mish bo'lak orasida: *Otam-Ne'mat Anorboev, shu jamoaning faol a'zosi edi.*

Ikki nuqta quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin: *Daraxtda barcha sayroqi qushlar: sa'va, mayna, bulbul jamlangan edi.*
2. Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa: *Tuni bilan u الخلود: singan qo'lim bezovta qildi.*
3. Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatsa: *Xonanda bor mahorati bilan kuyladi: o'tirganlarning ko'zida yosh qalqdi.*
4. Bir gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: *Onam aytar: zerikmay, bolam, to'yga bor, bor.* (Qo'shiqdan)
5. Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi.

Qavs

Qavsnинг о'zbek yozuda tinish belgisi sifatida qo'llanishi XIX asrning 70-yillaridan boshlangan. Qavs struktura jihatdan ikki elementli tinish belgisi sanaladi. Uning 1-elementi ochiluvchi qavs, 2- elementi yopiluvchi qavs deb yuritiladi. Yopiluvchi qavs raqam yoki harf bilan belgilashda ishlatiladi.

Qavs:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror qismiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki iboralar qavsga olinadi: *Salomat opa (adabiyot muallimasi) ertaga shoir bilan uchrashuvga kelishimizni tayinladilar.*

Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan so'ngga ko'chiriladi.

2. Kirish gaplar, remarkalar qavs bilan beriladi: *Qirg'iz O'roz belbog'iga mahkam chandib tugilgan bittagina so'l kavoyni (kim biladi, buni qachonlardan beri saqlab keladi) chiqarib sekingina tashladi.* (O.); *Maryamxonim (yig'lab); Majburiyat keltirdi mani?* (H.H)

3. Misol yoki ko'chirmalar manbai qavs ichida beriladi: "Turk nazmida men chu tortib alam..." (Navoiy)

Qo'shtirnoq quyidagi o'rnlarda qo'llanadi:

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi.
2. Kinoya bilan aytilgan so'z yoki so'z birikmalari qo'shtirnoqqa olinadi.
3. Badiiy asarlar, ayrim uyushma, korxonalar nomi, orden va medal nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: "Layli va Majnun" dostoni, "Mustaqillik ordeni", "Yulduz"ishlab chiqarish birlashmasi.

Qo'shtirnoqqa olingan so'z turlovchi qo'shimcha bilan kelsa, bu qo'shimcha qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi:... *erining "kirdikori" dan xabardor bo'lganday o'smoqchiladi* Shakarxon. (H.N)

Gaplar qo'shtirnoqqa olinganda so'roq, undov belgilari qo'shtirnoq ichida, nuqta, vergul qo'shtirnoqdan tashqarida qo'yiladi.

30-§. LINGVISTIK TAHLIL METODLARI

Tilshunoslik fanining o'rganish sohasi bo'lган tilni har tomonlama tahlil qilish Fan taraqqiyotiga mos metodlarni taqozo etadi .

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1 . Metod obyektiv bo'lmosg'i kerak . Metodning qo'llanish vaqtি va o'rnidan qat'iy nazar , natija bir xil bo'lishi lozim . Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi .

2 . Metod izchil bo'lishi , aniq tushunchalarga asoslanishi lozim .

3 . Metod universal bo'lishi , ya'ni sohaning asosiy bo'limlanishi (kamida to'rtta) tahlil qila olishi kerak .

4 . Metod foydalanish mumkin bo'lган darajada sodda bo'lishi lozim .

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lган bir necha metod qo'llanadi . Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil :

a) umumiyl metodlar .

b) lingvistik tahlil metodlari .

Ushbu metodlar bir – biriga bog'liq holda ish ko'radi va muayyan xulosalarini bayon etadi .

Umumiyl metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir . Jumladan , umumiyyadan xususiyga , xususiyidan umumiya , analiz – sintez , oddiyidan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarda amal qiladi .

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib , shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi .

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quidagi metodlar qo'llanadi;

- gap bo'laklari metodi;
- tarixiy – qiyosiy metod;
- substitusiya (almashtirish) metodi;
- distributiv metod;
- tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
- tranformatsion metod;
- statistik tahlil metodi;
- ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi.

Gap bo'laklari metodi tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo'lgan . Bu metodga ko'ra gaplar bo'laklarga ajratiladi . Bunda so'zning gapdag'i vazifasiga asoslaniladi . Gap bo'laklari tahlili quyidagicha amalgam oshiriladi .

1 . Gapning bosh bo'laklari (ega va kesim), ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi , aniqlovchi , hol) ajratiladi .

2 . Gap bo'laklari vazifasida qaysi so'z turkumi keltirilayotganligi aniqlanadi .

3 . Gap bo'lagi vazifasida kelayotgan so'zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriylar) izohlanadi .

Ushbu metod faqat sintaksis bo'limda amal qiladi . Bu metodni qo'llashdagi murakkabliklar deyarli barcha tillarda kuzatiladi .

Tarixiy – qiyosiy metod qiyosiy – tarixiy tilshunoslik asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi .Bu metod dunyo tillarining rang – barangligi , ular o'rtaсидаги о'xhash va farqli jihatlarni qiyoslash asnosida shakllandı . Ushbu metod quyidagi masalalarni hal etadi :

1 . Tillarning o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o'xhash jihatlarini qiyoslash natijasida ularni qarindosh yki qarindosh emasligini aniqlash .

2 . Qarindosh deb topilgan tillarni o'zaro qiyoslab o'rganib , ular uchun umumiy bo'lgan ginetik asosni aniqlash ; bu taxlit o'rganishda retrospektiv qiyoslash usulidan foydalanish . Bunda tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan tarixiy ko'rinishlariga qarab boriladi .

3 . Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o'rganiladi , ya'ni tilning hozirgi holatigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini qiyosan tahlil qilish mumkin . Bunday qiyoslash prospektiv qiyoslash deyiladi . Bunda tarixiy yozma yodgorliklar boshlang'ich manba sifatida xizmat qiladi .

Bu usul yordamida tillar oilasi aniqlanadi . Masalan hind – yevropa tillari oilasi , turkiy tillar oilasi , mo'g'ul tillar oilasi va hokazo . Til oilalari ma'lum xususiyat – lariga ko'ra ya'na guruhlarga ajratiladi . Jumladan , turkey tillar o'ttizga yaqin guruhga o'linadi .

Substitutsiya metodi , almashtirish usuliga asoslanadi . Nutqdagi ma'lum bir o'rinda turgan til birliklari va boshqa muqobili bilan almashtirilib , hosil bo'lgan uslubiy

o'zgarishlar tahlil qilinadi . Bu metod yordamida sinonim , antonym , omonim so'z larning lug'aviy ma'no tizimida tutgan o'rni belgilanadi .

Distributiv metod til birliklarining nutq jarayonida boshqa bir birliklar bilan birika olish imkoniyatini tahlil etadi . Distributivsiyani " sintaktik imkoniyat " sifatida izoh —
—
—
lash mumkin . Masalan , biror so'z , morfema , fonemaning boshqa so'z , morfema , fonema bilan munosabatga kirish imkoniyati shu birliklarning distributsyasi deyiladi .

Distributsiyaning morfologik , sintaktik va leksik – semantik turlari mavjud . Morfologik distributsiya bir turkumdag'i so'zning boshqa turkumdag'i so'z bilan munosabatga kira olishidir : sifat bilan ot , ravish bilan fe'l .

Tarkibiy qismlarga ajratish metodi har qanday butunlikni , xususan gapni hokim va tobeklik munosabatida bo'lgan qismlardan iborat sifatida tahlil etadi . Bu metod grammatik sathda : morfologiya va sintaksisda amal qiladi .

Transformatsion metod zamonaıy usullar ixdida eng mukammali hisoblanadi .

Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniga egaligi bilan xarakterlidir . Statistik tahlil tilning barcha sathlarida qo'llanadi , shuning uchun universal hisoblanadi . Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatilish darajasini aniq ko'rsatib beradi .

Ma'no ko'lamenti tahlil qilish metodi so'zning lug'aviy ma'no ko'lamenti alohida ma'no qirralariga ajratib tahlil etadi . Bu metod ko'p ma'noli so'zlarning ma'no ko'lamenti yoritishda ahamiyatlidir .

Umuman , tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarini aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni beqiyosdir .

Ayrim tilshunoslik terminlari izohi

Abbreviatura (ital)-qisqartma so'zlar.

Abzats (nem)-xat boshi.

Abstrakt ot (lot.)-mavhum ot.

Avtor gapi - muallif gapi.

Adabiy til-umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli. 2) og'zaki shakli.

Alfavit - alifbo (yunon alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi: alpha va beta).

Antonim (yun.)-o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

Argo (frans.)-yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar)ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili.

Arxaizm (yun.)-ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

Affiks (lot.)-qo'shimcha.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir. **Progressiv assimilyatsiya** - aytdi-aytti, yurakga-yurakka. **Regressiv assimilyatsiya** – yigitcha-yigichcha, tuzsiz-tussiz.

Bog'lama fe'l bo'lman so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l.

Dissimilatsiya – ikki o'xhash tovushning o'ren almashinushi. **Progressiv dissimilyatsiya**: birorta-bironta. **Regressiv dissimilyatsiya** – ittifoq-intifoq

Eksperimental fonetika – nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi havo tebranishi, tebranish miqdori sarflangan vaqt, oberton qanday yuzaga chiqishi kabilar ma'lum texnik apparatlar vositasida aniqlanadi va shu asosda fonetik qonuniyatlar bo'g'in, urg'u, intonatsion xususiyatlar aniqlanadi.

Fraza – nutqning yagona intonasiyaga ega o'zaro to'la pauza bilan ajraluvchi qismi.

Fonetik transkripsiya – talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi va xorijiy tillar lug'atida keng qo'llaniladi. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo'lishi mumkin. Ba'zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa diakritik belgilardan, boshqa alifbelardan qo'shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo'lidan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega..

Fonematik transkripsiya – Grammatika kitoblarida misollarning morfologik strukturasini ko'rsatish uchun ko'proq ishlataladi, chunki bunday hollarda so'z talaffuzidan ko'ra so'z tarkibi ahamiyatlidir; mazkur transkripsiya asosan fonemalarni qanday o'rinda ishlatalgan bo'lishidan qat'i nazar, doim bir xil belgi bilan ko'rsatishdir.

Flektiv tillar – o'zak morfema va affiksal morfema chegarasini ajratish qiyin bo'lган tillar.

Unga xos belgilar:

- bir affiks bir necha ma'noni beradi
- affiks bir vaqtida ham shaxs, zamon va sonni ko'rsatishi mumkin.
- affiks bir necha variantga ega bo'lishi mumkin
- o'zak va negizga affikslar qo'shilganda tovushlar almashinushi kuzatilishi mumkin.
- o'zak va negiz, negiz va grammatik affikslar o'rtasidagi chegarani belgilash qiyinchilik tug'diradi.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, tiplari, tovushlar o'zgarishi, bo'g'inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg'u, urg'u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog'idir.

Vulgarizm (lot.)- dag'al so'z.

Grammatika (yun.)-tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi.

Grammatik ma'no - so'zning shakliy qismi grammatik shakli ifodalaydigan ma'no.

Grafika (yun.)-nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi.

Dialekt (yun.)-umumxalq tilining ma'lum bir hududda qo'llanadigan ko'rinishi.

Dialog (yun.)- suhbатdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi.

Jargon (fr.)- biror guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zgacha ma'noda qo'llaydigan so'z va iboralar.

Leksema (yun.)- tilning lug'at tarkibiga xos birlig; til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi birligi.

Leksik ma'no- so'zning material qismi (leksema) bildiradigan ma'no; lug'aviy ma'no.

Lingvistika - tilshunoslik.

Morfema (yun.)- tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Morfema ikki xil bo'ladi: 1) o'zak (so'z) morfema; 2) affiksal morfema (qo'shimcha morfema).

Morfemika-morfemalarning mohiyati, tuzilishi, turlari haqidagi bo'lim, ta'limot.

Morfologiya (yun.)-grammatik ma'no so'z shakllari, so'z turkumlari haqidagi grammatik ta'limot.

Neologizm (yun.)- yangi so'z, iboralar. Neologizmlar – taraqqiyotni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir.

Numerativ-hisob so'zлари.

Nutq tovushi – o'pkadan kelayotgan havoning nutq organiga urilishidan hosil bo'lган tebranish.

Olinma so'z - o'zlashma so'z.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o'zligarishi va uning qonuniyatlar haqida ma'lumot beriladigan sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o'zgarishi bilan bog'langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

Triftonglar – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av..]

Transkripsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo'lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o'qish-o'qitish ishlarida keng foydalilanadi.

Qiyosiy fonetika – qardosh tillar uchun umumiyl hodisa va qonuniyatlarning holati, qo'llanish miqdorlari, o'ziga xosligi qiyos qilinadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Azizov O. " Tilshunoslikka kirish " T., 1996
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. –T.,1999
3. Акшина А.А. Пособие по курсу «Введение в языкознание» -М.,1969.
4. Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики., -М.,1975
5. Baskakov N.A., Sodiqov A.S. "Umumiyl tilshunoslik ".-T., 1979
6. Баранникова Л.И. Введение в языкознание. Издательство Саратовского университета,-М.,1973.
7. Berdiyorov X., Xo'jayev P., Yo'ldoshev B. Umumiyl tilshunoslik.-Samarqand, 1974.
8. Бондарко А.В.Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии.-Л.,1983.
9. Dadaboyev H.A. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati.-T.,2003
10. Dadaboyev H. A. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi.-T., 2004
11. Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания.-М.,1982.
12. Гельб И.Е. Опыт изучения письма (Основы грамматологии)-М.,1982.
13. Головин Б.Н. Введение в языкознание.-М.,1966.
14. Irisqulov M. " Tilshunoslikka kirish " - T., 1992.
15. Ismoilov B. " Dunyoni bilishda til va tafakkur birligi.-T.,1966.

16. История письма.-М.,1979.
17. Журавлев В.К. Внешние и внутренние факторы языковой эволюции.-М.,1982.
18. Кодухов В.И. Введение в языкознание .-М.,1987.
19. Козлова М.С.Философия и язык.-М.,1972.
20. Колшанский Г.В. Логика и структура языка.-М.,1965.
21. Маслов Ю.С. Введение в языконание.-М.,1975.
22. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. "Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot"bobi.-T.,1978.
23. Ne'matov H. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi.-T.,1992.
24. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq.-T., 1993
25. Общее языкознание, Формы существования, функции, история языка. Под редакц. Б. А. Серебренникова. Изд,"Наука"-М.,1970.
26. Панов М.Б. Современный русский язык. Фонетика.-М.,1979.
- Qo'chqortoyev I., Qo'chqortoyeva R " Tilshunoslikka kirish " T., 1976.
26. Qo'chqortoyeva R . „, Tilshunoslikka kirish kursidan mashqlar“ .-T., 1989
27. Qahhorova H. "Tilshunoslikka kirish" kursining programmasi.-T.,1995
28. Реформатский А.А. Введение и языковедение,4-е изд.-М., "Просвещение",1967.
29. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati.-T.,2000
30. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami.-T., 2001
31. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari.-T.,2002
32. Решетов В.В. Узбекский язык. Ч . 1.Введение. Фонетика.-Т.,1959.
33. Сепир Э. Введение и изучение речи. М-Л.,1934.
34. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik.-T.:»O'qituvchi», 1981
35. Соссюр Ф.дe.Труды по языкознанию.-М.,1977.
35. Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T:"O'zbekiston", 1992..
36. Трубецкой Н.С.Основы фонологии.-М.,1960.
- 37.Usmonov S. "Umumiyl tilshunoslik" "O'qituvchi" 1972.
- 38.Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков.-М.,1974.
39. Xolmonova Z " Tilshunoslikka kirish " Ma'ruzalar matni. -T. 2000
40. Xolmanova Z. "Tilshunoslikka kirish" kursining namunaviy dasturi.-T.,2000
41. Щерба Л.В.Языковая система и речевая деятельность.-М-Л., 1974.
42. Щерба Л.В., Виноградов В.В. Об основных языковых единицах// Грамматика русского языка. I. Изд. АН. М.: 1953, 9-12
43. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка.,-М.,1984.
44. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T., 1980
45. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T., 2002.

MUNDARIJA

Kirish	4
1-§.«Tilshunoslikka kirish” fani predmeti, maqsadi, vazifalari.....	5
2-§.Tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi.....	7
3-§.Tilning ijtimoiy tabiatı.....	15
4-§.Til va jamiyat. Sotsiolingvistika.....	20
5-§.Til-ramzlar tizimi.....	26
6-§.Til va nutq.....	31
7-§.Til va tafakkur.....	34
8-§.Til birliklarining o’ziga xos tabiatı.....	36
9-§.Dunyo tillari va tillar tasnifi.....	38
10-§.Turkiy tillar oilasi.....	50
11-§.Tilshunoslik va uning bo’limlari.....	57
12-§. Fonetika.....	58
13-§.Orfoepiya.....	63
14-§. Orfografiya.....	65
15-§ Tildagi tarixiy-fonetik o’zgarishlar va fonetik-fonologik qonuniyatlar.....	67
16-§.Grafika.....	68

17-§. Til va yozuv.....	72
18-§. Leksikologiya	74
19-§.Lug'at sathi taraqqiyotadagi ichki va tashqi omillar.....	81
20-§Lug'at sathining qo'llanish doirasiga ko'ra tasnifi....	83
21-§. Frazeologiya.....	86
22-§. Uslubiyat	87
23-§.Leksikografiya	88
24-§.Etimologiya.....	90
25-§. Lug'at sathi taraqqiyotidagi ichki manba. So'z yasalishi.....	91
26-§. Morfemika.....	92
27-§.Morfemalarning agglyutinativ tabiatı.....	93
28-§. Grammatika.....	94
29-§. Punktuatsiya.....	131
30-§.Lingvistik tahlil metodlari.....	136
Ayrim tilshunoslik terminlari lug'ati.....	139
Asosiy adabiyotlar.....	143